ломков, деталей одежды, а также предметов, находившихся в руках пешехода. Из практического опыта отдела отметим, что непосредственное место столкновения часто определяется по мелким обломкам поврежденных частей автомобиля и скоплениям грязи с его днища, которые могут быть обнаружены непосредственно на месте наезда. Более крупные обломки и детали, как правило, выбрасываются вперед по направлению движения автомобиля, в зависимости от его скорости и размеров разбросанных частей.

Таким образом, в современной экспертной практике в рамках производства автотехнической экспертизы для подготовки объективных и достоверных выводов, относящихся к ме-

ханизму наезда автомобиля на пешехода, необходимо ответственно подойти к выбору методического сопровождения экспертного исследования. Экспертные исследования, нацеленные на перманентное совершенствование, с технической и экспертной точки зрения, методических подходов, позволят как расширить перечень факторов и обстоятельств, наиболее полно характеризующих механизм наезда транспортного средства на пешехода, так и безусловно повысить достоверность подготавливаемого заключения дорожно-транспортного происшествия, связанного с наездами на пешеходов, относящихся к категории происшествий, сопровождающихся наиболее тяжкими последствиями.

ЛИТЕРАТУРА

1. Сухарев А.Г., Калякин А.В., Егоров А.Г., Головченко А.И. Трасология и трасологическая экспертиза: учебник. – Саратов: Саратовский юридический институт МВД России, 2010. – 420 с.
2. Коршаков И.К. Автомобиль и пешеход: анализ механизма наезда, Москва: Транспорт, 1988. – 142 с.
3. Кристи Н.М., Тишин В.С. Транспортно-трасологическая экспертиза по делам о дорожно-транспортных происшествиях: методическое пособие. Вып. 2. Москва: ВНИИСЭ МВД СССР, 1988. – 217 с.
4. Балакин В.Д. Экспертиза дорожно-транспортных происшествий: учебное пособие, Федеральное агентство по образованию СИБАДИ, Омск, 2005. – 136 с.
5. Полтавская Ю.О. Методика экспертного исследования дорожно-транспортного происшествия с наездом на пешехода // Вестник Ангарского государственного технического университета. №15. 2021. – С.159-164.
6. Домке Э.Р. Расследование и экспертиза дорожно-транспортных происшествий: учебник для студ. высш. учеб. заведений, 2-е изд., М.: Изд. Центр Академия, 2012. – 288 с.
7. Родионова М.А. Особенности проведения допроса водителя, совершившего дорожно-транспортное происшествие, при расследовании дорожно-транспортных происшествий // Криминалистика: вчера, сегодня, завтра. – №1(5). – 2018. – С. 42-46.
8. Звягин Д.В. Проведение исследований по направлению “Исследование следов на транспортных средствах и месте ДТП (транспортно-трасологическая диагностика)” по заявкам АНО “СОДФУ”. Методические рекомендации. – 2021. – 117 с.
9. Масленников В.Г., Озорнин С.П. Определение механизма наезда на пешехода по характеру повреждений автомобиля // Журнал: Вестник Восточно-Сибирского института МВД. – №2(69). – 2014. – С. 35-41.
10. Молодцов В.А. Расследование и экспертиза ДТП: методические указания по выполнению курсового проекта по дисциплине “Расследование и экспертиза ДТП” направления подготовки бакалавров 23.03.01(190700.62) // Тамбов: Изд. ФГБОУ ВПО “ТГТУ”. - 2014. – 52 с.

EKSPERT FAOLIYATIDA ASHYOVIIY DALILLAR VA PROFILAKTIK VAZIFA

ILYASOVA

*Nazira Kaxramanovna,
Adliya vazirligi huzuridagi
X.Sulaymonova nomidagi Respublika
sud-ekspertiza markazining
Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi
laboratoriyasi bosh eksperti,
1-darajali yurist*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola “Ekspert faoliyatida ashyoviy dalillar va profilaktik vazifalar” mavzusiga bag'ishlangan. Maqolada, ekspertlarning ishida ashyoviy dalillarni to'plash va tahlil qilishning ahamiyati, ularning qanday qilib to'g'ri va samarali ishlatilishi sud-xatshunoslik ekspertizasi misolida ko'rib chiqiladi. Ekspertlar faoliyatining asosi bo'lgan dalillarga asoslanib, jinoyatlarni aniqlashda ular muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, profilaktik vazifalar, ya'ni jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi ekspertlarning o'rni, asosiy metodologik yondashuvlar va amaliyotlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ekspert, ekspertlik faoliyati, ashyoviy dalillar, kriminalistik ekspertizalar, sud-xatshunoslik ekspertizasi.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена теме “Материальные доказательства и профилактические задачи в деятельности эксперта”. Рассматриваются важность сбора и анализа материальных доказательств в работе экспертов, а также их правильное и эффективное использование на примере судебно-экспертной экспертизы. Доказательства, являющиеся основой деятельности эксперта, играют ключевую роль в выявлении преступлений. Также рассматриваются профилактические задачи: предотвращение преступности, обеспечение социальной безопасности, роль экспертов в этих процессах, а также основные методологические подходы и практические аспекты.

Ключевые слова: эксперт, экспертная деятельность, материальные доказательства, криминалистическая экспертиза, судебно-экспертная экспертиза.

ANNOTATION

This article is dedicated to the topic of “Material Evidence and Preventive Tasks in the Expert's Activity.” The article discusses the importance of collecting and analyzing material evidence in the work of experts, as well as their proper and effective use, with a focus on forensic expertise. Evidence, which is the foundation of the expert's work, plays a key role in crime detection. The article also addresses preventive tasks, such as crime prevention, ensuring social security, and the role of experts in these processes, as well as the main methodological approaches and practical aspects.

Key words: expert, expert activity, material evidence, forensic expertise, criminalistics expertise.

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi idoralarining jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyati samaradorligi juda ko'p jihatdan zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan faol va o'z vaqtida foydalanishga bog'liq. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazida sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish, yangi turdagi sud ekspertizalarini yaratish, sud ekspertlarining nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish faoliyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

Markazda sudekspertiza sohasida yangi metodikalarni ishlab chiqish yoki mavjud metodikalarni ilmiy asoslangan yangi ma'lumotlar bilan boyitish va amaliy faoliyatga tatbiq etish amalga oshirilishi belgilangan, natijada esa sud ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini yangilash, ushbu soha xodimlari – sud ekspertlarining kasbiy mahoratini yuksaltirishga erishilmoqda.

Qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlashda sud-xatshunoslik ekspertizasining hissassi beqiyosdir.

Ta'kidlash joizki, sud-xatshunoslik ekspertizasi – kriminalistik ekspertizalarning eng murakkab turlaridan biri bo'lib, jinoyat, ma'muriy, iqtisodiy va fuqarolik ishlari bo'yicha obyektiv haqiqatni ochishga yordam beradi. Uning yordamida dastlabki tergov va sud organlari fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy, jinoyat ishlari bo'yicha ahamiyatli bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlanadi, shu bilan birga profilaktik tavsiyalar beriladi. Xatshunoslik sohasidagi nazariy va amaliy tadqiqotlar doimo ekspert-xatshunos hal etadigan masalalar qamrovini kengaytirishga imkon beradi.

Xatshunoslar turli qo'lyozma yozuvlar, raqamli belgilar, hujjatlardagi imzolarning bajaruvchisini va hujjatdagi matn bajaruvchisini aniqlaydi, fuqaroviy da'volarni ko'rib chiqishda, jinoyatning oldini olish va uni ochishda ahamiyatga ega bo'lgan turli hujjatlarni tuzish (yozish sharoiti, yozuvchining holati) bilan bog'liq bo'lgan boshqa haqiqiy ma'lumotlarni aniqlashga yordam beradi, ularni bajarishdagi shart-sharoitlar bo'yicha profilaktik tavsiyalar tayyorlaydi.

Hisob-kitob hujjatlarini qalbakilashtirish orqali amalga oshirilgan fribgarlik va o'g'rilik fakti bo'yicha jinoyat ishlarini tergov qilishda xatshunoslik ekspertiza xulosalarining o'rni alohida ahamiyatga ega.

Xatshunoslik ekspertizasi xulosasining muvaffaqiyatlari va uning hozirgi rivojlanish darajasi sud-xatshunoslik kriminalistik ekspertizalar tizimida mustaqil soha ekanligini tasdiqlashga imkon beradi. Xatshunoslik ekspertizalarini o'tkazishning ko'p yillik tajribalari, keng ilmiy va amaliy tadqiqotlar kriminalistlarga xatshunoslik fanining tizimi, uning ilmiy asoslarini aniqlashga, xatshunos ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligi va haqiqiyligini ta'minlovchi ekspertizalarini o'tkazish metodikasini ishlab chiqishga imkon berdi.

Ushbu turdagi ekspertizalarni o'tkazishning qiyinligi odamning yozma-harakat ko'nikmalari o'ta murakkab tashkiliy va ruhiy-fiziologik asosga egaligi, tadqiqotlarning bevosita obyektlari bo'lgan qo'lyozma matnni bajarish jarayoni esa birdaniga bir necha ichki va tashqi omillar ta'sirida kechishi bilan bog'liq.

Ammo shunga qaramay, sud-xatshunoslik ekspertizasining zamonaviy darajasi juda keng qamrovli identifikatsion, diagnostik va klassifikatsion turdagi vazifalarni hal etish imkonini beradi. Bu birinchi navbatda, sud-xatshunos ekspertining obyekti sifatida qo'lyozmalar, qo'lyozma matnlar va imzo qonuniyatlari hamda ularning kriminalistik tadqiqotlarning metodlari haqida bilimlar chegarasi juda kengligi bilan bog'liqdir. Aynan shu jihatlar, sud xatshunosligi va sud-xatshunoslik ekspertizasining nazariy masalalariga ekspert-xatshunoslarning qiziqishlari ortib borayotganligini izohlaydi.

Xatshunoslik ekspertizasini o'tkazishda ashyoviy dalillarni kriminalistik jihatdan tadqiq etish tizimi muayyan xususiyatlarga ega. Qo'lyozmada yozma harakat ko'nikmasi xususiyatlarining xilma-xilligi va bu xususiyatlarning har xil yozuv sharoitlarida o'zgaruvchanligida ko'rinadi.

Ekspert xulosalarini tuzishda ijrochining yozuv belgilarini baholash va mukammal tahlil qilish, ko'p omillarga bog'liq bo'lgan xatning individualligi, xususan, ijrochining salomatligi, yozuv materiallarining sifati, o'z xatini o'zgartirishga urinishi kabilar asos bo'la oladi. Bularning hammasi belgilarning ko'p variantli, o'zgaruvchan va har xil qo'lyozmalarda namoyon bo'lishiga olib keladi.

Har qanday tadqiqotchi, jumladan, ekspert-xatshunos o'z faoliyatida ayniyat, ziddiyat, uchinchisini istisno etmoq, yetarli asos kabi mantiqiy fikrlash qonunlariga rioya qilishi kerak.

Xatshunoslik ekspertizasini o'tkazish jarayonidagi ayniyat qonuni shundan iboratki, tadqiqotchining tafakkur obyekti yagona va uni boshqasi bilan almashtirish mumkin emas. Boshqa so'z bilan aytganda, xatshunoslik ekspertizasini o'tkazish jarayonida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikkita xulosa to'g'ri bo'lmaydi. Ziddiyat qonuni izchillik bilan mulohaza yuritishni talab etadi.

Sud-ekspertlik faoliyatida ushbu turdagi ekspertiza keng tarqalgan turlardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda xatshunoslik ekspertizasining yutuqlari yildan-yilga ortib bormoqda.

Ekspert xulosasini shakllantirishda yetarli asoslash qonuni katta ahamiyatga ega. Bu qonun talablariga binoan, yozuvlarni taqqoslash tadqiqoti jarayonida ekspert bergan har qanday xulosa haqiqiy deb qabul qilinishidan avval asoslanishi, tadqiqot orqali isbot qilinnmog'i kerak. Ekspert tadqiqotning barcha yo'llarini nafaqat isbot-dalil va mantiqiy mulohaza yuritishga rioya qilgan holda bajaradi, balki fotojadval orqali ham ko'rsatadi. Tergovchi, sudya, ayblanuvchi, advokat hamda protsessning boshqa qatnashchilari ekspert xulosasi bilan tanishib chiqarkan, fotojadvalning mavjudligi tufayli xulosaning barcha qismlari mosligi, shu bilan birga, berilgan xulosaning haqqoniyligiga ishonch hosil qilishlari mumkin. Bundan tashqari jinoyatlarning oldini olishda profilaktik tavsiyalarining sud-xatshunoslik ekspertizasida o'z o'rnini bor.

Qonun to'g'ridan-to'g'ri sud ekspertlariga bunday majburiyat yuklamaydi, lekin "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 23-moddasida sud ekspertining xulosasida huquqbuzarlik sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar, shuningdek, ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Ekspert profilaktikasi predmeti – bu jinoyatlar

sodir etilishiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan holatlar(sharoitlar)ni maxsus bilimlar yordamida aniqlash va ularni bartaraf qilish bo'yicha profilaktik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Ekspert profilaktika faoliyatining obyektlari ashyoviy dalillar, qo'l yozuvi namunalari va imzolar, tergov va sud hujjatlari, ularning ish jarayonidagi bayonnomalari va ekspertizaga taqdim etilgan boshqa materiallardir. Shu bilan birga, tadqiqot davrida ayrim terminlarni ko'rsatish mumkin va bu terminlardan ekspertlar profilaktik jarayonlarni yoritishda foydalanadi, bular: asl hujjatlar – huquqshunoslikda ba'zi mansabdor shaxslar tomonidan(rasmiy hujjatlar) yoki uning nomidan shaxsiy hujjat rasmiylashtirilgan shaxs tomonidan tayyorlangan hujjatlar(masalan, tilxat) bo'lib, ularning mazmuni haqiqiysiga mos. To'g'ri tayyorlangan, ammo yolg'on ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjat jinoiy-huquqiy ma'noda haqiqiy emas, balki qalbaki (intellektual qalbakilashtirish) hisoblanadi. Sud ekspertizasida ushbu atama tor ma'noga ega: to'g'ri tayyorlangan hujjatlar, ularning mazmuni haqiqatga mos bo'lishidan qat'i nazar, haqiqiy deb nomlanadi (ya'ni ushbu tashkilotning firma blankasida rasmiylashtirilgan, uning muhri bosilganligi bilan tasdiqlangan, vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan imzolangan), hujjatni soxtalashtirish – asl nusxaga o'xshash hujjatlarni to'liq tayyorlash (to'liq qalbakilashtirish) yoki asl hujjatga o'zgartirishlar kiritish (qisman qalbakilashtirish). Ushbu atama nafaqat kriminalistik, balki jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega, tozalash – hujjatning asl tarkibini o'zgartirish usuli, unda shtrixlar, alomatlar yoki so'zlar mexanik ta'sir (o'chirgich yoki mayda qumqog'oz bilan ishqalash, igna, ustara pichog'i bilan qirib tashlash va boshqalar) yordamida olib tashlanadi.

Jinoyatlarning oldini olishda yetakchi rol surishtiruv organlari, tergovchi, prokuror va sudga tegishli bo'lib, ular jinoyatlar sodir etilishiga sabab bo'lgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni yo'q qilish choralarini ko'rishga majburlirlar.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent, 2010.
3. Xalilov A. va boshq. Zamonaviy sud ekspertizasining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish bo'yicha amaliy qo'llanma. – Toshkent: Adolat, 2023. – 560 b.
4. Zamonaviy ekspertiza imkoniyatlari. Sud ekspertizaning imkoniyatlari va uni tayinlash to'g'risida uslubiy qo'llanma. – T.: RSEM, 2015.

SUD-KOMPYUTER TEXNIK EKSPERTIZASINING HUQUQIY JIHATLARI

MEDET BAYEVA

*Aqsungul Sharapatdin qizi,
O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova
nomidagi Respublika sud ekspertiza
markazi Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot
instituti tayanch doktoranti*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi kunda raqamli jinoyatchilikning ortib borishi va sud kompyuter-texnik ekspertizasining bu jarayondagi o'rni tahlil qilinadi. Ekspertiza jarayonlaridagi tahlil va tadqiqotlar, huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada, shuningdek, sud ekspertizasining huquqiy jihatlari, qonunchilik bilan tartibga solinishi va yurisdiksiya masalalari hamda ularning dolzarbligi ochib berilgan. Raqamli jinoyatchilikka qarshi kurashda ekspertizaning o'rni va qonuniy tartibning takomillashishi zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: raqamli kriminalistika, fishing, ransomware, qonunchilik, kiberxavfsizlik, axborotlashtirish, xalqaro islohotlar, kibertovlamachilik, kiberbulling.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется нынешний рост цифровых преступлений и роль компьютерной криминалистики в этом процессе. Анализ и исследования, представленные в ходе обзора, имеют важное значение для борьбы с преступностью. Статья также содержит мнения о правовых аспектах судебной экспертизы, ее законодательном регулировании и вопросах юрисдикции, а также их актуальности. Подчеркивается роль экспертных знаний в борьбе с цифровыми преступлениями и необходимость совершенствования работы правоохранительных органов.

Ключевые слова: цифровая криминалистика, фишинг, программа-вымогатель, законодательство, кибербезопасность, информатизация, международные реформы, кибервымогательство, киберзапугивание.

ANNOTATION

This article analyses the current growth of digital crime and the role of computer forensics in this process. The analysis and research in the review process is essential for combating crime. The article also contains opinions on legal aspects of judicial science, its legislative regulation and issues of jurisdiction, as well as their relevance. The role of expertise in combating digital crime and the need to improve law enforcement are highlighted.

Key words: digital forensics, phishing, ransomware, legislation, cybersecurity, informatization, international reforms, cyber extortion, cyberbullying.

Bugungi kunda butun dunyoda kiberjinoyatchilik bo'yicha huquqbuzarliklar kundan kunga ko'paymoqda va dalillarning maqbulligiga erishish, transchegaraviy jinoyatlar bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish har qanday davlat uchun aktual muammolardan biriga aylangan. Shu bilan birga, dunyo har qachongidan ham murakkab raqamli aloqaga ega. Jinoyatchilar ushbu onlayn transformatsiyadan onlayn tizimlar, tarmoqlar va infratuzilmaning zaif tomonlariga hujum qilish uchun foydalanadi. Butun dunyo bo'ylab hukumatlar, korxonalar va shaxslarga katta iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir ko'rsatmoqda. Fishing, ransomware va ma'lumotlarning buzilishi hozirgi kibertahdidlarga misoldir. Kiberjinoyatchilar tobora chaqqon va uyushgan holda yangi texnologiyalardan foydalanmoqda, hujumlarini moslashtirib, yangi usullarda hamkorlik qilmoqda. Shu sababli sud-kompyuter texnik ekspertizasi sohasi rivojlanib kelayotgan va keng miqyosda o'rganilayotgan sohalardan biriga aylandi, shuningdek, uning huquqiy jihatlarini turlicha bo'lib, internet tarmoqlari, xakerlik yo'llari va boshqa usullar bilan qilingan jinoyatlar yuzasidan qonunchilik yangilanib bormoqda. Bir tarafdin, yurisdiksiya masalalari ham ekspertizaning huquqiy jihatlarini yoritib berishda katta rol o'ynaydi.

Kiberjinoyatchilik bo'yicha statistikaga to'xtaladigan bo'lsak, 2021-yilda **323,972** nafar internet foydalanuvchisi fishing hujumlari qurboni bo'lganini ma'lum qilgan. Bu shuni anglatadiki, ma'lumotlari buzilgan foydalanuvchilarning yarmi fishing hujumiga uchragan. Pandemiya avj olgan davrda fishing hodisalari **220 foiz** oshgan.

2021-yilda 1 milliardga yaqin elektron pochta xabarlar fosh etildi, bu har 5 nafar internet foydalanuvchisidan 1 tasiga ta'sir ko'rsatdi. Bu fishing hujumlarining davom etishini qisman izohlashi mumkin. Bundan tashqari, 2021-yilda tashkilotlarning elektron bazalarini buzishda ishlatiladigan hujum turlarida ba'zi farqlar mavjud edi. Masalan, Osiyoda hujumlarning asosiy turi serverga kirish bo'lib, kuzatilgan hujumlarning

20 foizini tashkil qiladi. Bu ransomware (11%) va ma'lumotlarni o'g'irlash (10%)dan oldinda edi. Yevropada ransomware hujumlarning asosiy turi bo'lib, qit'adagi hujumlarning 26 foizini tashkil qiladi. Serverga kirish hujumlari (12%) va ma'lumotlarni o'g'irlash (10%) keyingi eng keng tarqalgan hujum turlari edi¹.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, oxirgi 5 yillikda kiberhujumlar soni ortib, unga qarshi texnologiyalar paydo bo'ldi. Masalan, blockchain texnologiyasi, mashinani o'rganish, sun'iy intellekt va boshqalar. Lekin shunga qaramay, xakerlik, kriptovalyuta, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash kabi jinoyatlarning izini topish biroz qiyinlashmoqda.

O'zbekistonda ham virtual olamdagi jinoyatlar kundan kunga oshib borayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda 25 mln nafardan ortiq internet foydalanuvchilari mavjud. Mamlakatimizda ham internetdan foydalanish, kiberjinoyatchilik bo'yicha doimiy ravishda tadqiqotlar olib boriladi. O'tkazilgan tahlil natijalari bugungi kunda respublikada kiberjinoyatchilikning o'sish tendensiyasi kuzatilayotganidan dalolat bermoqda.

So'nggi 3 yilda kiberjinoyatlar soni bir necha baravar oshib ketgan. Jumladan, kiberjinoyatchilikning bir qator turlari sodir bo'layotgani kuzatilmoqda va ular quyidagilar:

1) Firimgarlar plastik karta foydalanuvchilari-ga kelgan SMS-xabarnomadagi kodlarni to'lovni amalga oshirish, yutuqni berish kabi bahonalar orqali egallab, undagi mablag'larni o'zlashtirishi;

2) Shaxsiy ma'lumotlarni egallash va ularni oshkor qilish bilan qo'rqitib tovlamachilik qilish (kibertovlamachilik);

3) Ijtimoiy tarmoqda zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, haqorat, suitsid holatlari (kiberbulling) va boshqalar hozir yurtimizdagi kiberjinoyatlar-ni oshib borayotgan turlari hisoblanadi².

Ushbu holatlar milliy qonunchilikni takomillashtirishni talab etib, davlatning xalqaro huquqiy normalar ustuvorligini tan olish prinsipiga asoslanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, milliy huquq tizimini tegishli xalqaro huquqiy me'yorlarga moslashtirish, ularning mazmunini singdirish

¹ <https://aag-it.com/the-latest-cyber-crime-statistics/>

² <https://zamon.uz/detail/ozbekistonda-songgi-3-yilda-kiberjinoyatlar-keskin-oshgan-ozbekiston>

hamda kiberjinoyatchilikning oldini olish maqsadida xalqaro konvensiya va shartnomalarga qo'shilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shuningdek, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash va har qanday transchegaraviy jinoyatchilikning oldini olish maqsadida ko'plab qonunchiliklar mavjud va ular: **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** – bu fuqarolarning shaxsiy daxlsizligi va yozishmalar, telefon suhbatlari, pochta, telegraf va boshqa xabarlar sir saqlanishini kafolatlaydi³. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2018-yil 19-fevraldagi **“Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi farmoni hukumatimiz tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar ishlab chiqilishiga va hayotga tatbiq etilishiga asos bo'ldi⁴. Kiberxavfsizlik, dalillarning maqbulligi, uning saqlanishi va jinoyatchilikning oldini olish maqsadida ko'plab platformalar amalga oshirilmoqda.

Masalan, **“Axborotlashtirish to'g'risida”**gi qonunning qabul qilinishi va unga asosan, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish qoidalari amalga oshiriladi⁵.

Yuqoridagi qonunchiliklarda transchegaraviy holatlarning oldini olish, shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash, axborotlashtirish kabi ishlar aytib o'tildi. Bir tarafdin bu holatlar qonun ustuvorligini ta'minlaydi. Ikkinchi tarafdin olib qaralganda, kiberjinoyatchilik yillar davomida emas, kundan kunga rivojlanayotgan holat hisoblanadi. Ya'ni dalillarning maqbulligi, uning saqlanishi va kiberjinoyatlarga oid qonunchilikni rivojlantirish, tergov organlarining texnik imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro tajribadan foydalangan holda raqamli kriminalistika tizimini shakllantirish jinoyatchilikning pasayishiga o'z hissasini qo'shadi.

Masalan, O'zbekistonda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish (sud-kompyuter texnik ekspertizasi) uchun maxsus qonunlar va huquqiy normalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa kiberjinoyatlarni tergov qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu bilan birga, **“Axborotlashtirish**

to'g'risida”gi qonunga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu qonunda axborot resursi, tizimi, bu bo'yicha davlat siyosati, huquqiy rejimi, hujjatlashtirish va boshqa holatlar yoritib berilgan. Bir tarafdin, ushbu qonunda axborotlashtirish tizimidan foydalanish haqida aytilgan. Ikkinchi tomondin olib qaralganda, raqamli xavfsizlik qoidalari ushbu qonunga qo'shimcha sifatida belgilanishi va aniq tushunchalar bilan kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi, shuningdek, davlat va xususiy sektorlar uchun kiberxavfsizlik standartlari mexanizmini ishlab chiqish samarali natijalarga olib keladi.

Xo'sh, raqamli xavfsizlik qoidalari o'zi nima va uning ahamiyati qanday? **Raqamli xavfsizlik (cybersecurity)** – bu ma'lumotlarni, qurilmalarni va tarmoqlarni kiber tahdidlardan himoya qilish tizimi. Raqamli xavfsizlik qoidalarini axborotlashtirish tizimida joriy etish – bu ma'lumotlarni noqonuniy kirish, buzish va o'g'irlikdan himoya qilishning muhim usuli. Zamonaviy dunyoda davlat, biznes va oddiy foydalanuvchilar uchun kiberxavfsizlik talablarining oshib borayotgani bejiz emas. Quyida ushbu qoidalarni joriy etish zarurligini asoslaydigan asosiy sabablar va misollar keltiriladi.

Raqamli xavfsizlik choralari joriy etish – bu ma'lumotlarni shifrlash, xavfsiz autentifikatsiya, firibgarlikning oldini olish va xavfsizlik, ma'lumotlarni himoya qilish orqali bunday xatarlarga qarshi turishga yordam beradi. IBM (**International Business Machines Corporation**)ning 2024-yildagi statistikasi bo'yicha, ma'lumotlar buzilishining o'rtacha qiymati **4,88 million** dollarga ko'tarildi. 2023-yilda **4,45 million** dollardan 10 foizga o'sgan va eng yuqori ko'rsatkich pandemiyadan keyin oshgan⁶.

1. Bugungi kundagi aktual muammolardan biri bu – kiberhujumlarga qarshi immunitet hosil qilishdir. Ya'ni raqamli xavfsizlik choralari, ransomware, fishing, xakerlik yoki shunga o'xshash boshqa holatlarning tez-tez ro'y berishining oldini olish maqsadida qonunchilik va platformalar bilan ularni mustahkamlash va oxirgi texnologiyalar yordamida axborotlashtirish ushbu holatlarning oldini oladi.

2. Hukumat va davlat tizimlarini himoya qilish – bu hukumat va idoralar tizimlaridagi ma'lumotlarni himoya qilish va shaxsiy

³ <https://lex.uz/docs/-6445145>

⁴ <https://lex.uz/docs/-3564970>

⁵ <https://lex.uz/docs/-83472>

⁶ <https://www.ibm.com/us-en>

ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash hisoblanadi. Misol tariqasida, 2007-yili Estoniyaga katta miqyosdagi DDos hujumi uyushtirilgan va davlat xizmatlari ishdan chiqqan. Natijada hukumat tizimlarining ishi to'xtagan va shaxsiy huquqlar, muhim ma'lumotlar zarar ko'rgan⁷. Ushbu holatdan ko'plab fuqarolar, davlat idoralari va mamlakatning o'zi ham katta ziyonga uchragan va shu voqealardan keyin ularning qonunchiliklarida kompyuter sabotaji va kompyuter tarmog'ining ishiga aralashish kabi jinoyat turlari Jinoyat kodeksiga qo'shilgan.

3. Moliyaviy tizimlar va banklarni kiberjinoyatlardan himoya qilish – shu yilning yanvar oyida AQSHning eng yirik chakana ipoteka kreditorlaridan biri **LoanDepot** to'lov dasturi hujumiga uchradi. Hujum kompaniyani tizimlarni oflayn rejimga o'tkazishga majbur qildi va mijozlar ipoteka to'lovlarini amalga oshira olmadi. Oqibatda, ushbu buzilish nozik moliyaviy va shaxsiy ma'lumotlar, jumladan, ijtimoiy sug'urta raqamlarini oshkor qildi va jami **26,9 million dollarni** tiklash xarajatlariga olib keldi. Tizimlarning zaifligi va maxsus xavfsizlik choralarning kuchaytirilmaganligining natijasida zarar ko'rildi. Moliyaviy tizim va banklarni kiberjinoyatlardan himoya qilishda qonun ustuvorligi va xalqaro standartlar asosiy ro'l oynaydi.

Yuqorida keltirilgan misollar bo'yicha raqamli xavfsizlikni joriy etish va ushbu sohalarida qonun ustuvorligini ta'minlash asosiy tamoyillardan biridir. Zamonaviy asbob-uskunalar yordamida har qanday holatlarning oldini olish, uni axbotrotlashtirishda muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatlar, xususan, fribgarlik, ma'lumotlarni o'g'irlash, kiberxavfsizlik buzilishi kabi holatlar bo'yicha sud-kompyuter texnik ekspertizasiga taqdim etilgan texnik dalillar jinoyatni aniqlashda yordam beradi va uning huquqiy jihatlarining mexanizmini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha Prezidentimizning **“O'zbekiston-2030”**

strategiyasini **“Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”** da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida 2024-yil 21-fevraldagi **PF-37-son** hamda **“O'zbekiston Respublikasida sud-expertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”** 2021-yil 5-iyuldagi **PF-6256-son** Farmonlari ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi va unda asosan sud ekspertizasi sohasini yanada kengaytirish va yangi ekspertiza turlarini ochish, yangi jihozlar bilan ta'minlash va xalqaro standartlar bilan ish yuritish kabi islohotlar oldinga surildi⁸.

Albatta, sud ekspertlik sohasini va uning turlarini yanada rivojlantirish bo'yicha ko'plab qonunchiliklar va platformalar mavjud. Ulardan, asosan, sud ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish, ularni tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, tadqiqotlarni o'tkazish tartibi va shunga o'xshash hujjatlar ushbu sohaning yanada rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga, sud ekspertiza faoliyatida sud-kompyuter texnik ekspertizasi ham bugungi kundagi aktual sohalaridan biriga aylanmoqda. Ya'ni raqamli jinoyatchilikning oldini olish va dalillarni to'plash, olish, saqlash bo'yicha yuz berayotgan muammolarning huquqiy jihatlarini hozirgi paytda nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda ishlab chiqilayotgan protsessdir. Chunki, ushbu faoliyat bo'yicha ko'pchilik narsalar yangi va hali tajribalarga boy bo'lishi uning kengroq rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ayni vaqtda, sud-kompyuter texnik ekspertizasining huquqiy jihatlarini ta'minlab beruvchi maxsus mexanizmlarga talablar kundan-kunga oshmoqda. Sababi, dalillarni olish va saqlash, shuningdek, uning maqbulligini sudda isbotlash bo'yicha ma'lum bir aniq huquqiy-normativ hujjatlar mavjud emasligi ishning samaradorligiga sa'lbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sud-kompyuter texnik ekspertizasining huquqiy jihatlarini aniq tartibga solish uchun quyidagi huquqiy mexanizmlar uning rivojlanishiga yordam beradi:

a) **O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK) va Fuqarolik-protsessual kodeksi (FPK)** dalillarni qanday baholashni belgilaydi, ammo elektron va raqamli dalillarni **olish, saqlash va ekspertiza qilish**

⁷ “War in the fifth domain. Are the mouse and keyboard the new weapons of conflict?”. The Economist. 1 July 2010.

⁸ <https://lex.uz/ru/docs/7267634>

bo'yicha aniq me'yorlar umumiy ko'rsatilganligi sababli ularga chuqurroq yondashish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, **“Elektron hujjat aylanishi to'g'risida”**gi qonun mavjud, lekin u sudda foydalaniladigan elektron dalillar bo'yicha aniq protsessual talablarni ko'zda tutmaydi⁹.

b) Hozirgi paytda **“Sud ekspertizasi to'g'risida”**gi qonun turli xil ekspertiza turlarini belgilaydi, ammo **sud-kompyuter texnik ekspertizasi** haqida aniq normalar mavjud emas. Ya'ni ushbu qonun ko'pincha an'anaviy ekspertiza turlariga moslashtirilgan va elektron dalillarni ekspertiza qilishga doir protseduralar aniqlashtirilmagan. Shu bois, ushbu qonunga qo'shimchalar kiritish sud-kompyuter texnik ekspertizasining huquq va majburiyatlarini aniq belgilaydi¹⁰.

Fikrimizcha, sud ekspertizada elektron dalillarni tekshirish va isbotlash uchun aniq protseduralar yaratish, kompyuter-texnik ekspertiza o'tkazish bo'yicha yagona standart joriy etish, sud ekspertizasi markazlari va mutaxassislari uchun aniq huquqiy talablar belgilash va xalqaro tajribalar bilan birgalikda ishlash sud-kompyuter texnik ekspertizasining huquqiy jihatlarini mustahkamlaydi. Ushbu



chora-tadbirlar amalga oshirilganda, sud-kompyuter texnik ekspertizasi tizimi yanada mustahkamlanadi va elektron dalillar ishonchli isbot vositasi sifatida sud jarayonlarida to'liq qabul qilinishi ta'minlanadi.

Bundan tashqari, sud-kompyuter texnik ekspertizasi sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va ilg'or tajribalarni o'rganish orqali milliy ekspertiza tizimining takomillashib borishi ortadi. Bularning hammasi, albatta, xalqaro ekspertiza tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlash, sudlarda elektron dalillarning isbotlanishini xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirish va xalqaro tergov va sud jarayonlarida elektron dalillarni taqdim etish tartibini ishlab chiqish, shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish kabi islohotlar orqali amalga oshiriladi.

⁹ <https://lex.uz/ru/docs/-165079>

¹⁰ <https://lex.uz/mact/-1633102>

ADABIYOTLAR

1. <https://aag-it.com/the-latest-cyber-crime-statistics/>
2. <https://zamon.uz/detail/ozbekistonda-songgi-3-yilda-kiberjinoyatlar-keskin-oshgan-ozbekiston>
3. <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. <https://lex.uz/docs/-3564970>
5. <https://lex.uz/docs/-83472>
6. <https://www.ibm.com/us-en>
7. “War in the fifth domain. Are the mouse and keyboard the new weapons of conflict?”. The Economist. 1 July 2010.
8. <https://lex.uz/ru/docs/7267634>
9. <https://lex.uz/ru/docs/-165079>
10. <https://lex.uz/mact/-1633102>

**ODAM TASHQI QIYOFA
BELGILARI ORQALI
IDENTIFIKATSIYA
QILISHNING HUQUQIY
ASOSLARI VA UNDAN
SODIR ETILGAN
JINOYATLARNI
FOSH QILISH HAMDA
TERGOV QILISHDA
FOYDALANISH**

NIZOMOVA

*Shahrigul Karimboy qizi,
Toshkent davlat yuridik
universiteti doktoranti*

ANNOTATSIYA

Maqolada odam tashqi qiyofa belgilari orqali identifikatsiya qilishning huquqiy asoslari xorij olimlarining fikrlari va mahalliy qonunchiligimiz asosida yoritib berilgan hamda ulardan sodir etilgan jinoyatlarni fosh qilish va tergov qilishda foydalanish qoidalarini ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ekspertiza, namunalar, qiyosiy tadqiqotlar, tezkor-qidiruv faoliyati, genom.

АННОТАЦИЯ

В статье освещены правовые основы идентификации человека по внешним признакам с учетом мнений зарубежных ученых и отечественного законодательства, а также указаны правила их использования при раскрытии и расследовании совершенных преступлений.

Ключевые слова: экспертиза, образцы, сравнительные исследования, оперативно-розыскная деятельность, геном.

ANNOTATION

The article highlights the legal basis for identifying a person by external features based on the opinions of foreign scientists and domestic legislation, and also indicates the rules for their use in the detection and investigation of committed crimes.

Key words: expertise, samples, comparative studies, operational-search activities, genome.

Jinoyat ishlarini tergov qilish amaliyotini takomillashtirishning eng muhim shartlaridan biri – huquqni muhofaza qilish organlari oldida turgan muammolarni yuqori darajada hal qilishga imkon beradigan fan va texnikaning barcha sohalaridagi ilmiy yutuqlarni tergov organlari faoliyatiga keng jalb qilishdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, yaqin kungacha na qonunchilikda, na kriminalistik adabiyotlarda, shu jumladan sud ekspertizasi adabiyotlarida “namunalar” tushunchasining aniq ta'rif, shuningdek, uning ekspertiza obyektlari orasida qanday o'rin egallashi to'g'risida qoida mavjud edi. Ushbu holat amaliyotda namunalar deb ataladigan ko'plab obyektlarning to'liq aniqlanmagan protsessual holatini aks ettiradi. Bundan tashqari, namunalar, ashyoviy dalillar va izlar tushunchalarining o'zaro farqi ham aniq ko'rsatilmagan edi.

O'z mohiyatiga ko'ra, qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalar moddiy obyektlarning xususiyatlarini yetkazib beruvchi manba hisoblanadi. Adabiyotlarda qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalarning protsessual xususiyati to'g'risida turli xil qarashlar mavjud.

V.A.Jbankov qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalarni “Tekshirilayotgan obyektlarning individual yoki guruh identifikatorini aniqlash va jinoyat protsessining boshqa masalalarini hal qilishda qiyosiy tadqiqotlar o'tkazish uchun olingan obyektlarning o'ziga xos toifasi” sifatida belgilaydi[1].

G.I.Gramovich namunalar deganda “Ularda ko'rsatilgan boshqa obyektlarning belgilari bo'lgan yoki o'zlarining xususiyat va belgilariga ega bo'lgan, shaxslar, hayvonlar, turli xil narsalar, moddalarning umumiy(guruh) mansubligini aniqlash uchun ishlatiladigan turli xil moddiy obyektlarni, shuningdek, jinoyatni ochish va tergov qilishni osonlashtiradigan boshqa holatlarni aniqlashni” tushunadi[2].

N.I.Doljenkoning fikricha, qiyosiy tadqiqotlar uchun namuna – bu shubhasiz, boshqa obyektдан kelib chiqqan va uning bir qismi bo'lgan yoki uning xususiyatlarini aks ettiruvchi, aniqlanadigan

obyektning umumiy(guruh) mansubligini identifikatsiya qilish uchun maxsus hamda tergov qilinaётgan jinoyatning boshqa holatlarini topish, tadqiqotlar o'tkazish uchun olingan moddiy obyekt[3].

Modellashtirish nazariyasi nuqtayi nazaridan namunalar tushunchasini aniqlash yuzasidan I.E.Loban, G.I.Zaslavskiy va V.L.Popovning fikriga ko'ra, “qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalar – qiyosiy ekspert tadqiqotlari, ularning xususiyatlarini saqlash va ko'paytirishning maqbul rejimini ta'minlaydigan asl obyektlarning moddiy modellaridir” [4].

I.L.Petruxin namunalarni “tergov yoki sud-da sodir etilgan jinoyat bilan bog'liq deb taxmin qilgan boshqa narsalar yoki subyektlarning xususiyatlarini, holatlarini, turlarini(individual va guruh) aks ettiruvchi displeylar, narsalar, moddalar” deb ta'riflagan[5].

Bizning fikrimizcha, N.I.Doljenkoning ta'rif, ya'ni “qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalar” tushunchaning mohiyatini eng to'liq, aniq va qisqacha tavsiflaydi.

O'zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi qonunining 9-moddasiga muvofiq, ashyoviy dalillar, tekshirish uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek, sud ekspertizasi o'tkazilayotgan ish materiallari tekshirish obyektlari bo'lishi mumkin. Tekshirishlar tirik odamga nisbatan ham o'tkaziladi.

Tekshirishni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan tirik odam, murda, hayvon, o'simlik, buyum, material yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi obyektlar tekshirish uchun namunalardir, deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 188-moddasida namunalarning turlari va ularni olish usullari ko'rsatilgan.

Maxsus adabiyotlar va protsessual jarayonlarga tayanib qiyosiy o'rganish uchun namunalarni ikkita asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1) Tirik shaxslardan – jinoyat protsessining aniq ishtirokchilaridan, ya'ni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki jabrlanuvchidan olingan namunalar.

2) Manbalari ma'lum protsessual maqomga ega bo'lmagan ashyoviy dalillar, hujjatlar yoki obyektlar(murdalar, voqea joyi)dan namunalar[4].

Qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalarni mustaqil harakat sifatida olish – tirik odamdan o'zida uning xususiyatlarini aks ettiruvchi: **biologik** – qon, soch, so'lak, inson organizmidan ajralib chiqadigan moddalar; **psixofizik** – dastxat; **anatomik** – teri naqshining chiziqlari, tish qoliqlari; shuningdek, ovozning xususiyatlari, kasb malakasini aks ettiruvchi namunalar olinishi mumkin. Murdani ko'zdan kechirishda ham tekshiruv o'tkazish uchun kerakli moddiy namunalar olinishi mumkin.

Namunalarning xususiyatlarini baholash uchun ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

a) kelib chiqishi bo'yicha: tabiiy(insonning fiziologik va biologik faoliyati mahsulotlari – qon, tupuk) va sun'iy(insonning ongli faoliyati mahsulotlari – sanoat mahsulotlari);

b) namunalarni shakllantirish vaqtiga va manfaatdor shaxslarning ularga bo'lgan munosabatiga nisbatan: erkin namunalar(ish bo'yicha ish yuritish bilan bog'liq bo'lmagan holda shakllangan, manfaatdor shaxslar ularni o'zgartira olmagan – ish qo'zg'atilgunga qadar yozilgan hujjatlarning qo'lyozmasi); erkin bo'lmagan namunalar yoki eksperimental(ish bo'yicha ish yuritish bilan bog'liq holda olingan va manfaatdor shaxslar bu haqda bilishgan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 196-moddasi yoki tergov amaliyoti orqali boshqa namunalar bo'yicha tergovchi tomonidan qo'l yozuvi namunalarini olish, ekspert tomonidan namunalarni olish).

Qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalar olish shaklida mustaqil protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun asos – tirik shaxsni(gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi) u qoldirgan izlar bo'yicha aniqlash zarurati hisoblanadi.

JPK 190-moddasiga muvofiq, ekspert tekshiruv uchun namunalar gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan, sudlanuvchidan, jabrlanuvchidan, shuningdek, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ustidan ish yuritilayotgan shaxsdan olinishi mumkin.

Hodisa sodir bo'lgan joyda yoki ashyoviy dalillarda boshqa shaxslar tomonidan ham iz qoldirilgan bo'lishi mumkinligi to'g'risida yetarlicha asoslar bo'lgan taqdirda shu shaxslardan ham ekspert tekshiruv uchun namuna olinishi mumkin.

Jabrlanuvchi va boshqa shaxslardan ham holatga qarab namunalar olishga faqat ular ma'lum bir joyda yoki ashyoviy dalillarda iz qoldirganligini tekshirish uchun ruxsat beriladi. Agar ulardan namunalar jinoyat sodir etganligini isbot qilish uchun olinsa(masalan, nomusga tegish jinoyati bo'yicha boshqa shaxslardan sperma namunalari olinadi, qalbakilashtirish ishi bo'yicha qo'l yozuvi namunalari olinadi), unda bunday shaxs gumon qilinuvchi maqomiga ega bo'ladi.

JPK 192-moddasida tadqiqot uchun namuna olishda majburlov chegarasi belgilab qo'yilgan bo'lib, ushbu moddaga asosan, o'zidan namuna olinishi uchun kelishdan bosh tortayotgan gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, jabrlanuvchilar majburiy keltirilishi mumkin, bunda, basharti qo'llaniladigan usullar og'riq bermaydigan hamda inson hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo'lsa, ulardan majburlov yo'li bilan namunalar olinadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki jabrlanuvchining konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish maqsadida, namunalar tirik shaxsning tanasidan kelib chiqqan moddiy narsalar bo'lishi mumkinligi sababli, JPK 191-moddasida namuna olish to'g'risidagi qaror yoki ajrim chiqarishning maxsus protsessual tartibi belgilab qo'yilgan. Unga asosan, namuna olish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Unda: namuna oladigan shaxs yoki organ; namuna olinishi kerak bo'lgan shaxs; aynan qanday namuna va qancha miqdorda olinishi lozimligi; namuna olinadigan shaxs qachon va kimning huzuriga kelishi zarurligi; olingan namunaning qachon va kimga taqdim qilinishi kerakligi ko'rsatilishi lozim.

Tergovchi qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalar olish to'g'risida qaror qabul qiladi. Namunalarni olishda tergov harakatlarini amalga oshirishning umumiy shartlariga rioya qilish kerak. Namunalarni olish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 197- va 90-, 92-moddalari qoidalariga muvofiq bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Tadqiqot uchun namunalar olishda shaxs huquqlarining himoya qilinishi JPK 196-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda ekspert tekshiruv uchun namunalar olishda qo'llaniladigan usullar va ilmiy-texnikaviy vo-

sitalar inson hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo'lishi lozim. Kuchli og'riq beradigan murakkab tibbiy tadbirlar va usullarni qo'llash namuna olinishi lozim bo'lgan shaxsning roziligi bilan, basharti u voyaga yetmagan yoki ruhiy holati buzilgan bo'lsa, uning qonuniy vakili, vasiylari yoki homiylarining roziligi bilan amalga oshirishi mumkin.

Ba'zi kriminalistika olimlari asarlarida namunalarni majburiy tarzda olish mumkin emas, degan fikr bildirilgan. V.A.Jbankov shunday deb yozgan: "Agar guvohlar, jabrlanuvchilar, ayblanuvchilar, gumon qilinuvchilar namunalarni taqdim etishdan bosh tortsa, tergovchi ushbu harakatning ish uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligini tushuntirishi kerak. Agar ushbu chora kerakli natijani bermasa, unda tergovchi mavjud namunalarni aniqlash va ulardan namunalar olishga harakat qilishi hamda taqqoslash jarayonida ulardan foydalanishi lozim. Agar namunalar mavjud bo'lmasa yoki ularni eksperimental namunalar o'rniga ishlatish imkoni bo'lmasa, kerakli namunalarni topishga qaratilgan tezkor-qidiruv harakati tadbirlari majmuyi o'tkazilishi kerak"[6].

Biroq ba'zi kriminalistik adabiyotlarda yuqoridagi fikrga qarama-qarshi fikr ham bildirilgan, unga ko'ra istisno holatlarda namunalarni olish majburiy ravishda amalga oshirilishi mumkin. Istisno holatlar deganda, tergov jarayonida namunalarsiz ish bo'yicha obyektiv haqiqatni aniqlash mumkin bo'lmagan holatlar tushunilishi kerak, ya'ni namunalar ajralmas bo'lsa va ularning mavjudligi shaxsning aybdorligi yoki aysizligini isbotlashda muhim o'rin tutsa. Masalan, bunday holatlar shaxsning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish jarayonida uchrashi mumkin.

Majburiy choralar, iloji bo'lsa, yuzga aks ta'sir qilishining oldini olish, qisqa va og'riqsiz protsedura bilan cheklanishi kerak. Shu bilan birga, shafqatsiz va qadr-qimmatni kamsitadigan munosabatni taqiqlash to'g'risidagi konstitutsiyaviy qoidaga rioya qilish kerak. Bunday holatlarda ushbu tergov harakatining jinoyat protsesining tegishli ishtirokchi(lari)si bilan o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

N.I.Doljenkoning fikriga to'xtaladigan bo'lsak, fuqarolarning jinoiy ishlarni tergov qilishda ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan

qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalar taqdim etish majburiyati tergovchining ularni olish huquqidan kelib chiqadi. Adabiyotda ta'kidlanganidek, qonunda namunalarni taqdim etishdan bosh tortganlik uchun ma'lum bir choralarning yo'qligi jarayonning har qanday ishtirokchisi unga zarur bo'lgan namunalarni taqdim etish yoki bermaslik to'g'risida o'z xohishiga ko'ra qaror qabul qilish huquqiga ega ekanligini anglatmaydi. Bunday holatda, tergovchining qarori ahamiyatsiz bo'lib, hech qanday kuchga ega bo'lmay qoladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ba'zi holatlarda protsessning "insofsiz" ishtirokchilari tergovchiga namunalar bermaslikdan manfaatdor bo'lishlari mumkin. Chunki ulardan namunalar olinsa, ularning sodir etgan qilmishlari oshkor bo'lishidan qo'rqib, namuna berishdan bosh tortishadi(masalan, jinsiy jinoyatlar bo'yicha sperma namunalari bo'lmagan taqdirda). Bunday holatlarda qilmish kim tomonidan sodir etilganligini aniqlash muammosi tergov jarayonining uzoqqa cho'zilishiga sabab bo'lishi mumkin[7].

Namunalarni majburiy tarzda olish masalasini hal qilishda jinoyatni tergov qilish, uni sodir etgan shaxsni aniqlash va jazolash uchun muhim bo'lgan obyektlarni olishga qaratilgan ushbu tergov harakatining maqsadidan kelib chiqish kerak.

Namunalarni majburiy ravishda olish o'ta og'ir holatlarda, ishontirishning barcha imkoniyatlari tugaganda, namunalarni olish zarurligini tushuntirishda, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash vositasi sifatida qo'llanilishi kerak. Shu bilan bir qatorda, ish uchun zarur bo'lgan holatlar boshqa vositalar yordamida aniqlanishi mumkin emas.

Inson hayoti natijasida yuzga keladigan namunalarni majburiy ravishda olish, uning huquqlari, konstitutsiyaviy kafolatlarini himoya qilish uchun sud qarori bilan amalga oshirilishi kerak. Bunday tergov harakatlarini amalga oshirishda namunalar olingan shaxsning sog'lig'i uchun eng maqbul va xavfsiz usullarni ko'rsatadigan shifokorning ishtiroki tavsiya etiladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot rahbari tekshirish tugaganidan so'ng xulosani, tekshirish obyektlari va ish materiallarini sud ekspertizasini tayinlagan organga(shaxsga) yuborishi shart(O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni 14-moddasi).

Qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalar olish nafaqat Jinoyat-protsessual kodeksi va “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonunda, balki “Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunda ham o‘z ifodasini topgan. Ushbu qonunga muvofiq, **qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig‘ish** – tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida moddiy obyektlarni kelgusida qiyosiy tekshirish uchun olishdan iborat bo‘lgan tadbir hisoblanadi.

Ushbu moddani sharhlab, shuni aytish mumkin, qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalar yig‘ish – bu mavjud analoglarni tanib olish va aniqlash uchun turli xil obyektlarni olishga, shuningdek, jinoiy faoliyat belgilarini aniqlashga qaratilgan harakatlar hisoblanadi.


Yig‘iladigan namunalarga turli xil obyektlar: barmoq izlari, oyoq izlari, soch tolasi, ovoz, qon, dastxat, transport vositalari izlari, xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar, hujjatlar, ashyolar, kompyuter dasturlari va fayllari, giyohvandlik vositalari va hokazolar kiradi[8]. Ular daktiloskopik tekshiruvlar o‘tkazish, ashyolar qirindisini tekshirish uchun namuna sifatida olish, obyektning to‘liq yoki bir qismini olish, nusxalar olish, foto, audio va video qurilmalardan foydalangan holda namunalardan ko‘chirma olish, qorishmalar, ya‘ni gips, loy, plastilin, mum va boshqalar bilan nusxalar tayyorlash hamda boshqa usullar orqali olinishi mumkin. Yig‘ilayotgan namunalar qiyosiy taqqoslash uchun zarur bo‘lgan miqdorda olinadi va ular taqqoslash o‘tkazish uchun yaroqli obyekt bo‘lishi lozim. Ushbu jarayonda namunalar bus-butun saqlanishini ta‘minlash maqsadida, ular qonunchilikda belgilangan tartibda qadoqlanadi va tadbir ishtirokchilarining imzolari bilan muhrlanadi. Olingan namunalar bayonnoma, daktiloskopik karta(dakto karta, ya‘ni barmoq izlari maxsus vositalar yordamida olinib, uning nusxasi tegishli kartaga tushiriladi) yoki boshqa rasmiy hujjatlar(-bayonnoma) orqali rasmiylashtiriladi.

Tadbir subyektlarini, tezkor bo‘linma xodimlari ham-

da huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa mansabdor shaxslaridan tashqari, kasbiy malakaga ega mutaxassislar, ya‘ni kriminalistlar, tibbiyot xodimlari, dasturchilar va boshqalar tashkil qilishi mumkin. Zarur hollarda namunalar to‘plash uchun ham oshkora, ham nooshkora asosda ko‘maklashuvchi shaxslar jalb etilishlari mumkin. Biroq namunalar olish(tanlash)ning aniqligi, ishonchliligi va saqlanishini ta‘minlash tezkor xodim zimmasiga yuklatiladi[8].

O‘zbekiston Respublikasi “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 7-moddasiga muvofiq, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish jarayonida fuqarolarning sog‘lig‘iga tahdid soladigan, ularning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning normal ishlashiga to‘sqinlik qiladigan, shuningdek, shaxslarning hayotini buzadigan harakatlar qilish taqiqlanadi.

Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab fuqarolarni genom ma‘lumotlari bo‘yicha davlat ro‘yxatiga olish eng zamonaviy usullardan biri hisoblanadi. Shuning uchun 2020-yil 24-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi “Genom bo‘yicha davlat ro‘yxatiga olish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning **maqsadi** genom bo‘yicha davlat ro‘yxatiga olish sohasidagi munosabatlarni qonuniy tartibga solish, uning **vazifalari esa** biologik materialni olish, qayd etish, undan foydalanish, genom axborotiga ishlov berish, genom axborotining yagona ma‘lumotlar bazasini yaratish va inson shaxsini identifikatsiya qilishdan iborat ekanligi belgilab qo‘yilgan.



Qonunga muvofiq, genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish **majburiy va ixtiyoriy** tarzda amalga oshirilishi mumkin. "Genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risida"gi qonunning 17-moddasida **majburiy** ravishda quyidagilar ro'yxatga olinishi mumkinligi belgilab qo'yilgan:

- og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida jalb qilingan shaxslar; og'ir, o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar, o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish va o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz, buzuq harakatlar qilish bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etganlik uchun hukm qilingan shaxslar;

- biologik materiali tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov jarayonida olingan aniqlanmagan shaxslar;

- tanib olinmagan murdalar(tana qoldiqlari, qismlari).

Qonunga binoan, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni olib boruvchi organlar va sudlarning so'roviga asosan majburiy ro'yxatga olinayotgan shaxslarning genom axboroti O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligining davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi o'tkazish orqali olinadi hamda yakunda ma'lumotlar bazasiga Ichki ishlar vazirligi tomonidan kiritiladi[9].

Genom axborotidan quyidagi maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalanilishi belgilab qo'yilgan:

1. Jinoyatlarning oldini olish, fosh etish va ularni sodir etganlarning shaxsini aniqlash.
2. Bedarak yo'qolgan fuqarolarni qidirish.
3. Noma'lum murdalarning shaxsini aniqlash.
4. Shaxsning biologik qarindoshligini aniqlash.

Genom bo'yicha **ixtiyoriy tarzda** davlat ro'yxatiga olish O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasida yashayotgan yoki vaqtincha yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning yozma arizalari asosida, pullik asosda amalga oshiriladi. Genom bo'yicha ixtiyoriy ravishda davlat ro'yxatiga olish amalga oshirilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartib va miqdorlarda

haq undiriladi[9].

O'zbekiston Respublikasi "Genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risida"gi qonuni-ning mamlakatimizda tatbiq etilishi quyidagi natijalarga erishilishini ta'minlashi mumkin:

- **birinchidan** – genom axboroti yagona ma'lumotlar bazasidan foydalanish respublika hududida sodir etilgan jinoyatlarni biologik ashyoviy dalillar bo'yicha fosh etishda va sodir etilgan jinoiy qilmish uchun jazo muqarrarligini ta'minlashda ijobiy natijalarga olib keladi;

- **ikkinchidan** – genom axborotining yagona ma'lumotlar bazasi yaratilishi shaxsi aniqlanmagan murdalar(ularning qoldig'i, ya'ni skeleti)ni hamda bedarak yo'qolgan, ya'ni qidiruvdagi shaxslarni(ularning yaqin qarindoshlari) shaxsini identifikatsiya qilish imkoniyatini yaratishi mumkin;

- **uchinchidan** – huquqni muhofaza qiluvchi organlar isbotlov bazasini mustahkamlaydi, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni, shuningdek, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarni sodir etganlik uchun hukm qilingan shaxslarning genom axboroti ma'lumotlar bazasini yuritish orqali ular tomonidan ushbu turdagi jinoyatlar takroran sodir etilishining oldini oladi va ular uchun tegishli tartibda jazo tayinlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

- **to'rtinchidan** – genom bo'yicha ro'yxatga olishni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatida genom axborotiga ishlov berish, undan foydalanish, yo'q qilib tashlash, ma'lumotlari olingan fuqarolarning shaxsini oshkor qilmaslik va uni saqlash bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish uchun ularning qonun darajasidagi mas'uliyatini belgilashga olib keladi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlardan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlari jarayonida foydalanilishi mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Жбанков В.А. Получение образцов для сравнительного исследования: Учеб. пособие. – М., 1992. – С. 4.
2. Грамович Г.И. Вопросы применения научно-технических средств при расследовании преступлений: Дис.... канд. юрид. наук. – Минск, 1999. – С. 116.
3. Долженко Н.И. Образцы для сравнительного исследования и тактика их получения: Дис.... канд. юрид. наук. – М., 2000. – С. 19.
4. Лобан И.Е., Заславский Г.И., Попов В.Л. Судебно-медицинская деятельность в уголовном судопроизводстве: Правовые, орг. и метод. аспекты. – СПб, 2003. – С. 316.
5. Петрухин И.Л. Экспертиза как средство доказывания в советском уголовном процессе. – М., 1994. – С. 173.
6. Жбанков В.А. Образцы для сравнительного исследования в уголовном судопроизводстве. – М., 1999. – С. 20.
7. Долженко Н.И. Процессуальный порядок получения образцов для сравнительного исследования// Юрист – онлайн электронный юридический журнал. Режим доступа: <http://uww.shkolny.com/protssualnyi-poryadok-polucheniya-obraztsov-dlya-sravnitel'nogo-issledovaniya/>.
8. Karimov V. Tezkor-qidiruv faoliyati: darslik / V.Karimov – Toshkent, Lesson press, 2021. – B.257.
9. www.tergov.uz
10. <https://lex.uz/docs/-111460>
11. <https://lex.uz/docs/-1633102>
12. <https://lex.uz/docs/-2107763>
13. <https://www.lex.uz/docs/5120412>

ОСНОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СУДЕБНО- ТРАСОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

РОМАДАНОВА

*Таусия Александровна,
ведущий эксперт Лаборатории
судебно-баллистических и
трасологических исследований*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются современные возможности судебно-трасологических исследований различных видов следов с использованием новейшего оборудования и приборов. Показано значение интеграции знаний при решении задач в рамках судебно-трасологической экспертизы.

Ключевые слова: след, трасология, микротрассы, судебно-трасологическая экспертиза.

ANNOTATSIYA

Maqola trasologik ekspertiza, uning zamonaviy imkoniyatlari va istiqbollariga bag'ishlangan. Ta'kidlanishicha, trasologik ekspertiza keng imkoniyatlarga ega, biroq shunga qaramay, hozirgi vaqtda jinoyat ishini tez va to'g'ri tergov qilish maqsadida uni texnik jihatdan rivojlantirish zarurati mavjud.

Kalit so'zlar: trasologik ekspertiza, sud ekspertizasi, trasologik ekspertizaning zamonaviy imkoniyatlari, istiqbollari; mikrotrasologiya.

ANOTATION

The article considers contemporary possibilities of judicial-trace researches of various types of traces with the use of newest facilities and appliances; shows the importance of integration of knowledge in solution of tasks within the frames of trace expertise.

Key words: trace, trasology, microtraces, judicial-trace expertise.

Рост уровня преступности в Республике Узбекистан диктует необходимость поиска и внедрения в практическую деятельность по раскрытию и расследованию преступлений новейших средств и методов экспертного исследования следов и вещественных доказательств. Одним из наиболее разработанных направлений экспертного исследования являются криминалистические исследования следов-отображений, на которые приходится более половины из проводимых экспертами-трасологами судебных экспертиз. В узком смысле слова “след” - это только следы первой группы, т.е. следы, образованные в результате отображения внешнего строения одного объекта на другом. Именно они и механизм их образования (касания, нажим, захват и др.), а также средства и методы, используемые для обнаружения, фиксации, изъятия и исследования таких следов, составляют содержание понятия “трасология”. Под следами в трасологическом значении понимаются материальные отображения на каких-то предметах признаков внешнего строения материальных объектов, контактно взаимодействовавших с первыми.

Следует признать, что трасологическая экспертиза со времен первых монографий криминалистов-трасологов до исследований ученых-криминалистов последних лет совершила в своем развитии большой качественный скачок. Еще 30 лет назад экспертами в основном проводились экспертизы по так называемым традиционным трасологическим объектам - следам обуви, орудиям взлома, транспортным средствам, а также пломбам, замкам и закруткам и т.д. Крайне редко исследовались другие объекты криминалистического следоведения. С развитием теории судебной экспертизы, с разработкой научно-обоснованных методик исследования и с внедрением современных научно-технических средств и методов в практике трасологических экспертиз стало возможным исследование таких сложных объектов, как микротрассы, следы кожного покрова

человека и животных, следы сверления и полного распила и т.д.

Трасология, или наука о следах, играет ключевую роль в криминалистике, позволяя реконструировать события преступления по оставленным материальным отображениям. Основы трасологии заложены в изучении следов человека, орудий взлома, транспортных средств и других объектов, контактировавших с местом происшествия. Трасология основывается на принципе, что любой объект, проходя через определенное пространство, оставляет уникальные следы, которые могут быть использованы для его идентификации и предоставить ценную информацию о его движении, поведении и взаимодействии с окружающей средой. Эти следы могут быть физическими, как отпечатки обуви или следы животных и микроорганизмов, или химическими, как следы веществ на поверхности. Основные задачи трасологии включают идентификацию следов, определение их происхождения и анализ обстоятельств, при которых они были оставлены.

Важным аспектом является контекст оставления следов. Исследователи должны учитывать окружающую среду, в которой были найдены следы, поскольку она может влиять на их сохранность и видимость. Например, следы на песке могут быть более четкими, чем на траве, а погодные условия могут значительно изменить состояние следов.

Одним из ключевых аспектов трасологии является систематизация следов. Это включает в себя создание баз данных для хранения информации о различных типах следов, что позволяет исследователям быстро находить и сопоставлять данные. Для этого активно используются современные технологии и автоматизированные.

Современная трасология активно интегрирует цифровые технологии, 3D-сканирование следов обуви и шин, автоматизированные системы сравнения и идентификации, а также анализ ДНК из следов биологического происхождения. Это открывает новые горизонты в раскрытии преступлений.

В трасологии используются различные методы и инструменты, которые помогают исследовать и анализировать следы. В кри-

миналистике основными методами являются сравнительный анализ, фотодокументация, химический анализ, лабораторные исследования.

1. Сравнительный анализ: этот метод включает в себя сравнение следов с известными образцами в базе данных. Например, если найден след обуви, его можно сопоставить с реестром моделей обуви, чтобы определить возможного подозреваемого.

2. Фотодокументация: для точной фиксации используется фотосъемка. Современные технологии, такие как 3D-фотографирование, позволяют создавать объемные модели следов, что значительно увеличивает точность анализа.

3. Химический анализ: в случае, если следы содержат химические вещества, может применяться спектроскопия или хроматография. Это особенно важно при анализе следов крови и других биологических материалов.

4. Лабораторные исследования: следы могут быть доставлены в лаборатории для более глубокого анализа. Например, анализ ДНК из биологических следов позволяет установить личность человека, оставившего след.

Перспективы развития трасологии связаны с расширением спектра исследуемых объектов и углублением методов анализа, они обширны и многообещающи. С каждым годом

появляются новые технологии и методы, которые могут революционизировать эту область.

Нанотехнологии, искусственный интеллект и машинное обучение способствуют созданию более точных и надежных систем идентификации, что делает трасологию незаменимым инструментом в борьбе с преступностью.

Искусственный интеллект и машинное обучение могут быть использованы для автоматизации процессов распознавания и анализа следов. Например, системы, обученные на большом количестве изображений следов, могут автоматически классифицировать их, что значительно ускорит процесс расследования.

Интеграция данных: сбор и анализ данных из различных источников может привести к созданию единой базы данных, которая будет включать информацию о следах из разных областей - криминалистики, экологии, археологии и др. Это позволит отслеживать закономерности и находить связи между различными типами следов.

Междисциплинарные исследования: трасология может существенно выиграть от сотрудничества с другими научными дисциплинами. Например, сотрудничество с экологами может помочь лучше понять поведение животных и их миграцию, что, в свою очередь, может быть полезно в криминалистике при анализе следов.



Устойчивость к изменениям окружающей среды: с увеличением изменений климата и экосистем важно разрабатывать методы, которые позволят анализировать следы, оставленные в условиях, когда их сохранность под угрозой. Это может включать изучение новых материалов и технологий для фиксации следов в различных условиях.

Помимо традиционных методов, трасология все чаще обращается к анализу микроследов. Микроволокна, частицы краски и стекла на одежде или теле жертвы и подозреваемого становятся важными уликами, позволяющими установить связь между ними и местом преступления. Спектральный анализ и микроскопия позволяют определить состав и происхождение этих микрочастиц, предоставляя ценную информацию для следствия.

Развитие экспертных систем, основанных на искусственном интеллекте, позволяет автоматизировать процесс сравнения следов и выявлять закономерности, незаметные для человеческого глаза. Такие системы способны обрабатывать огромные объемы данных, значительно сокращая время, необходимое для

идентификации.

Однако, несмотря на технологический прогресс, роль эксперта-трасолога остается незаменимой. Именно он оценивает значимость следов, определяет их происхождение и формулирует выводы, имеющие юридическую силу.

Таким образом, трасология, сочетая в себе классические методы и современные технологии, продолжает совершенствоваться, оставаясь надежным инструментом в установлении истины и обеспечении правосудия. Трасология представляет собой важную и многогранную науку, способствующую пониманию взаимодействия организмов с окружающей средой. Она не только помогает раскрывать преступления, но и изучает поведение животных и восстанавливает исторические события. С развитием технологий и методов трасология продолжит эволюционировать, открывая новые горизонты для исследования и применения в различных сферах. Перспективы ее развития являются значительными, и эта область будет оставаться актуальной и важной для современного общества.

ЛИТЕРАТУРА

1. Грановский Г.Л. Основы трасологии (общая часть). – Москва, 1965.
2. Аверьянова Т.В. Судебная экспертиза. Курс общей теории. – Москва, 2006.
3. Теория и практика судебной экспертизы в гражданском и арбитражном процессе: Науч.-практ. пособие / Под ред. Е.Р.Россинской. – Москва, 2006.
4. Майлис Н.П. Руководство по трасологической экспертизе. – Москва, 2007.
5. Зинин А.М., Майлис Н.П. Судебная экспертиза: Учебник. – Москва, 2002. – С.61.
6. Нестеров Н.И., Степанов Г.Н., Фролов Ю.П., Шапочкин В.И., Ярмак К.В. Сборник примерных заключений по трасологической экспертизе: Учеб-метод. пособие. – Волгоград, 2003. – С.44-46.

SUDYALIK MAQOMI SUDYALAR MUSTAQILLIGINING KAFOLATI SIFATIDA

ATAJANOV

*Azizbek Abdimalikovich,
yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sudyaning huquqiy maqomi sud mustaqilligining kafolati sifatida tahlil qilinadi. Sudya maqomi uning vakolatlari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, sud hokimiyati tizimidagi o'rnini belgilaydi. Muallif xalqaro va milliy me'yoriy hujjatlar asosida sudya maqomi bo'yicha turli yondashuvlarni ko'rib chiqadi. Sud hokimiyatining mustaqilligi, sudyalarning daxlsizligi va ularning huquqiy himoyasi borasidagi tamoyillar chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, sudyalarning javobgarlik masalasi va sud hokimiyati mustaqilligi bilan bog'liq muammolar yoritilgan. Xorijiy mamlakatlarning tajribasi tahlil qilinib, O'zbekiston qonunchiligidagi muayyan kamchiliklarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: sudya maqomi, mustaqillik, daxlsizlik, huquqiy maqom, sud hokimiyati, sudya javobgarligi, konstitutsiyaviy huquq, xalqaro hujjatlar, sud islohotlari, qonunchilik.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются правовой статус судьи как гаранта независимости судебной власти, место судьи в системе государственной власти, его полномочия, права и обязанности. Автор рассматривает различные подходы к понятию статуса судьи, основываясь на международных и национальных правовых актах. Особое внимание уделено принципам независимости судебной власти, неприкосновенности судей и их правовой защиты. Рассматриваются вопросы ответственности судей и проблемы, связанные с обеспечением независимости судебной власти. Анализируется зарубежный опыт и выявляются определенные пробелы в законодательстве Узбекистана.

Ключевые слова: статус судьи, независимость, неприкосновенность, правовой статус, судебная власть, ответственность судьи, конституционное право, международные акты, судебные реформы, законодательство.

ANNOTATION

This article examines the legal status of judges as a guarantee of judicial independence. It defines the position of judges within the state power system, their powers, rights, and responsibilities. The author analyzes various approaches to the concept of judicial status based on international and national legal frameworks. Particular attention is paid to the principles of judicial independence, the inviolability of judges, and their legal protection. The article also explores issues of judicial accountability and challenges related to ensuring judicial independence. The study includes an analysis of foreign legal practices and highlights certain gaps in Uzbekistan's legislation.

Keywords: judicial status, independence, inviolability, legal status, judiciary, judicial accountability, constitutional law, international instruments, judicial reforms, legislation.

Har qanday davlatda huquqiy munosabatlar subyektining huquqiy maqomi, avvalo, huquq normalari bilan belgilanadi. O'zbekistonda sudyaning huquqiy maqomi asoslari xalqaro va milliy huquq normalarida bayon qilingan. Sudyaning ommaviy shaxs ekani xalqaro hujjatlardan Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasining shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi to'g'risidagi № 1165 (1998) rezolyutsiyasida ta'kidlangan bo'lib, u yerda ommaviy shaxs sifatida "davlat lavozimini egallagan va (yoki) davlat resurslaridan foydalanadigan, shuningdek jamiyat hayotida muayyan rol o'ynaydigan siyosat, iqtisodiyot, san'at, ijtimoiy soha, sport yoki boshqa har qanday sohadagi shaxslar"¹ tushuniladi.

Sudyalar maqomi to'g'risidagi Yevropa xartiyasida "Sudya maqomi ularning malakasi, mustaqilligi va xolisligiga bo'lgan ishonchni susaytiradigan har qanday normativ qoidalar va tartiblarni qabul qilish yoki qo'llash imkoniyatini istisno qilishi" alohida ta'kidlangan. Mazkur hujjatning 1.5-bandi talabiga muvofiq, "sudyalar o'z vazifalarini bajarish chog'ida ularga murojaat qiluvchi shaxslarga nisbatan ehtirom bilan munosabatda bo'lishlari, har bir holat bo'yicha qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan yuqori darajadagi malaka darajasini saqlashga e'tibor qaratishlari va sud jarayonida ularga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni sir saqlashlari lozim, chunki sudyaning qarorlari shaxsiy huquqlarni kafolatlashga ta'sir ko'rsatadi"².

O'zbekiston Respublikasida sudyalar maqomining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonun, Prezident farmonlari va

¹ Резолюция № 1165 (1998) Парламентской Ассамблеи Совета Европы «О праве на неприкосновенность личной жизни». - http://cyberpeace.org.ua/files/iii_4.pdf.

² Европейская Хартия о статусе судей и Пояснительный Меморандум (Страсбург, 8 – 10 июля 1998) <https://docs.cntd.ru/document/901927869>

qarorlari, hukumat qarorlari va boshqa qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar orqali aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bu borada quyidagi huquqiy normalarni o'z ichiga oladi:

- Sudyalar mustaqildirlar, faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishga doir faoliyatiga har qanday tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi.

- Davlat sudya va uning oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlaydi.

- Sudyani muayyan ishning muhokamasidan chetlashtirishga, uning vakolatlarini bekor qilishga yoki to'xtatib turishga, boshqa lavozimga o'tkazishga faqat qonunda belgilangan tartibda va asoslarga ko'ra yo'l qo'yiladi. Sudning qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi sudyani lavozimidan ozod etish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

Ushbu konstitutsiyaviy normalarning har biri "Sudlar to'g'risida"gi qonunda batafsil tartibga solingan. Ayrim toifadagi sudyalarning huquqiy holatiga xos xususiyatlar qonunlar bilan ham belgilanadi.

"Sudlar to'g'risida"gi qonunning 8-bobi Sudyalarning maqomi, ularning huquq va majburiyatlarini tartibga solsada, juda qisqa to'xtalib o'tilgan. Umuman olganda, "Sudlar to'g'risida"gi qonunda sudyaning maqomiga to'g'ridan to'g'ri ta'rif yoki tushuncha berilmagan. Maqom so'zi mazkur qonunda to'rt marotaba 3-, 58-, va 63-moddalarda uchraydi. Qonun chiqaruvchi ta'riflanayotgan qonunning 58-moddasi ikkinchi qismida O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalar bir xil maqomga ega³ deb o'tgan xolos. Sudyaning maqomiga nimalar kiradi, qanday belgilanadi, sudyaning maqomi nimadan iborat? Bu borada ma'lumot yo'q.

Xorijiy davlatlar qonunchiligida ham sudya va uning huquqiy maqomi masalasiga to'xtalib o'tiladi. Masalan, Moldovaning "Sudyalar maqomi to'g'risida"gi qonunida "Sudya – konstitutsiyaviy tartibda odil sudlovni amalga oshirish huquqi berilgan va qonun asosida o'z vazifalarini

bajaruvchi shaxs", deb ta'riflangan⁴. Qirg'izistonning "Sudyalar maqomi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunida⁵ hamda Rossiyaning "Rossiya Federatsiyasi sudyalarining maqomi to'g'risida"gi qonunida ham sudya maqomiga shu tarzda ta'rif berilgan⁶.

Yuridik adabiyotlarda esa sudyaning huquqiy maqomi birmuncha boshqacharoq ta'riflanadi. Masalan, M.Abilkairov "Qozog'iston Respublikasi sud tizimi va sudyalar maqomi to'g'risida"gi qonunining 29-moddasida nazarda tutilgan talablariga javob beruvchi, doimiy asosdagi vakolatlar bilan ta'minlangan, qonunda belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan yoki saylanadigan davlatning fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning hamda Qozog'iston Respublikasining xalqaro shartnomalarining ijrosini ta'minlashga davat etilgan, mamlakatning butun hududida majburiy tusga ega qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan jinoyat, fuqarolik va boshqa sohadagi odil sudlovni amalga oshirish borasidagi hokimiyat vakolatini amalga oshiruvchi mustaqil mansabdor shaxsi" sifatida ta'riflangan⁷.

Sudya maqomi tushunchasi – davlat tizimida sudyaning huquqiy o'rmini belgilaydigan kompleks va ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. Yuridik fanlarda sudya maqomi, sudyaning mustaqilligi va professional qobiliyatini ta'minlovchi huquqlar, majburiyatlar va cheklovlar yig'indisi sifatida tahlil qilinadi. Sudyaning mustaqilligi bu – sud qarorlarining sifati va adolatlilikini, shuningdek, jamiyatning sud tizimiga bo'lgan ishonchini ta'minlovchi muhim xususiyat.

Ko'pgina mamlakatlarning milliy qonunchiligi, shu jumladan O'zbekistonda sudya maqomi-

⁴ Law on the Status of Judge, https://www.legislationline.org/download/id/8336/file/Moldova_law_status_of_judges_1995_am2018_en.pdf

⁵ Кыргыз Республикасынын Жогорку сотунун Конституциялык палатасы жөнүндө, КР 2012-жылдын 26-майындагы № 66, 2013-жылдын 26-июнундагы № 105, 2017-жылдын 20-июлундагы № 136 конституциялык Мыйзамдарынын редакцияларына ылайык, <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ky-kq/203281?cl=ky-kq>.

⁶ Закон Российской Федерации "О статусе судей в Российской Федерации". - <http://pravo.gov.ru>.

⁷ Абилкаиров А.М. Закон – немой судья, судья – говорящий закон // Правовая реформа в Казахстане. - 2003. - № 3 – С. 46-47.

³ Sudlar to'g'risida qonun O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 28.07.2021 yildagi O'RQ-703-son <https://lex.uz/docs/5534923#5538048>

ni xalqaro huquqiy hujjatlarga, xususan, BMT tomonidan qabul qilingan sud organlarining mustaqilligiga doir asosiy prinsiplarga tayangan holda tartibga soladi. Ushbu prinsiplar sudyalarni tashqi ta'sirlardan himoya qilishga qaratilgan bo'lib, shunga muvofiq, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan yuridik mexanizmlarni va kafolatlarni o'z ichiga oladi.

Sudyaning huquqiy maqomini shakllantirishda qonunchilikdagi an'anaviy elementlar (huquq va majburiyatlar) bilan birga qo'shimcha elementlar (kafolatlar, mas'uliyat, prinsiplar) ham alohida ahamiyatga ega. Ayni paytda kafolatlar – sudyaning islohotlardan muhofaza qilinishi, moliyaviy mustaqillikka ega bo'lishi va noqonuniy aralashishlardan himoyalaniishi uchun muhim rol o'ynaydi.

Maqom so'zi lotinchada "status" so'zidan kelib chiqib, lotincha tarjimasi bo'yicha kimningdir yoki nimaningdir ahvoli, holatini anglatadi⁸. Yuridik lug'atda "status" huquqiy subyektning – fuqaro yoki yuridik shaxsning huquqiy holati deb qaraladi, bu huquqiy tashkilot shakli, nizom, ro'yxatga olish guvohnomasi, huquqlar va majburiyatlar, mas'uliyat, qonunchilik va normativ-hujjatlardan kelib chiquvchi vakolatlar bilan belgilab beriladi⁹.

Sudya maqomi ilmiy doiralar, huquqshunolar va yuristlar o'rtasida hamisha dolzarb va bahsli mavzu bo'lib kelgan. "Sudya maqomi" tushunchasini aniqlashda ikki asosiy yondashuv mavjud. Birinchi yondashuv tarafdorlari sudya maqomiga uning huquqlari va lavozimiy majburiyatlarini kiritishadi. Masalan, V.V.Avanesyan tahriridagi "Katta yuridik ensiklopediya"da sudya huquqiy maqomi "Qonunlarda mustahkamlangan hamda sud hokimiyati vakillari sifatida sudyalarning huquqiy maqomini belgilaydigan normalar majmuasi" sifatida ta'riflanadi¹⁰. Professor L.V.Tumanovanning fikricha, sudya maqomi "avvalo, sudya lavozimiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar va ularni tanlash tartibidir"¹¹. Professor K.F.Gusenko esa sudya maqomi va uning huquqiy holatiga

huquq va majburiyatlarning majmuasi sifatida qaragan¹².

Yuqorida keltirilgan fikrlarga, xususan, L.V.Tumanovanning fikriga qo'shilmagan bo'lar-dik, chunki sudya lavozimiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar va ularni tanlash tartibi sudyaning huquqiy maqomi elementlari tarkibiga kiritilishi maqsadga muvofiq emas. Ushbu bosqichlarda mazkur shaxslar sudya hisoblanmaydi, ular sudya lavozimiga nomzodlar xolos. Shu sababli ular sudya huquqiy maqomining ajralmas qismi hisoblangan, faqatgina sudyalargagina tegishli bo'lgan huquq va majburiyatlarga ega bo'lmaydi.

Ikkinchi ilmiy yondashuvga ko'ra, sudya maqomi faqat huquq va lavozim majburiyatlarni emas, balki boshqa elementlarni ham o'z ichiga oladi. M.I.Kleandrovning fikricha, sudya maqomining komponentlari huquqiy, axloqiy, etik, psixologik, fiziologik, ijtimoiy va boshqa omillardan iborat, ularning ba'zilari huquqiy shaklda emas¹³. Huquqshunos-professor G.T.Yermoshin sudya maqomini o'rganishda "modus" yondashuvni rivojlantirib, "sudya maqomi – bu sud hokimiyati vakolatiga ega shaxsning maqomi bo'lib, to'rtta o'zaro bog'liq modusning birligini o'z ichiga oladi:

- birinchisi, sud hokimiyati vakili sifatidagi modus;
- ikkinchisi, davlat lavozimidagi shaxs sifatidagi modus;
- uchinchisi, sudyalarning jamoasining a'zosi sifatidagi modus;
- to'rtinchisi, konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirishda maxsus cheklovlarga ega shaxs sifatidagi modus"ni ajratib ko'rsatadi¹⁴. V.V.Vitruk sudya maqomi tushunchasiga "sudyalikka saylangan yoki tayinlangan shaxsning huquqlari, majburiyatlari, cheklovlari ("negativ majburiyatlar") va sudyaning jamiyat va davlat bilan munosabatlarini ifoda etuvchi prinsiplarni (o'zgarmaslik, mustaqillik, daxlsizlik, teng

⁸ <http://sur1.li/bpvdwh>

⁹ Большой юридический энциклопедический словарь. – М., 2006. – С. 601.

¹⁰ Аванесян В.В. Большая юридическая энциклопедия. – М., 2005. – 567 с.

¹¹ Туманова Л.В. Статус судьи в Российской Федерации. Тверь: ТБГУ, 2017. – 160 с.

¹² Правоохранительные органы: учебник для юридических вузов и факультетов / под ред. К.Ф.Гуценко. – М.: «Зерцало», 2007. – 439 с.

¹³ Клеандров М.И. Статус судьи: правовой и смежные компоненты / под ред. М.М.Славина. – М.: Норма, 2008.

¹⁴ Ермошин Г.Т. Статус судьи в Российской Федерации: дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 2016. – 525 с.

huquqlar va boshqalar) kiritadi”¹⁵. K.A.Orlova sudya maqomini “huquq va majburiyatlardan tashkil topgan asosiy elementlar va kafolatlar, javobgarlik, prinsiplar va h.k., tashqi muhit (jamiyat, davlat va huquq) ta'sirida shakllanadigan va faoliyat ko'rsatadigan o'zaro bog'liq elementlar” sifatida tasvirlaydi¹⁶.

Shu o'rinda O.N. Babayevaning sudyalar maqomi bo'yicha fikrlari juda qiziq. Uning fikricha sudyaning maqomi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- sudyaning huquq layoqati va muomala layoqati;
- qonunchilikda unga berilgan huquq va majburiyatlari;
- ushbu huquq va majburiyatlarning kafolatlari;
- o'ziga yuklatilgan vazifalarni lozim darajada bajarilishi uchun javobgarligi¹⁷.

T.B.Safarov o'z ilmiy izlanishlarida sudya huquqiy maqomini sudyaning yuridik javobgarligini o'z ichiga oluvchi quyidagi ko'rsatilgan bir nechta ko'rinishdagi huquqiy munosabatlar subyekti bo'lishini aytib o'tadi:

1) Jinoiy huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida unga Jinoyat kodeksi (JK) bilan taqiqlangan qilmishni sodir etmaslik (masalan, fuqarolarning teng huquqliligini buzish, pora olish, aybsiz kishini javobgarlikka tortish).

2) Chiqarilgan sud qarori qonunga zid, asossiz va adolatsiz bo'lsa qonunda belgilangan shaxslar Jinoyat-protsessual kodeksi(JPK)ga asosan mazkur qarorlar ustidan shikoyat berishlari yoki protest bildirishlari mumkin¹⁸. Bunday hollarda sudya jinoyat-protsessual javobgarlik subyekti hisoblanadi.

3) Tegishli sudyalar malaka hay'atlarining xulosasi olingan hollarda sudya ma'muriy-huquqbuzarlikka oid javobgarlikka tortilishi.

¹⁵ Витрук Н. В. Конституционное правосудие. Судебно-конституционное право и процесс: учеб. пособие: - М.: Инфра-М, 2010. - 591 с.

¹⁶ Орлова К.А. Теоретико-правовые аспекты статуса судьи как субъекта права: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Калининград, 2017. - 23 с.

¹⁷ Бабаева О.Н. Проблемные вопросы статуса мировых судей Российской Федерации // Вестник Воронеж. гос. ун-та. Серия: право. - 2007. - № 1(2). – С. 134.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // – Toshkent: Adolat, 2021.

4) Odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniylikni buzganligi, sud ishini tashkil etishda beparvoligi yoki intizomsizligi oqibatida yo'l qo'ygan kamchiliklari, sudyalik sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan hamda sudning obro'siga putur yetkazadigan qilmish sodir etganligi, sudyalar odob-axloqi qoidalarini buzganligi uchun intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin¹⁹.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra sudya maqomini eng muhim muammolaridan biri, sudyalar mustaqilligi va ularning mas'uliyati o'rtasidagi muvozanatni topish hisoblanadi, chunki mustaqillik mutlaq kategoriya emas. Sudyalar mustaqilligi, professor V.D.Zorkin o'z izlanishlarida ta'kidlaganidek, “o'z-o'zidan qiymatga ega emas, balki ishni beg'araz sud tomonidan adolatli sud jarayonida ko'rib chiqilishini ta'minlash vositasidir”²⁰. Y.B.Mizulina ta'kidlaganidek, “adolat faqat mustaqil sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin, lekin bu holda sud o'z faoliyatini adolatli tuzilgan qonun doirasida amalga oshirishi shart. Aks holda, sud mustaqilligini va uning qonunga bo'ysunishini talab qilish nafaqat ma'nosiz, balki xavfli hamdir”²¹.

T.B.Safarov o'z fikrini davom ettirar ekan, sudyalarning huquqiy maqomi lavozimga kirishish, qasamyod qilish, odil sudlovni amalga oshirish uchun qonun bilan berilgan vakolatlari, sudlov faoliyatining kafolatlari, sudyalarning javobgarligi elementlar majmuyidan iborat deb baholaydi²².

D.U.Aripovning fikricha, sudyalik maqomi ular mustaqilligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lmish lavozimga tanlash, tayinlash va ozod qilish bilan belgilanadi, zero ilk bosqichda sudyalik lavozimiga tayinlashning xolis, ochiq

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining “Sudlar to'g'risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/5534923#5538048>

²⁰ Зорькин В.Д. Выступление на VII Всероссийском съезде судей // Рос. юстиция, 2009. - № 1. – С.13.

²¹ Мизулина Е.Б. Независимость суда еще не есть гарантия правосудия // Государство и право, 1992. - № 4. – С. 52-61.

²² Safarov T.B. Odil sudlovni amalga oshirish jarayonida sudyalarning yuridik javobgarligi: zamonaviy holat va rivojlanish yo'nalishlari // Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. – Toshkent, 2023.

va shaffof tartibini belgilash hamda uni mustaqil va xolis sudyalarning hamjamiyati organi tomonidan amalga oshirish chinakam mustaqil sudyani shakllantirishga xizmat qiladi”²³.

Bizning fikrimizcha, **sudyalik maqomi** – bu sudyaning davlat hokimiyati tizimidagi huquqiy o'rnini, vakolatlarini, huquq va majburiyatlari hamda jamiyat va davlat oldidagi javobgarligini belgilaydigan huquqiy maqom. Bu maqom sudyaning mustaqilligini, xolisligini va odil sudlovni ta'minlashdagi mas'uliyatini mustahkamlaydi, shuningdek, uning faoliyatini tashqi bosimlardan himoya qiladi.

Sudya maqomi nafaqat uning huquqlari va immunitetini, balki javobgarligini ham o'z ichiga oladi. Sudyalar davlat va jamiyat oldida yuqori darajadagi javobgarlikka ega bo'lib, quyidagilarni qamrab oladi:

1. Qarorlarning qonuniyligi uchun javobgarlik: Sudyalar qabul qilgan har bir qaror qonuniylikka asoslanishi kerak. Sudyalar qonunlarni noto'g'ri talqin qilish yoki buzish holatlarida muayyan javobgarlikka tortilishi mumkin.

2. Etika va axloq normalariga rioya qilish majburiyati: Sudyalar o'z faoliyatlarida axloq va kasbiy etika qoidalariga amal qilishlari lozim. Kasbiy xulq-atvorga doir har qanday buzilish sudyaning ishdan chetlatilishi yoki hatto yuridik javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lishi mumkin.

3. Hokimiyatdan suiiste'mol qilishga qarshi javobgarlik: Sudyalar o'z vazifalarini bajarishda berilgan hokimiyat va vakolatlarini suiiste'mol qilishdan himoyalaniishi shart. Bunday holatlarda ular qonuniy choralarga tortilishi mumkin.

4. Odil sudlovni ta'minlash bo'yicha javobgarlik: Sudyalar o'z faoliyati orqali jamiyatga odil sudlovni ta'minlashga javobgardir. Bu esa adolatli, xolis, qonuniy qarorlar qabul qilishdagi mas'uliyatni yuklaydi.

5. Huquqbuzarlik holatlarida javobgarlik: Sudyalar, agar sud jarayonida qasddan yoki jiddiy beparvolik bilan qonunbuzarlikka yo'l qo'ysa, tegishli yuridik javobgarlikka tortiladi. Bu sudya maqomining jiddiy talab va cheklovlar bilan mustahkamlanganligini ko'rsatadi.

6. Respublikamizda sudyalar maqomi masalasini yanada chuqurroq o'rganish uchun

²³ Aripov D.U. Sud hokimiyati mustaqilligini tashkiliy-huquqiy takomillashtirishning zamonaviy tendentsiyalari // Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi Avtoreferati. – Toshkent, 2022.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Sudlar to'g'risida”gi qonunga murojaat qilish lozim bo'ladi. Qonunga asosan, sudya maqomi sudyalarning huquqiy holatini, shuningdek, huquq va majburiyatlarni o'z ichiga oladi.

7. Qonunga ko'ra, sudya maqomining quyidagi prinsiplari ajratib ko'rsatiladi: O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalar bir xil maqomga ega ekanligi, mustaqilligi va sudya shaxsining daxlsizligi. Sudyalar bir xil maqomga ega ekanligi barcha sudyalar teng huquqqa ega ekanini anglatadi. Ushbu prinsipga muvofiq, barcha sudyalar bir xil majburiyatlar va cheklovlariga ega bo'lib, ularning huquqlari teng asosda himoya qilinadi.

Sudya maqomining huquqiy asosi quyidagi uch muhim prinsiplarga tayangan: **mustaqillik, o'zgartirilmasslik va daxlsizlik**. Aynan shu prinsiplar odil sudlovni samarali ta'minlashga ta'sir ko'rsatadi. Mustaqillik prinsipiga ko'ra, sudya hech kimga qaram bo'lmay, o'z faoliyatini amalga oshiradi va sud jarayonidagi barcha ishtirokchilarga xolis munosabatda bo'ladi. O'zgartirilmasslik prinsipi sudyaning lavozimidagi o'zgarishlar faqat uning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkinligini bildiradi. Daxlsizlik prinsipi esa sudya shaxsining, uning turarjoyi, mulki va yozishmalar sirining daxlsizligini o'z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, sudyalar maqomi quyidagi muhim jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Huquqiy immunitet. Sudyalar o'z vazifalarini ado etish chog'ida huquqiy immunitetga ega bo'ladi, bu esa ularni tashqi ta'sirlardan himoya qiladi. Bu immunitet sudyalarning qarorlari uchun javobgarlikka tortilmasligini va mustaqil faoliyat yuritishini kafolatlaydi.

2. Davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyat. Sudyalar nafaqat davlat, balki jamiyat oldida ham mas'ul bo'lib, ularning qarorlari davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa sudyalar faoliyatida adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash uchun katta mas'uliyat yuklaydi.

3. Kasbiy malakalar va standartlar. Sudyaning maqomi ularning kasbiy va axloqiy standartlarga amal qilishlarini talab qiladi. Bu standartlar nafaqat mahalliy qonunlarda, balki xalqaro yuridik me'yorlarda ham ko'rsatilgan bo'lib, ular sudyaning yuksak odob-axloqi va odil sudlovni ta'minlashga sodiqligini talab etadi.

4. Tashkiliy va moliyaviy mustaqillik. Sudyalar sud tizimining moliyaviy va tashkiliy mustaqilligini ta'minlovchi sharoitda faoliyat yuritishi kerak. Bu nafaqat sudyalarning qarorlari erkinligi, balki ularning odil sudlov jarayonidagi ishtirokining xolisligi uchun ham muhimdir.

5. Ta'lim va malaka oshirish. Sudya maqomi ularning doimiy ravishda huquqiy bilimlarini va kasbiy malakasini oshirishni talab etadi. Bu esa sud tizimining sifatini va adolat darajasini oshirishda muhim omildir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, sudyaning huquqiy maqomi – bu murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uni har tomonlama o'rganishni talab etadi. Bizningcha, sudya maqomini faqat lavozim majburiyatlari va vakolatlari bilan chegaralash yetarli emas. Sudya halollik, adolatlilik, insoniylik, vijdonlilik bilan bog'liq ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, tamagirlikdan xoli yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Sudya maqomi unga ish joyida bo'lgandek, ishdan tashqarida ham yuksak axloqiy poklik va mukammal xulq namunasini ko'rsatishni talab etadi, zero sudya sud hokimiyati obro'sining tashuvchisidir.

Sudya maqomiga yuqoridagi ma'lumotlarni xulosa qilib, uning tushunchasini aniqlab, asosiy elementlarini ajratib ko'rsatsak. **Sudya maqomi** – bu sudyaning jamiyatdagi o'rnini, sud hokimiyatini o'zida mujassam etgan mansabdor shaxs sifatidagi maqomini belgilaydigan huquqlari, majburiyatlari va vakolatlaridir. Sudya maqomining asosiy elementlariga sudyaning huquqlari, vazifalari, maqomning asosiy prinsiplari, kafolatlar va javobgarlik hamda sudyaning axloqiy-psixologik sifatlariga qo'yiladigan talablar kiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sudya maqomi – bu shaxsga sudyalik vakolatlari berilgan shaxs maqomi. Bu shaxs sudya sifatida tayinlangan vaqtdan boshlab uning huquqlari, majburiyatlari, cheklovlari, kafolatlari, ijtimoiy-huquqiy himoya choralari konstitutsiyaviy va boshqa normativ-huquqiy me'yorlarda belgilanib, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– sud vakolatlarini bajarayotgan shaxs sifatida, ya'ni odil sudlovni amalga oshiruvchi shaxsning asosiy vazifasi – fuqarolarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini, shu jumladan davlat va uning organlari bilan bo'lgan nizolarda himoya qilish. Bu sudya maqomining protsessual qismi

bo'lib, sudya vakolatlariga ega shaxsning huquq va majburiyatlarini protsessual qonunchilik belgilaydi;

– davlat lavozimida ishlab turgan shaxs sifatida hamda sudyalar hamjamiyati a'zosi sifatida, bu uning davlat xizmati tizimidagi o'ziga xos mavqeyini belgilaydi. Davlat lavozimini egallab turgan shaxs sifatida u davlat hokimiyati tizimida, shu bilan birga, sud hokimiyati vakolatlariga ega shaxs sifatida undan ustun turadi, chunki faqatgina sudyalar hamjamiyati organlari fuqaroni sud hokimiyatidagi lavozimga qabul qilish imkoniyatini belgilaydi, sudyaning kasbiy faoliyatiga huquqiy baho beradi va uni sudyalar korpusidagi mavqeyini saqlab qolish shartlarini bajarilishini nazorat qiladi, unga rag'batlantirish va jazolash choralari, shu jumladan sudyalik vakolatlaridan mahrum qilishgacha qo'llaydi;

– sudyalar alohida huquqiy maqomga ega shaxslar sifatida fuqarolik huquqlari va faoliyatiga oid huquqlardan qonunga muvofiq cheklanganlar. Bu, aslida, ularning sud vakolatlarini adolatni amalga oshirishda mustaqilligini ta'minlash kafolatidir, davlatning boshqa fuqarolar va huquq subyektlari bilan munosabatlarida unga berishga vakolatli bo'lgan hokimiyat vakolatlarini ta'minlaydi.

Sudya maqomi shaxsiy imtiyoz bo'lmay, har bir shaxsning huquqlari va erkinliklarini adolatli sud orqali haqiqiy himoya qilish vositasidir, u shaxsning umumiy konstitutsiyaviy maqomini kafolatlaydi va shu maqomda konstitutsiyaviy-huquqiy himoyaga ega bo'ladi.

Sudya maqomining ta'rifi yondashganda, fuqarolik munosabatlarining barcha real jihatlarini, ya'ni sudya bo'lish istagining shakllanishi bosqichida, sudyalik vakolatlarini amalga oshirish bosqichida, uning kasbiy faoliyati, sudyalar hamjamiyatidagi a'zoligi va sudyalik faoliyati tugaganidan keyingi hayot faoliyatini inobatga olish zarur.

Fuqaroning sudyalik vakolatlariga ega bo'lishi uning o'z kasbiy faoliyati jarayonida o'z harakat yoki harakatsizligi bilan shaxsiy huquqlar va shaxsiy subyektiv majburiyatlarni yaratish imkonini bermaydi. Shu bilan birga, fuqaroni sudyalik vakolatlari bilan ta'minlash, uning sud hokimiyati vakolatlariga ega huquqiy maqomga o'tishi uning shaxsiy huquq subyektligini nafaqat ko'p jihatdan, balki to'liq belgilaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/5534923#5538048>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // - Toshkent: Adolat, 2021.
3. Резолюция № 1165 (1998) Парламентской Ассамблеи Совета Европы «О праве на неприкосновенность личной жизни». – Режим доступа: http://cyberpeace.org.ua/files/iii_4.pdf.
4. Европейская Хартия о статусе судей и Пояснительный Меморандум (Страсбург, 8-10 июля 1998г.). – Режим доступа: <https://docs.cntd.ru/document/901927869>
5. Кыргыз Республикасынын Жогорку сотунун Конституциялык палатасы жөнүндө, КР 2012-жылдын 26-майындагы № 66, 2013-жылдын 26-июнундагы № 105, 2017-жылдын 20-июлундагы № 136 конституциялык Мыйзамдарынын редакцияларына ылайык,
4. Закон Российской Федерации "О статусе судей в Российской Федерации". – Режим доступа: <http://pravo.gov.ru>.
5. Law on the Status of Judge, https://www.legislationonline.org/download/id/8336/file/Moldova_law_status_of_judges_1995_am2018_en.pdf
6. Абилкаиров А.М. Закон – немой судья, судья – говорящий закон // Правовая реформа в Казахстане. - 2003. - № 3 – С. 46-47.
7. Аванесян В.В. Большая юридическая энциклопедия. – Москва, 2005. – С. 567.
8. Туманова Л.В. Статус судьи в Российской Федерации. – Тверь: ТВГУ. - 2017. – С. 160.
9. Правоохранительные органы: учебник для юридических вузов и факультетов / под ред. К. Ф. Гуценко. – М.: Зерцало, 2007. - 439 с.
10. Клеандров М.И. Статус судьи: правовой и смежные компоненты / под ред. М.М.Славина. – М.: Норма, 2008.
11. Ермошин Г.Т. Статус судьи в Российской Федерации: дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 2016. - 525 с.
12. Витрук Н.В. Конституционное правосудие. Судебно-конституционное право и процесс: учеб. пособие. – М.: Инфра-М, 2010. - 591 с.
13. Орлова К.А. Теоретико-правовые аспекты статуса судьи как субъекта права: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Калининград, 2017. - 23 с.
14. Бабаева О.Н. Проблемные вопросы статуса мировых судей Российской Федерации // Вестник Воронеж. гос. ун-та. – Серия: право. – 2007. № 1(2). – С. 134.
15. Зорькин В.Д. Выступление на VII Всероссийском съезде судей // Рос. юстиция. 2009. № 1. – С.13.
16. Мизулина Е.Б. Независимость суда еще не есть гарантия правосудия // Государство и право. - 1992. - № 4. - С.52-61.
17. Safarov T.B. Odil sudlovni amalga oshirish jarayonida sudbyalarning yuridik javobgarligi: zamonaviy holat va rivojlanish yo'nalishlari // Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. – Toshkent, 2023.
18. Aripov D.U. Sud hokimiyati mustaqilligini tashkiliy-huquqiy takomillashtirishning zamonaviy tendentsiyalari Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi Avtoreferati. – Toshkent, 2022.
19. Большой юридический энциклопедический словарь. – М., 2006. – С. 601.

JAMOAT XAVFSIZLIGI TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI DAVLAT BOSHQARUVIGA JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURATI

ABJALOV

*Abdijabbor Maxammadiyevich,
Ichki Ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti
Maxsus kasbiy fanlar kafedrası
dotsenti, podpolkovnik*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini davlat boshqaruviga joriy etishning obyektiv zarurati haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada globallashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib borayotganligi insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichida muayyan o'zgarishlarga sabab bo'layotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: davlat, boshqaruv, jamoat, xavfsizlik, global, axborot, texnologiya, internet, globallashuv, inqilob, insoniyat.

АННОТАЦИЯ

В статье с научной точки зрения анализируются мнения об объективной необходимости внедрения информационных технологий в государственное управление в системе общественной безопасности. Также в статье с научной точки зрения освещается, что растущая потребность во внедрении современных технологий в обеспечении безопасности и стабильности в условиях глобализации вызывает определенные изменения на новом этапе развития человечества.

Ключевые слова: государство, управление, общество, безопасность, глобальный, информация, технологии, интернет, глобализация, революция, человечество.

ANNOTATION

In this article, opinions on the objective necessity of implementing information technologies in public administration within the public security system are analyzed from a scientific perspective. The article also highlights the growing need for the introduction of modern technologies to ensure security and stability in the context of globalization, which is causing certain changes in the new stage of human development.

Key words. State, governance, society, security, global, information, technology, internet, globalization, revolution, humanity.

Globallashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib borayotganligi insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichida muayyan o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, mazkur sohadagi o'zgarishlar siyosiy tizimga ham o'zining salmoqli ta'sirini o'tkazib, yangicha munosabatlarni keltirib chiqarayotganligini anglash qiyin emas. Xususan, jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish natijasida davlat organlari va xalq o'rtasidagi muloqot samaradorligi ortib bormoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Butun dunyoda raqamli texnologiyalar barcha soha va odamlar hayotiga jadal kirib bormoqda. Bu yo'nalishga o'z vaqtida kirishgan davlatlar rivojlanib, aksincha, eskicha ishlaganlar taraqqiyotdan orqada qolyapti. Tarmoq va hudud rahbarlari raqamlashtirishsiz natija, rivojlanish bo'lmasligini tushunib yetishi shart. Barcha darajadagi rahbarlar buni o'ziga kundalik vazifa sifatida belgilab, raqamlashtirish sohasini alifbosidan boshlab chuqur o'rganishi kerak"[1], deya ta'kidlagani bejiz emas, albatta.

Dunyo miqyosida xavfsizlikni ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi, jamiyat ehtiyoj va manfaatlarini qondirishdagi rolini sifat jihatidan yanada yuqori bosqichga ko'tarmoqda. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati, u bilan bog'liq masalalarni hozirgi zamon talabidan kelib chiqib tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda, bugungi kunda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish jadal sur'atlar bilan oshib bormoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham Internet jahon axborot tarmog'idan to'siqlarsiz foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, milliy internet makonida kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda fuqarolarning internetdan foydalanish borasidagi savodxonligini oshirish"[2] asosida jamoat xavfsizligi-

ni ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarni yaratish eng muhim masalalardan biri sifatida belgilangan.

Hozir O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida kechayotgan turli o'zgarishlar uning samaradorligini yanada oshirish, uni aniq va qat'iy mezonlar asosida tashkil qilishga qaratilgan yangi bosqich boshlanganini ko'rsatmoqda. Bu borada davlat boshqaruvi tizimiga "elektron hukumat" va "raqamlashtirish" texnologiyalari faol joriy etilayotir. Shuningdek, yaqin, o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallangan strategik dasturlar, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ishlab chiqildi va mamlakat hukumati oldiga Birlashgan Millatlar Tashkilotining(BMT) "elektron hukumat" reytingining TOP-30 ligiga kirish vazifasi qo'yildi[3].

So'nggi yillarda axborot texnologiyalari o'zining ko'lami va miqyosi jihatidan dunyoda eng yirik tendensiyaga aylanmoqda. Zero, bugun axborot texnologiyalari kirib bormagan biron-bir sohani topish qiyin. Shu bois, axborotga nisbatan "yangi neft", "yangi xomashyo" degan ta'riflar tez-tez qo'llanmoqda. Bunday deyilishiga yetarlicha sabablar bor albatta, masalan, 2022-yil yakunlariga ko'ra, yer yuzidagi eng boy odamlar reytingida Ilon Mask(*Tesla, SpaceX asoschisi*) va Jeff Bezoslar(*Amazon asoschisi*) e'tirof etilgan[4]. Ushbu shaxslarning biznes faoliyati bevosita "raqamlashtirish", innovatsiya va zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan.

Davlat boshqaruvi tizimiga axborot texnologiyalarining joriy qilinishi kompleks ahamiyatga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik, texnik va boshqa qator omillarni o'z ichiga oladi. Zotan, davlat boshqaruvi katta axborot oqimi sharoitida faoliyat yuritadi. Bu davlat xizmatchisidan bir vaqtning o'zida ilmiy-texnikaviy va axborot texnologiyalariga asoslangan yuksak malaka va majmuaviy bilimni talab etadi[5].

Ma'lumki, har bir davlat o'zining boshqaruv tizimiga maqsadlilik, strategik yo'naltirilganlik va samaradorlik tamoyillariga asoslangan yondashuvni joriy etishga intiladi. Zero, bunday yondashuvning asosini davlat va jamiyat hayotining rivojiga oid qabul qilingan qarorlarning sifati tashkil qiladi. Biroq qo'yilgan maqsad va vazifalarga doim ham erishib bo'lmaydi. Bunga aksariyat hollarda an'anaviy(eskicha) yondashuv, jumladan ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan

tizim, boshqaruvga zamonaviy uslublarning joriy etilmagani kabi omillar sabab bo'ladi. Shu ma'noda, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish bevosita mazkur tizimga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishni taqozo etadi. Bunday zarurat bugungi kunda axborot omili barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etayotgani hamda davlat boshqaruvi sohasida jahonda kuzatilayotgan tendensiyalar bilan izohlanadi. Mutaxassislar fikricha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (shu jumladan, Internet tarmog'i) samarali foydalanish jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi[6].

Darhaqiqat, bugungi zamonaviy sivilizatsiya texnogen mazmunga ega bo'lib, u keng ko'lamli texnologik yangiliklar asosida rivojlanmoqda. Dunyo mamlakatlari rivojlanishining zamonaviy muhim shartlaridan biri bo'lgan innovatsion jarayonda elektron hukumat va "raqamlashtirish" strategiyasini oqilona va samarali amalga oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni tizimli va sifatli amalga oshirish va ularning samaradorligini muntazam tarzda takomillashtirib borishda innovatsion mexanizmlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, elektron hukumat yalpi "raqamlashtirish" jarayonining bir yo'nalishi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, elektron hukumat davlat boshqaruvini moder-

nizatsiya qilishning dastlabki bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda davlat boshqaruvining yangi paradigmasida insonparvarlik(gumanitar) va texnologik (infratuzilmaviy) omillar yetakchi(dominant) ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ayni paytda, davlat boshqaruvining kommunikativ vazifasi markaziy o'ringa chiqmoqda. Zero, u davlat hokimiyati idoralarining jamoatchilik bilan o'zaro aloqalarini tartibga solib turish va shu orqali demokratik jamiyat rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda katta o'rin tutadi. Ushbu jarayondagi muhim jihatlardan yana biri elitaning jamoatchilik oldidagi hisobdorligi darajasi ortadi.

Axborot texnologiyalari sohasida asosiy xalqaro hujjat – bu 2000-yil 22-iyulda katta sakkizlik davlatlari(G8) tomonidan qabul qilingan global axborotlashgan jamiyat Okinava xartiyasidir.

Mazkur xalqaro hujjat axborot va bilimning xalqaro uzilishlarini bartaraf etish zaruratini amalda tan oldi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va axborot jamiyatidagi turli davlatlar integratsiyasining asosiy prinsiplarini belgilab berdi. Xartiyada barcha insonlar yangi axborot texnologiyalari beradigan bilim va ne'matlardan foydalanishi uchun mamlakatlar muayyan darajada



raqamlashtirish darajasiga erishishi kerakligi ko'zda tutilgan[7].

Yevropa komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, davlat xizmatlarini onlayn tartibga(rejim) o'tkazish fuqarolar uchun yiliga 150 yevroni, kompaniyalar uchun esa 50 yevroni tejash imkonini beradi. Mutaxassislar fikricha, hozir ushbu xarajatlar turli ma'muriy, byurokratik to'siqlardan o'tishga sarflanmoqda va aholi daromadlariga salbiy ta'sir qilmoqda[8].

Elektron hukumat davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishdagi asosiy innovatsion mexanizm va obyektiv zarurat ekanini quyidagi raqamlarda ham ko'rish mumkin. Ekspertlarning xulosalariga ko'ra, bugungi kunda barcha kasblarning 78 foizi "raqamli" malaka talab qilmoqda, jahondagi kompaniyalarning 44 foizi "raqamli" rivojlanish strategiyasiga ega[9].

Ta'kidlash mumkinki, AKTning tez tarqalishi va ulardan foydalanish imkoniyati jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik tashabbuslarini rivojlantirish va odamlarning o'z hayotini o'zi tashkil etishining zaruriy shartidir. Yangi texnologiyalar fuqarolarni turli xil hayotiy masalalar bo'yicha xabardor qilish, ularda zarur ko'nikmalarni shakllantirish va siyosiy qarorlarni ishlab chiqish jarayonida qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda qulayligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Internetga asoslangan bunday hamkorlik eng avvalo, hukumatning o'zi uchun muhimdir, zero, bizningcha, buning natijasida odamlarni oqilona boshqarish, ularning salohiyatidan to'laonli foydalanish imkoniyati vujudga keladi. Bu borada ayrim mutaxassislar Internetni siyosat subyektlarining o'zaro hamkorligi uchun barqaror muhitni ta'minlovchi siyosiy institut sifatida ko'rishni taklif qilishmoqda[10].

Davlat boshqaruvi tizimining kelgusidagi taraqqiyoti va takomillashuvi bevosita innovatsion mexanizmlarga bog'liq. Bu jarayonda esa raqamlashtirish texnologiyalariga asoslangan elektron hukumat katta o'rin tutadi[11]. Zero, elektron hukumatni joriy etish bir-birini takrorlaydigan davlat funksiyalari sonini keskin kamaytirish, ularning sifatini yaxshilash, davlat xizmatlari, murojaat etuvchilarga sifatli xizmat ko'rsatish va uning vaqtini qisqartirish, ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, davlat xizmatlari turlarini kengaytirish, davlat idoralari samaradorligini

oshirish, mijozlar ehtiyojini qondirish, va umuman, davlat boshqaruvini takomillashtirish masalalarini ijobiy hal qilish imkonini beradi[12].

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishda elektron hukumat muhim innovatsion mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday mexanizm *birinchidan*, davlat va jamiyat munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi.

Ikkinchidan, davlat o'zining klassik vazifalaridan biri bo'lgan fuqarolarni "eshitish" xizmatini to'laonli ishga tushiradi.

Uchinchidan, bu o'ta muhim jarayon bo'lib, uning natijasida "inson-jamiyat-davlat" zanjiri shakllanadi.

To'rtinchidan, fuqarolarning siyosiy savodxonligi oshishi natijasida siyosiy tizimning tabiati ijobiy tomonga o'zgaradi[13] (masalan, fuqarolarning yangi, faol ijtimoiy nuqtayi nafari shakllanadi, siyosiy partiyalar, alohida siyosatchilar, jamoat tashkilotlarining faoliyati kibermakonga ko'chadi, siyosatchilar va davlat arboblari qo'yiladigan talablar o'zgaradi).

Beshinchidan, aholining davlat boshqaruvi tizimiga nisbatan ishonchi ortadi.

Oldinchidan, fuqarolar va davlat hokimiyati idoralari o'rtasida o'zaro "qayta aloqa" (*feedback*) shakllanadi.

Yettinchidan, davlat hokimiyati idoralari o'z faoliyatini ochiqlik va shaffoflik tamoyili asosida amalga oshira boshlaydi.

Sakkizinchidan, aholining AKTlarga bo'lgan qiziqishi tabiiy ortishi natijasida jamiyat taraqqiyotning yangi bosqichi – postindustrial jamiyatga o'tish imkoniyati vujudga keladi.

To'qqizinchidan, davlat idoralarida korrupsiogen omillar va korrupsiya holatlari keskin kamayadi.

O'ninchidan, davlat idoralarida turli nooqilona byurokratik to'siqlar, shu jumladan qog'ozbozlik hajmi sezilarli darajada qisqaradi.

Xulosa qilib aytganda, elektron hukumatning davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning innovatsion omili sifatidagi eng muhim jihatlardan yana biri – bu davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro "ishonch" omilining ustuvor ahamiyatga ega bo'lishidir.

ADABIYOTLAR

1. Prezident: Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat iqtisodiyotining kelajagi yo'q // president.uz/uz/lists/view/3848
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni // <https://www.lex.uz/uz/docs/6600413>
3. Elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi // president.uz/uz/lists/view/6653
4. AQSHning moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarni yoritadigan mashhur nashri Forbs (Forbes) tomonidan tuzilgan dunyo boylari reytingiga ko'ra, Elon Mask 2-o'rinni (180 mlrd doll.), Jeff Bezos 3-o'rinni (114 mlrd. doll.) egallagan.
5. Электронное правительство - современная система взаимодействия народа и государства // yuz.uz/ru/news/электронное-правительство-современная-система-взаимодействия-народа-и-государства.
6. Баранов Н. Информационно-коммуникационные технологии в контексте демократических преобразований в России // Современные проблемы межкультурных коммуникаций: сб. ст. СПб. - 2005. - С. 141–148.
7. Окинавская хартия глобального информационного общества // ru.wikisource.org
8. Окинавская хартия глобального информационного общества // ru.wikisource.org
9. N.To'xliyev. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish zarurati, shart-sharoitlari va imkoniyatlari // Sharq mamlakatlarining raqamli iqtisodiyotga o'tish tajribasi: imkoniyatlar va muammolar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – T.: 2021. 13 b.
10. Песков Д. Интернет в российской политике: утопия и реальность // Полис. – 2002. - № 1. - С. 37–42.
11. Хамзин Д. Совершенствование межведомственного взаимодействия в условиях цифровизации: электронное правительство как инструмент модернизации государственного управления // Молодой ученый. – 2020. – № 15 (305). – С. 360-367.
12. S.Kamolov., A. Konstantinova. E-government: way of modernization and efficiency enhancement of public governance. Journal of Law and Administration. 2017;(1):13-21. doi.org/10.24833/2073-8420-2017-1-42-13-21
13. Аманжолова А. "Электронное правительство" как инструмент модернизации государственного управления // Гуманитарная информатика. – 2016. - Вып. 10. – С. 52.

MEDIA- KOMMUNIKATSIYADA AXBOROT MANIPULYATSIYASI TURLARI XUSUSIDA

NISHANOVA

*Nigora Batirovna,
O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
X.Sulaymonova nomidagi RSEM
SLPE bo'limi mudiri*

YULDASHEVA

*Dilafroz Maxamadaliyevna,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mediakommunikatsiya jayronida uchraydigan tahdidlar, asosan axborot almashinuvi va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy ong va madaniy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi xususida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: mediakommunikatsiya, axborot almashinuvi, Axborot manipulyatsiyasi

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются угрозы, возникающие в процессе медиакommunikаций, в основном связанные с развитием информационного обмена и средств коммуникации. Высказываются мнения относительно возможности негативного воздействия на стабильность общества, общественное сознание и культурные ценности.

Ключевые слова: медиакommunikация, обмен информацией, манипулирование информацией.

ANNOTATION

This article presents ideas about the threats encountered in the process of media communication, mainly related to the exchange of information and the development of communication tools, which can negatively affect the stability of society, social consciousness and cultural values.

Key words: media communication, information exchange, Information manipulation

KIRISH

Hozirgi davrda jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan mafkuraviy tahdidlar va bu tahdidlarga qarshi kurashish zarurati jahon miqyosida, shu jumladan O'zbekistonda ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mafkuraviy tahdidlar jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy strukturasi uchun xavf tug'dirishi mumkin, shuning uchun ularni tahlil qilish va oldini olish uchun samarali usullarni ishlab chiqish zarur. Axborot texnologiyalari va internetning rivojlanishi bilan ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish osonlashdi. Bu jarayonda jamoatchilikni o'z manfaatlariga mos ravishda yo'naltirish, noto'g'ri yoki qisman haqiqatni tarqatish, ijtimoiy tarmoqlar orqali yolg'on axborotni ulashish, norozilik kayfiyatni shakllantirish va boshqarish holatlari tez-tez uchrab turmoqda. Ta'kidlash joizki, mediakommunikatsiya jarayonida uchraydigan tahdidlar, asosan, axborot almashinuvi va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy ong va madaniy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mediakommunikatsiya jarayoni – bu odamlar o'rtasidagi axborot almashinuvi, yangiliklar, fikrlar va g'oyalar tarqatish, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishning bir shakli bo'lib, uning shakllari va usullari doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Shu bilan birga, bu jarayonni manipulyatsiya qilish va tahdidlar yaratish ham osonlashmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish maqsadida media makondan samarali foydalanish va mamlakatdagi mafkuraviy jarayonlar, g'oyaviy tahdidlar, yoshlar tarbiyasida milliy-axloqiy qadriyatlarining ahamiyati hamda zamonaviy mafkuraviy muammolarni o'rganish

bilan bog'liq ijtimoiy-falsafiy va siyosiy qarashlar turli olimlar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Bu sohada A.Bayriyeva, A.Mavrulov, M.Quronov, Sh.Paxrutdinov, A.Muxtorov, B.Aliyev, B.Amanov, F.Jo'raqulov, O.Musayev, B.A.Begalov, B.Y.Xodiyev, V.Qo'chqorov, G.G'afforova, D.Norqulov, I.Ergashev, Q.Nazarov, S.Otamurodov, N.Jo'rayev, M.A.Usmonova, Sh.G'oyibnazarov, M.Atamuratov, M.Bekmurodov, Sh.Turayev, H.Ahmedov, O.Bazarov, O.Davlatov, R.Xudayberganov, S.Akobirov, S.G'afurov, B.Yakubov, S.Norqulov, A.I.Saitqosimov, T.Jo'rayev, F.Ravshanov, E.M.Izzetova, M.Yuldasheva va M.Musayev kabi olimlarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi[1.8]. Yuqoridagi tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, hozirgi davrda butun insoniyat hayotida fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi natijasida katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu rivojlanish shubhasiz, katta yutuqlarga olib kelgan bo'lsa-da, ayni paytda axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bir qator jiddiy tahdidlarni, jumladan, axborot urushi, axborot terrorizmi, axborot quroli va boshqa global xavflarni ham kuchaytirgan. Jumladan, tadqiqotchilar J.Y.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyevning "Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi" nomli asarda "Tahdid" arabcha "do'q" qilish, "qo'rqitish" degan so'zdan olingan bo'lib, kundalik hayotda bu so'z "birovni qo'rqitish, unga do'q, po'pisa qilish, shuningdek, biror falokat yoki qo'rqinchli voqeaning sodir bo'lish xavfi" ma'nolarida ishlatilishi, falsafiy ma'noda esa "tahdid" inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan, ma'lum bir davr davomida aniq maqsadga yo'naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy yoki umumsayyoraviy salbiy omillarning tajovuzi natijasida yuzaga keladigan xavf-xatar shaklini ifodalovchi tushuncha sifatida qaraladi. Bu tushuncha, muayyan barqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyatni aks ettiradi. Jamiyatning rivojlanishiga ta'siri jihatidan tahdid, tor ma'noda makon va zamonda mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzilmalarni zaiflashtirish yoki yemirishga qaratilgan shaxsiy, mahalliy, hududiy va mintaqaviy omillarning qo'rqitish, do'q qilish yoki po'pisa qilishdan iborat hatti-harakatlariga nisbatan ishlatiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mediakommunikatsiya jarayonida uchraydigan tahdidlar, asosan, axborot almashinuvi va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy ong va madaniy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mediakommunikatsiya jarayoni — bu odamlar o'rtasidagi axborot almashinuvi, yangiliklar, fikrlar va g'oyalar tarqatish, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishning bir shakli bo'lib, uning shakllari va usullari doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Shu bilan birga, bu jarayonni manipulyatsiya qilish va tahdidlar yaratish ham osonlashmoqda. **Axborotning manipulyatsiyasi** mediakommunikatsiya jarayonida uchraydigan asosiy tahdidlardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan, mediakommunikatsiya jarayonida axborotni manipulyatsiya qilishning salbiy ta'siri yanada kuchaygan. Yolg'on yoki to'g'ri bo'lmagan ma'lumotlarni tarqatish, ularni tahrirlash yoki manipulyatsiya qilish orqali jamiyatda noma'lum yoki xato tushunchalar shakllanadi.

Masalan: **Yolg'on axborot (Fake news):** mediakommunikatsiya orqali yolg'on va noaniq ma'lumotlar tarqatilishi, shu bilan birga, jamiyatni manipulyatsiya qilish uchun ishlatilishi. **Ijtimoiy tarmoqlarda manipulyatsiya:** fikrlar va g'oyalar to'g'risida manipulyatsiyalar, o'z manfaatlariga mos ravishda axborot tarqatish, ijtimoiy muhitni shakllantirish. **Axborot manipulyatsiyasi** — bu ma'lumotlarning odamlar yoki jamoatchilik ongiga ta'sir qilish, ularni maqsadli ravishda o'zgartirish yoki kiritilgan xabarlarini noto'g'ri tushunish uchun maxsus yo'llar bilan boshqarish jarayonidir. Axborot manipulyatsiyasi, asosan, axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, yangiliklar va boshqa axborot kanallari orqali amalga oshiriladi va uning asosiy maqsadi odamlarning fikrini shakllantirish, ularni manipulyatsiya qilish yoki o'zgarishlarga olib kelishdir. Axborot manipulyatsiyasining asosiy usullari:

Yolg'on ma'lumot tarqatish. Yolg'on yoki noto'g'ri axborot tarqatish orqali odamlar o'z fikrlarini o'zgartirishga majbur qilinadi. Bunday axborot ko'pincha jamoatchilikni qo'rqitish, aldanish yoki noxush holatlarga duchor qilish uchun ishlatiladi.

Kontekstni o'zgartirish.

Axborot manipulyatsiyasi ko'pincha aniq bir voqea yoki hodisani to'liq ko'rsatmaslik yoki kontekstni o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Bunda faqatgina ma'lum bir qismini taqdim etish yoki voqeani o'z maqsadiga moslashtirish amalga oshiriladi.

Hissiy manipulyatsiya. Bunda ma'lumotlar odamlarning hissiy javoblarini rag'batlantirish uchun ishlatiladi. Ko'pincha bu usul orqali odamlarning qo'rquv, xurofiylik, g'azab yoki sevgiga asoslangan reaksiyalarini kuchaytirish maqsad qilinadi.

Chalg'itish va ma'lumotni buzish. Ba'zi hollarda manipulyatsiya qilish maqsadida odamlarni muhim voqealardan chalg'itish yoki ular haqidagi axborotni buzish yo'li bilan ma'lum bir maqsadga erishiladi.

Ijtimoiy fikrlarni yaratish. Axborot manipulyatsiyasi orqali ijtimoiy fikrlar yoki stereotiplar shakllantiriladi. Bu usul ko'pincha ijtimoiy guruhlar, millatlar yoki siyosiy oqimlar o'rtasidagi nizolarni kuchaytirish uchun ishlatiladi.

Ko'rinadiki, mediakommunikatsiyada axborot manipulyatsiyasining oldini olish zamonaviy jamiyat uchun muhim masala bo'lib, bu nafaqat axborot xavfsizligini, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham zarurdir. Axborot manipulyatsiyasining oldini olish uchun quyidagi usullarni ko'rib chiqish tavsiya etiladi:

1. **Axborotning to'g'riligi va manbalarini tekshirish.** Bunda axborotning haqqoniyligini tekshirish va manbalarini tasdiqlash muhimdir. Har bir xabar, maqola yoki yangilikni yoritishda bir nechta mustahkam va ishonchli manbalarga tayanish zarur. Manbalar o'zaro mustahkamlanishi va tekshirilishi kerak, chunki yolg'on yoki manipulyatsion axborot tezda tarqalishi mumkin.

2. **Media savodxonligini oshirish,** ya'ni ommaviy axborot vositalari orqali jamiyatda media savodxonligini oshirish kerak. Bu nafaqat axborotni tahlil qilish, balki axborot manbalarining ishonchligini, motivlarini va maqsadlarini tushunishni ham o'z ichiga oladi. Media savodxonlikni oshirish orqali odamlar manipulyatsiyani tezroq aniqlay oladilar.

3. **Fikrlar va g'oyalarning xilma-xilligi bo'lib,** medialarda turli fikrlar va g'oyalarni yoritish orqali axborot manipulyatsiyasiga

qarshi kurashish mumkin. Ommaviy axborot vositalarining xilma-xil fikr va yondashuvlarni yoritishi jamiyatda tenglikni saqlaydi va ijtimoiy manipulyatsiya ehtimolini kamaytiradi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq muhim.

4. **Ommaviy axborot vositalarining mas'uliyati.** Ommaviy axborot vositalari o'zining ijtimoiy mas'uliyatini anglab, mualliflik huquqlariga rioya qilishlari, yolg'on va manipulyatsiyalashgan axborotni tarqatmasliklari kerak. Bu, o'z navbatida, axborotning to'g'riligini ta'minlashga yordam beradi.

5. **Axborotning konteksti va maqsadini aniqlash.** Bunda axborotni tarqatishda uning maqsadi va kontekstini aniqlash muhimdir. Ba'zan axborot kontekstdan tashqariga olib chiqilib, odamlarni chalg'itish yoki manipulyatsiya qilish maqsadida o'zgartiriladi. Axborot tarqatilishidan oldin uning to'g'ri tushunilishi uchun kerakli izohlar va kontekst kiritilishi kerak.

6. **Tezkor va samarali javoblar.** Axborot manipulyatsiyasiga qarshi kurashishda soxta va manipulyatsion xabarlarini tezda aniqlash va javob berish zarur. Tezkor va to'g'ri javoblar odamlarni yolg'on va manipulyatsiya qilingan axborotdan himoya qiladi.

7. **Axborot xavfsizligini ta'minlashda esa** axborot xavfsizligini ta'minlash uchun davlat, xususiy sektor va jamoatchilik o'rtasida hamkorlik kerak. Axborotni manipulyatsiya qilishga qarshi kurashishda texnologik vositalardan foydalanish, shu jumladan sun'iy intellekt va algoritmlardan

foydalanish mumkin. Bu vositalar yordamida soxta axborotlarni avtomatik ravishda aniqlash va ularni bloklash mumkin.

8. **Jurnalistlarni va axborot yetkazuvchilarni o'qitish.** Jurnalistlar va axborot tarqatuvchilar soxta va manipulyatsion axborotni aniqlash va uning oldini olish bo'yicha muntazam o'qitilishi kerak. Ularning axborot tarqatishdagi mas'uliyati juda katta, shuning uchun ularni axborot xavfsizligi va manipulyatsiya qilishning oldini olish bo'yicha muntazam ravishda tayyorlash zarur.

XULOSA

Axborot manipulyatsiyasining oldini olish uchun jamiyatda ongli, savodxon va ongli axborot almashinuvi tizimi kerak. Media kommunikatsiyaning mas'uliyatli va samarali boshqarilishi, ommaviy axborot vositalarining ishonchliligi va xolisligi, shuningdek, axborot xavfsizligi sohasida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash muhim omillar bo'ladi. Axborot tarqatishda transparensiya va hisobot berish muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, axborot manipulyatsiyasining oldini olish uchun jamiyatda umumiy shaffoflikni oshirish zarur. Axborotning to'g'ri va ochiq bo'lishi, odamlarning xabardor bo'lishi va qarorlar qabul qilishda xolisona axborotga asoslanishlari manipulyatsiyalashga qarshi kurashishda muhim vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Suvanov. Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning innovatsion texnologiyalari: Fal. fan. dokt. (DSc) diss.avtoref. – Toshkent, 2022. 79-bet.
2. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 315.
3. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar va izohli lug'at. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – B. 546-547.
4. L.Jamolov. Globallashuv va ma'naviy tahdidlar // "Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy texnologiyalari" respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallar to'plami. – Toshkent: 2019. – B. 25.
5. Maxamadaliyevna Y.D., Matmusayeva M. On Lingvofolcloristic Units. International Journal of Culture and Modernity 11, 169-171.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ, ПРИМЕНЯЕМЫЙ В СМИ: ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ И ОТРИЦАТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ

ОМОНОВ

Равшанжон,

*заместитель декана факультета
журналистики и узбекской
филологии*

*Национального университета
Узбекистана, кандидат
политических наук*

АННОТАЦИЯ

В современном мире сложно представить такую область деятельности человека, в которую бы не проникли различные умные устройства. Средства массовой информации не исключение, так как большинство работ журналистов стали выполнять алгоритмы, считывающие данные. Но наряду с положительным эффектом присутствуют и отрицательные. В этой статье мы пытаемся раскрыть эти сложные аспекты в журналистике. Многие исследователи проводят анализ работ искусственного интеллекта, чтобы в дальнейшем исключить ошибки при их работе.

Ключевые слова: СМИ, искусственный интеллект, робот-журналист, информационный материал, контент, алгоритм, данные.

ANNOTATSIYA

Zamonaviy dunyoda turli xil aqlli qurilmalar kirib bormaydigan inson faoliyati sohasini tasavvur qilish qiyin. Ommaviy axborot vositalari ham bundan mustasno emas, chunki jurnalistlar ishining aksariyati ma'lumotlarni o'qiydigan algoritmlar tomonidan bajarila boshlandi. Ammo, ijobiy ta'sir bilan bir qatorda, salbiy ta'sir ham bor. Ko'pgina tadqiqotchilar kelajakda o'z ishlaridagi xatolarni bartaraf etish uchun ham sun'iy intellekt ishini tahlil qilishmoqda. Maqolada jurnalistikadagi ana shu murakkab jihatlarini ochishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, sun'iy intellekt, robot-jurnalist, axborot materiali, kontent, algoritim, ma'lumotlar.

ANNOTATION

In the modern world, it is difficult to imagine an area of human activity that would not be penetrated by various smart devices. The media is no exception, as most of the work of journalists began to be performed by algorithms that read data. But, along with the positive effect, there are also negative ones. In this article we try to unravel these complex aspects in journalism. Many researchers are still analyzing the work of artificial intelligence in order to eliminate errors in their work in the future.

Key words: media, artificial intelligence, robot journalist, information material, content, algorithm, data.

Интеллектуальные машины упрощают работу и берут на себя часть наших обязанностей. Можно констатировать, что искусственный интеллект (ИИ) проник в такие жизненно-важные сферы, как медицина, образование, информационные технологии, средства массовой коммуникации, бизнес, наука, развлечения, борьба с преступностью. Таким образом, уже в ближайшем будущем применение искусственного интеллекта качественно преобразит практически все сферы нашей жизни. Столь широкое использование ИИ обусловлено двумя важнейшими факторами. С одной стороны, он способен автоматизировать даже те процессы, которые ранее требовали участия человека, например, управление роботизированными механизмами на производстве, то есть в данном случае ИИ берет на себя обязанности человека. С другой стороны, он может быстро обрабатывать и анализировать поистине гигантские объемы информации и просчитывать варианты, используя множество переменных. И по данному направлению ИИ дает качественно лучшие результаты по сравнению с человеком. Добавим к этому, что машина не подвержена человеческому фактору, а ее работоспособность не зависит от эмоций и личных проблем. Как итог – области применения искусственного интеллекта очень широки и фактически ограничиваются только нашей фантазией и скоростью внедрения технологических инноваций [1]. Доступный всем пользователям популярный браузер YandexGPT 2 на запрос “Искусственный интеллект и современная журналистика” сгенерировал следующий текст: “Искусственный интеллект (ИИ) стал неотъемлемой частью современной журналистики, облегчая процесс сбора и анализа информации, а также предоставляя журналистам новые возможности для создания контента... ИИ значительно упрощает процесс сбора данных, позволяя журналистам быстрее находить нужную информацию и глубже анализировать ее. Технологии, такие

как обработка естественного языка (NLP) и машинное обучение, помогают обрабатывать большие объемы данных и извлекать из них полезные сведения... ИИ помогает автоматизировать процесс анализа данных, что особенно важно в условиях постоянного увеличения объема информации. Журналисты могут использовать алгоритмы машинного обучения для выявления тенденций, закономерностей и скрытых взаимосвязей в данных... Современные платформы и инструменты на основе ИИ позволяют журналистам создавать более качественный и интересный контент, предоставляя им возможность быстро генерировать идеи и структурировать информацию. ИИ может помочь в создании персонализированного контента, адаптированного под потребности и интересы конкретной аудитории. Улучшение эффективности работы: журналисты могут использовать ИИ для оптимизации рабочего процесса, например, для автоматизации рутинных задач, таких как написание текстов, создание графиков и таблиц, классификация и маркировка данных” [2].

Таким образом, можно утверждать, что на современном этапе развития отрасли “умной журналистики” роботы во многом превосходят людей, выполняя работу, требующую быстрого анализа большого массива информации. Они уже почти научились имитировать человеческую письменную речь, определять достоверные ресурсы, понимать, что интересно читателю, а что нет, работать оперативно и выдавать совершенно невообразимые результаты. Однако, как бы парадоксально это ни звучало, искусственный интеллект все еще не обладает интеллектом. Это и объясняет локальность сфер применения роботов-журналистов, хорошо подходящих для создания предварительной видеонарезки, распознавания моделей речевых сигналов, идентификации лиц в толпе, примитивного анализа и компоновки информации. Можно, конечно, доверить роботу прогноз погоды или публикацию о результате футбольного матча, но, к примеру, написать полноценную аналитическую статью машина пока не может [3].

Можно только представить, как с такими возможностями ИИ будет способен делать лаконичные зарисовки или даже выделять объ-

екты с фотографий при плохом освещении. Он сможет распознавать написанное человеком нетвердой рукой, к примеру, в стрессовой ситуации. Это совершенно новые горизонты возможностей визуализации. Говоря о рисках, можно еще допустить и другой вариант, подразумевающий полное исчезновение локальной журналистики. Доступ через интернет к крупным новостным ресурсам, который сейчас существует практически повсеместно, позволяющий отслеживать происходящее где угодно в реальном времени, может привести к ослаблению местных СМИ.

Однако в современном мире несомненным преимуществом использования ИИ в журналистике является то, что научно-техническая революция в сфере информационных технологий и средств коммуникации способствует расширению связей между государствами, развитию процессов глобализации, интернационализации и межкультурного диалога [4]. Несмотря на существующие технологические ограничения, практический аспект роботизированной журналистики развивается довольно быстро – крупные международные издания Соединенных Штатов Америки, Великобритании, Китая и других стран активно создают и используют в полевых условиях первые прототипы алгоритмов, способных заменить штатных журналистов в сфере подготовки новостей об экономике, спорте, чрезвычайных происшествиях. Потенциал для развития журналистики видится в подобных разработках глобальный, но для профессии процесс роботизации может оказаться очень неоднозначным — эксперты в области медиа уже строят массу различных теорий развития журналистики и даже вплоть до апокалиптических, связанных с вытеснением человека из новостной оперативной журналистики. На деле же сегодня роботы служат исключительно помощниками в ежедневной оперативной работе с информацией и не угрожают увольнением журналистам в редакциях из-за ограниченности их функций, сложности процесса обучения работа, а также в силу существования неразрешимых этических и профессиональных вопросов. Можно выделить несколько основных вызовов, совокупность этических, профессиональных и социальных проблем, возникаю-

щих в процессе развития роботизированной журналистики. Группа нидерландских исследователей во главе с А. Kasem в своей работе по изучению сценариев развития журналистики выделяет направления трансформации системы массовых коммуникаций и связывает основные тренды с появлением новой техники и девайсов массового пользования, доминированием социальных сетей в роли ключевого источника информации, а также с развитием автоматизации и роботизации [5].

В частности, особую роль в будущем журналистики авторы отводят алгоритмам ранжирования контента, которые должны стать основным инструментом формирования новостной повестки дня. Благодаря использованию этих систем набором новостей, попадающих на первый экран сайта (данные, расположенные в самом верху сайта и не требующие совершения скролла мышкой), любого интернетсервиса (от медиа до социальных сетей), можно будет вводить аудиторию в заблуждение. Как пример авторы приводят сложный набор алгоритмов, использующихся в сервисах Facebook и Google, которые по ряду критериев и правил, держащихся в строгой секретности, определяют качество и потенциал контента для аудитории. Самые верхние позиции в ленте формируются не редакторским коллективом, как это зачастую происходит на новостных порталах сегодня, а с помощью автоматизированных систем на основе предпочтений и интересов конкретного пользователя. Если наличие редактора, формирующего новостную повестку, сейчас воспринимается как проявление позиции того или иного издания по ряду вопросов, то в случае с работой автоматизированных алгоритмов ранжирования, представляемых как максимально объективные и независимые системы, речь идет о глобальном влиянии на общественное мнение. Аудитория воспринимает факт автоматического ранжирования и последовательность потребляемого контента как проявление сверхобъективности алгоритма, в то время как может иметь место некорректная первоначальная настройка или обход “интеллектуальной” системы третьими лицами уже в процессе анализа информации роботом. На наш взгляд, подобные роботизированные алгоритмы являются

потенциально слабым и опасным местом для журналистики как социального института сегодня. Лоббирование определенных тем, тезисов и подсвечивание “нужных” мнений может привести к искажению реальной информации и манипулированию фактами для достижения третьими лицами определенной коммерческой или политической выгоды. На первый план выходит не качество журналистского контента, его оперативность, достоверность и глубина, а умение обмануть робота, сортирующего информацию в новостной ленте социальных сетей, новостных агрегаторах или личных телефонных ассистентов (Google Assistant, Siri, Cortana и прочие). Подобная “интеллектуальная” система нивелирует значимость фактов и журналистскую работу в целом, так как дает возможность выводить на поверхность глобальных информационных потоков любую информацию. Главное – выполнить все требования сортирующего контент алгоритма [6]. Программный код и изначальный объем размеченной информации, на которой обучалась нейронная сеть, лежащая в основе любого алгоритма по написанию новостей, другие особенности работы – все это должно быть максимально понятным и прозрачным для аудитории, если в будущем робот-журналист займет главное место в новостной редакции.

Законодательство стран контролирует деятельность журналиста по-разному, однако в вопросах ответственности за предоставление недостоверных данных позиции многих государств схожи – за ошибки в информации отвечает журналист и редакция СМИ, но кто будет нести ответственность за опубликованные роботом новости? Редактор? Программист? Ни профессиональное, ни научное сообщество пока не может дать однозначного ответа, каким образом должны контролироваться прозрачность механизмов работы роботов-журналистов, систем ранжирования и рекомендации.

Задумываясь о перспективах развития медиаотрасли в контексте роботизации, можно сделать вывод, что особое внимание должно уделяться процессам так называемого обучения алгоритмов, в ходе которого робот-журналист получает установочные данные, а также процессам верификации данных и фактчекинга. Вопрос транспарентности работы роботов-журналистов находится на стыке коммерческих интересов компаний и изданий, занимающихся их разработкой и совершенствованием алгоритмов, а также профессиональными и этическими нормами, требующими от журналистики объективности и достоверности в работе с информацией. На наш взгляд, процесс регулирования



искусственного интеллекта – самый острый и сложный, и касается не только роботизированной журналистики, а всей отрасли машинного обучения в целом. Решение этих вопросов позволит сохранить значимость и ценность журналистской профессии даже в ситуации отсутствия людей, задействованных в процессе обработки информации и создания новостей.

В заключение стоит отметить, что студенты Национального университета Узбекистана

имени Мирзо Улугбека на созданной ими социальной странице “Медиалинк” продемонстрировали в своих работах, что можно применять искусственный интеллект в информационных материалах, но в особых рамках. В сюжетах, публикуемых на странице, они использовали собственный ум и анализ, критическое мышление, – то есть возможен тандем с гранью между работами искусственного интеллекта и человеческого потенциала в средствах массовой информации.

ЛИТЕРАТУРА

1. Чертовских О.О. Искусственный интеллект на службе современной журналистики: история, факты и перспективы развития / О.О.Чертовских, М.Г.Чертовских // Вопросы теории и практики журналистики. – 2019.
2. <https://presscentr.rbc.ru/tpost/aor77me7c1-iskusstvennii-intellekt-v-sovremennoizh>
3. Macroni F. The Future of Augmented Journalism: A guide for newsrooms in the age of smart machines [Electronic Resource] / F.Macroni, A.Siegman // AP Insights. – Mode of Access: https://insights.ap.org/uploads/images/the-future-of-augmented-journalism_apreport.pdf
4. Чертовских О.О. Исследование теоретических и методологических основ построения межкультурной коммуникации / О.О.Чертовских // Научные исследования и разработки. Современная коммуникативистика. – 2023. – Т. 2, № 6.
5. Kasem, A. What's New (s). Scenarios on the Future of Journalism / A. Kasem, M. Waes, K. Wannet // Amsterdam. Retrieved September. – 2023. – Т. 18. – Р. 13–18
6. Вестник Челябинского государственного университета. 2023. № 8 (404). Филологические науки. Вып. 107. - С. 28–33.

“OMMAVIY MADANIYAT” TIZIMIDA PROZELITIZM

MUSAYEV

*Mansur Tursunpo'latovich,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy
tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i,
siyosiy fanlar doktori (DSc),
katta ilmiy xodim*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “ommaviy madaniyat” tizimida prozelitizm harakatlarining namoyon bo'lishi haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada “ommaviy madaniyat” tizimida o'zga din va diniy e'tiqodlarni targ'ibot va tashviqot qilishda prozelitizm alohida ahamiyat kasb etayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: “ommaviy madaniyat”, prozelitizm, din, e'tiqod, ma'naviyat, g'oya, mafkura, tahdid, targ'ibot, ma'rifat, axloq, odob.

АННОТАЦИЯ

В статье научно анализируются мнения о проявлении прозелитских действий в системе «массовой культуры». Также выделено особое значение прозелитизма в пропаганде других религий и религиозных убеждений в системе «массовой культуры».

Ключевые слова: “народная культура”, прозелитизм, религия, вера, духовность, идея, идеология, угроза, пропаганда, просвещение, мораль, нравы.

ANNOTATION

This article scientifically analyzes opinions on the manifestation of proselytizing actions in the system of “mass culture”. The article also scientifically highlights the special importance of proselytism in the propaganda and propagation of other religions and religious beliefs in the system of “mass culture”.

Key words. “folk culture”, proselytism, religion, faith, spirituality, idea, ideology, threat, propaganda, education, morality, mores.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida xavfsizlik va barqarorlikka raxna solish orqali yoshlarni o'ziga rom etayotgan "ommaviy madaniyat" g'oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, dunyoda sodir bo'layotgan global o'zgarishlar jarayonida vujudga kelayotgan "ommaviy madaniyat" tahdidining ta'sir kuchi tobora ortib borayotganligini anglash qiyin emas. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Bugungi yashin tezligida o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ilgari ko'rilman turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga qanday og'ir kulfatlarni solayotganiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z otanasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda beparvo bo'lish, loqayd bo'lish – qanchalik og'ir bo'lmasin, ochiq aytishga majburmiz – bu xiyonat, jinoyat bilan barobardir"[1]. Zero, bugungi kunda "ommaviy madaniyat" madaniy-mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur holat dunyo miqyosida ma'naviyat, madaniyat va mafkuralar o'rtasida zimdan kurash ketishiga zamin yaratmoqda. Mafkuraviy kurash orqali omma ongiga ta'sir ko'rsatish ma'naviy va axloqiy tubanlikni o'zida namoyon etuvchi "ommaviy madaniyat" misolida tobora kuchaymoqda. Olimlarning tadqiqotlarida antik dunyoda tashkil etilgan olimpiada o'yinlari hamda gladiatorlar jangi "ommaviy madaniyat"ning dastlabki ko'rinishlari sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, xorijlik tadqiqotchi D.Uayt fikriga ko'ra, qadimgi Rim amfiteatrlarida namoyish etilgan gladiatorlar jangi "ommaviy madaniyat"ning bir ko'rinishidir[2]. Mazkur o'yinlar o'sha davrda fojiali ko'rinishga ega bo'lib, asosan ko'ngilochar tomosha sifatida emas, balki

moddiy manfaatdorlik vositasi sifatida tashkil etilgan. Ushbu ommaviy tadbirlar keyinchalik o'linga mahkum etilganlar o'rtasida o'tkazilgan, unda kuchsizlar halok bo'lar, kuchlilar tirik qolib, tomoshabinlarni hayratga solar edi. Mazkur shafqatsiz tomoshani rimliklar ilk bor miloddan avvalgi 264-yilda Rimdagi buqabozorda Brutning o'g'illari tomonidan otasini xotirlab uyushtirilgan, uch juft gladiator jang qilgan izdihomda ko'rishgan. Tomosha rimliklarga juda g'aroyib va diqqatga sazovor bo'lib ko'ringanidan Rim solnomasiga kiritilgan. Shu tariqa gladiatorlar jangi mil. av. 105-yilga kelib Rimda ommaviy tomoshalar qatoriga kiritilgan. Bu yondashuv tarafdorlari "ommaviy madaniyat"ni qadimgi dunyoda paydo bo'lgan degan fikrlarida asosan "ommaviy madaniyat" aholining ko'p sonli ommasidan iborat tuban qatlamlariga yo'naltirilganiga e'tibor qaratadi.

AQSHlik geosiyosatchi Zbignev Bjezinskiy o'zining mashhur "Buyuk shaxmat taxtasi" asarida Amerikaning dunyodagi gegemonligining zahirida strategik maqsadlar muhim o'rin tutishini qayd etib, unda harbiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy yutuqlar bilan bir qatorda madaniyatni ham alohida ajratib ko'rsatadi. Bu haqda Z.Bjezinskiy: "O'z estetik qadriyatlari haqida kim nima desa desin, ommaviy madaniyat, ayniqsa, butun jahondagi yoshlarni ohanrabodek o'ziga tortadi. Uning jozibadorligi o'zi targ'ib etadigan hayotni sevishdan kelib chiqadi, biroq uning jahon bo'yicha jozibadorligi shak-shubhasizdir"[3], deya ta'kidlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar ekranlarida axloqsizlik, buzg'unchilik, zo'ravonlikka asoslangan film va seriallar namoyish etilayotgani insoniyatni teran fikrlashga undaydi. "Ommaviy madaniyat"ning tahdidi haqida AQSHlik siyosatchi J.Byukenen "1950-yillardan boshlangan "ommaviy madaniyat" harakati 1990-yillarga kelib, millatimizni naslsizlik balosiga duchor qildi"[4], deya ta'kidlagan edi. G'arb dunyosida "ommaviy madaniyat" oqibatida bir jinsli nikohning ommaviy avj olishi, ayollarning o'z qomatini saqlash maqsadida farzand ko'rishdan voz kechishi, aksariyat yangi qurilayotgan yosh oilalarda er-xotinning "o'z-o'zi" uchun yashashga intilishi va farzandsiz yashashni maqsad qilayotgan oilalarning ko'payishi



ushbu illat keltirib chiqarayotgan asosiy oqibatdir. Ommaviy madaniyat tufayli dunyo miqyosda buzg'unchi g'oyalar, axloqsizlik, g'ayriinsoniy odatlarni targ'ib etish ommalashmoqda. Shu o'rinda "ommaviy madaniyat" harakati oqibatida axloqsizlikni madaniyat deb, asl ma'naviy qadriyatlarga bepisandlik bilan qarash holati namoyon bo'lmoqda. Natijada mazkur illat mamlakat taraqqiyoti, inson hayoti, oila birdamligi va millat kelajagi bo'lgan yoshlar tarbiyasiga tahdid solayotgani tashvishlidir. Ommaviy madaniyatning xavfli tomoni shundan iboratki, u millatga mutlaqo yot bo'lgan tubanlik illatlarini o'zida namoyon etadi. Ommaviy madaniyatning zamirida millat madaniyati va mentalitetiga raxna solish orqali begona va yot g'oyalarni targ'ib etish tobora kuchaymoqda. Natijada ommaviy madaniyat dunyo miqyosida xalq va millatning o'ziga xosligiga putur yetkazish orqali insonni barcha jabhalarda o'ziga tobe qilmoqda.

O'tmishdan ma'lumki, xalqaro munosabatlarda mafkuraviy ta'sir ko'rsatish jarayonida

ma'naviyat va madaniyatni targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etgan. Tarixda davlatlararo amalg oshirilgan savdo-sotiq munosabatlarida o'zga davlatlardan olib kelingan tovarlar timsolida shu mamlakatda yashovchi xalqlarning madaniyati va urf-odatlarini kirib kelgan. Tuya karvoni bo'ladimi yoxud kema yukxonasida bo'ladimi, qanday shaklda bo'lmasin, olib kelinayotgan tovar yonida hamisha muhim siyosiy "mahsulot" – g'oya bo'lgan va boshqa mollar qatori eksport qilingan. Aynan ana shu taktika "universal madaniyat" eksportida bugun ham faol qo'llanilmoqda[5]. Natijada ayrim kuchlar ommaviy madaniyatdan o'z manfaati yo'lida foydalanib, moddiy foyda olish asosiy maqsad ekani oydinlashmoqda. Shu o'rinda ommaviy madaniyat zamirida, avvalo, tijorat, moddiy manfaatdorlik borligini anglash lozim. Mustamlakachilar o'z qadriyatlari va mafkuralarini koloniyalarida o'rnatishga alohida e'tibor qaratgan.

O'tmishda yirik davlatlar tomonidan muayyan hudud va mintaqada o'z davlatining qadriyat-

lari, an'analari hamda g'oyalar, mafkuralarini targ'ib etishda savdogarlar, missionerlar faoliyati muhim o'rin tutgan. Shu tariqa o'zga madaniyat, ma'naviyatni targ'ib etish orqali inson qalbi va ongini zabt etishga alohida e'tibor qaratilgan. Zero, muayyan millat ongiga o'zga madaniyat, qadriyat, urf-odatlarini singdirish orqali u xalqni osongina zabt etish mumkin. Ayniqsa, bugungi kunda "ommaviy madaniyat" targ'ibotchilari moliyaviy va zamonaviy texnika vositalari orqali insonlar qalbi va ongini zabt etishga qaratilgan g'oyalar, mafkuralarini kuchaytirmoqda. Xususan, "ommaviy madaniyat" namoyandalari g'oyaviy-mafkuraviy qurolning muhim ko'rinishi sifatida targ'ibot va yolg'on axborotlardan o'z maqsadi yo'lida foydalanmoqda. Mazkur harakat tarafdorlari axborot oqimidan g'arazli maqsadda foydalanayotgani tashvishlidir. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo'ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, loqaydlik, mas'uliyatsizlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlar ildiz otishiga zamin yaratmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Dunyo miqyosida yuz berayotgan eng xavfli illat sifatida namoyon bo'layotgan ommaviy madaniyat xurujlari o'zga bir davlat fuqarolarining qalbi va ongini zabt etish, mafkurasidan voz kechtirish orqali o'zga cha mafkuralarni singdirishda namoyon bo'lmoqda. Bugun shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda ommaviy madaniyat oqibatida madaniyatsizlik, e'tiqodsizlik kabi qator "ta'limotlar" oshkora, ba'zan esa yashirin tarzda targ'ib etilmoqda. Natijada milliy ruh, millatning o'ziga xosligi va asriy qadriyatlarini zimdan yemirishga zamin yaratilmog'da. Yovuzlik, jaholat insonni va jamiyatni tubanlikka boshlovchi, odamlarni g'arazli niyat, qabih maqsadlarga undovchi ommaviy madaniyat doimo insoniyat uchun xatarli hisoblangan. G'arb olamida keng tarqalayotgan erkinlik niqobidagi "ommaviy madaniyat" zahirida har qanday xalq va millat ma'naviyatini izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar yotibdi.

Bugungi kunda tobora kengayib, o'z shaklini o'zgartirib borayotgan ommaviy madaniyatni aksariyat g'o'r va tajribasiz yoshlar "yevropacha madaniyat" va "erkinlik" sifatida qabul qilayotgani barchamizdan bu borada jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Chunki madaniyat ko'rinishidagi ommaviy madaniyat ta'sirida yoshlar

qalbi va ongi, ruhiyatini izdan chiqarishga bo'lgan harakatlar namoyon bo'layotgani juda tashvishlidir. Globallashuv sharoitida ommaviy madaniyat quyidagi shakllarda namoyon bo'lmoqda: axloqiy buzuvchilik, zo'ravonlik, egosentrizm, ayollarning ichkilik va kashandalikka ruju qo'yishi, pornografik mahsulotlarni targ'ib etish, inson tanasiga turli tatuirovkalar chizish, bir jinsdagi kishilar bilan turmush qurish kabi illatlar kuchaymoqda.

Ommaviy madaniyatning nisbatan keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri bo'lgan **kosmopolitizm**(yunoncha "kosmopolites" – "dunyo fuqarosi") g'oyasida Vatan, millat degan tushunchalarni rad etish, "Inson – dunyo fuqarosi" shiori asosida vatanparvarlik, davlatlar mustaqilligi, milliy madaniyat va ma'naviyat kabi qadriyatlarini inkor etib, faqat dunyo fuqaroligini targ'ib qiluvchi dunyoqarash g'oyasini singdirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ommaviy madaniyatning jamiyat uchun ancha xavfli va xatarli shakllaridan yana biri nigilizmdir. **"Nigilizm"** lotincha "nihil" – "hech nima", o'zining yoki yurtining kuch-qudratiga ishonmaslik, ularga past baho berish, ertangi kunga ishonchsizlik, umidsizlik, ya'ni muayyan millat vakillarining o'z millati imkoniyatlarini kamsitib, pasaytirib baholashi, o'z yurtining qadriga yetmaslik, mamlakatda ro'y berayotgan o'zgarishlar miqyosini anglay olmaslik holatlariga olib keladi. Nigilizm tarixiy hamda madaniy qadriyatlarni inkor etish, umume'tirof etilgan qadriyatlarga nisbatan salbiy va o'ta tanqidiy munosabatda bo'lish orqali axloqiy tubanlikni namoyon etib, o'zida buzg'unchilik g'oyalarini aks ettiradi. Ayniqsa, milliy nigilizm illati tufayli insonning mafkuraviy immuniteti zaiflashishi oqibatida uning ongida o'zgacha dunyoqarash shakllanadi. Natijada nigilizm ta'siriga tushgan kishilar Vatan manfaatini himoya qila olmaydigan, befarq, loqayd odamlar sifatida gavalanayotgani tashvishli holdir.

Bugungi kunda **tatuirovka** ommaviy madaniyat mahsuli sifatida keng miqyosda yoyilayapti. Tatuirovka inson tanasiga igna yordamida turli shakllarni chizdirish orqali jamiyat hayotida g'ayriodatiy xulq-atvor shakllanishiga zamin yaratadi. Tatuirovkaga qiziqish sog'liqqa jiddiy ta'sir ko'rsatib, tanada turli yuqumli kasalliklarni keltirib chiqarishga sabab bo'lishini anglash lozim. O'tmishda inson tanasiga tatuirovkalar

chizdirish asosan ashaddiy jinoyatchilar uchun jazo vositasi sifatida qo'llanilgan bo'lib, odatda, u o'sha mahbusning qamoqdagi "darajasini" belgilab bergan. Ommaviy madaniyat nomi ostidagi faoliyat axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik g'oyalari tarqatish, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning ko'p mingyillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlarini qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlardir. U odamlarning didini yuksaltirishga, milliy va jahon san'atining mumtoz asarlarini tushunishga emas, balki ulardan uzoqlashtirishga xizmat qiladi[6].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, globallashuv jarayonida, diniy erkinlikka jiddiy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan yana bir omil bu prozelitizmdir. O'zida g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi diniy adovatni qo'zg'atuvchi, xalq va millatlarga yot bo'lgan g'oya va "qadriyatlar"ning shakllanishida prozelitizm muhim o'rin tutmoqda.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda ommaviy madaniyat tizimida o'zga din va diniy e'tiqodlarni targ'ib va tashviq qilishda prozelitizm alohida ahamiyat kasb etayotganligini ta'kidlash o'rinli. Xususan, g'oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan prozelitizm harakati tufayli jahonda milliy va diniy adovatlarning avj olishi orqali diniy asnodagi urushlarni vujudga keltirmoqda. Natijada, mazkur holatlar dunyo miqyosida bir qator salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda. Prozelitizm yunon tilidagi "proselitizm" so'zidan olingan bo'lib, "kelgindi, bir joydan boshqa joyga ko'chuvchi", "o'zining diniy e'tiqodidan boshqasiga o'tuvchi", "to'g'ridan-to'g'ri biron-bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga majbur qilish"ni anglatadi. Talaffuz qilishida til qavarib ketadigan bu atamaning sharqcha nomi "murtadlik" deyiladi[7]. Prozelitizm o'tgan XX asrning 90-yillarida bir qator davlatlarda vujudga kelgan din erkinligi sharoitida dinlar va konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlarni murakkablashtiruvchi asosiy omil vazifasini o'tagan. Prozelitizm harakati konfessiyalar o'rtasidagi raqobatni shakllantirish orqali an'anaviy xristianlikka raxna solmoqda. Natijada, mazkur holat, o'z navbatida dunyo miqyosida xristianlikning yagonaligi, xristian madaniyati, ma'naviyati va uning qadriyatlariga tahdid solmoqda. Prozelitizm atamasi XVII asrda fransuz tilida paydo bo'lib, bir odamning ikkinchi

odamga hiyla, nayrang bilan ta'sir o'tkazishini anglatuvchi salbiy ma'no kasb etadi[8].

Ta'kidlash joizki, prozelitizm tarafdorlari ko'pincha turli niqoblar, jozibali shior va pardalar ostida faoliyat ko'rsatayotganligi tashvishlidir. Zero, mazkur harakat tarafdorlari o'z faoliyati jarayonida puxta o'ylangan, uzoq va davomli yovuz maqsadlarni ko'zlayotganligi tobora oydinlashmoqda. Prozelitizm tufayli dunyo miqyosida aksariyat holatlarda haqoratlar, zo'ravonliklar, qo'rqitishlar diniy asnodagi urushlar vujudga kelmog'da. Mazkur harakatlarning oldini olish maqsadida hozirgi kunga kelib 33 ta davlatda prozelitizm harakati umuman man etilgan bo'lsa, 81 ta davlatda xorijiy missionerlar faoliyati cheklangan va 36 mamlakatda bir dindan boshqa dinga o'tish hamda dunyo miqyosida mavjud davlatlarning 40 foizda qonunga zid ravishda diniy adabiyotlarni chop etish va tarqatish taqiqlangan[9].

Shu o'rinda, dunyodagi ayrim siyosiy kuchlar o'zlarining "istiqbolli" rejalarini amalga oshirishda prozelitizmdan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishi tobora kuchaymoqda. Ayniqsa, mazkur harakatlar turli din va diniy konfessiyalar o'rtasidagi hamjihatlikka putur yetkazish orqali o'zining uzoq va davomli strategik maqsadlarini ko'zlayotganligini anglash lozim. O'zida g'arazli va buzg'unchi maqsadlarni namoyon etuvchi prozelitizm o'zining soxta g'oyalarga ishonitirish orqali dindan qurol sifatida foydalanayotganligi kuzatilmoqda. Prozelitizm juda uzoqni ko'zlaydigan davomli g'arazli maqsadlari tufayli diniy adovatni shakllantirish va kuchaytirish orqali diniy, irqiy, milliy nizolarni vujudga keltirmoqda.

Prozelitizm harakatining siyosiy mohiyati ayrim davlatlarda hukm surayotgan notinch vaziyatlardan foydalangan holda, hokimiyat boshqaruvida vujudga kelayotgan ayirmachilik (separatizm), jumladan diniy asosdagi g'ayri insoniy tamoyillarni amalga oshirish orqali parokandalikni yuzaga keltirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda prozelitizm tarafdorlari ko'pincha turli niqoblar, jozibali shior va pardalar ostida faoliyat ko'rsatmoqda. Ayniqsa, mazkur harakat tarafdorlari o'z faoliyati jarayonida puxta o'ylangan, uzoq va davomli yovuz maqsadlarni ko'zlayotganligi tobora oydinlashmoqda. O'tmishdan ma'lumki, prozelitizm bilan shug'ullanuvchi shaxslarga nisbatan doimo nafrat bilan

qaralgan. Xususan, prozelitizm ta'sirida insonlar o'zlarining ajdodlari e'tiqod qilgan azaliy dinlaridan voz kechib, o'zga dinni qabul qilishgan. Aynan, prozelitizm tarafdorlarining faol targ'ibot va tashviqoti fuqarolarni o'z e'tiqodidan, milliy mentaliteti hamda xalqning o'ziga xos an'analari-dan voz kechishga undamoqda. Dunyo miqyosida o'zida salbiy illatlarni aks etuvchi "ommaviy madaniyat" niqobi ostida ma'naviy tahdidning yangi ko'rinishi sifatida namoyon bo'layotgan prozelitizm milliy ma'naviyat va diniy qadriyatlar uchun jiddiy xatar hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Hozirgi kunda dini niqob qilib, o'zining g'arazli maqsadlarini amalga oshirayotgan prozelitizm tarafdorlari o'z g'oyalarini targ'ib etishda, eng avvalo, e'tiqodi sust, dunyoqarashi tor bo'lgan insonlar, xususan, hali dunyoqarashi shakllanmagan, din to'g'risida xolisona fikrga ega bo'lmagan yoshlarga alohida e'tibor qaratishmoqda. Shu tariqa, prozelitizm tarafdorlari o'zlarini "buyuk olijanob maqsadlari va dunyoviy ezgu g'oyalari" orqali aksariyat hollarda aynan yoshlarni shubhali diniy oqimlarga jalb etishmoqda. Natijada, axloqiy g'o'r bo'lgan yoshlarning ijtimoiy hayotda diniy sohadagi bilimlarini yetarli emasligi "ommaviy madaniyat" niqobi ostida harakat qilayotgan

prozelitizm tarafdorlarining g'arazli g'oyalari ta'siriga berilishiga olib kelmoqda. Binobarin, ommaviy madaniyat niqobi ostidagi prozelitizm harakatlari natijasida har bir xalq uchun muqaddas hisoblangan, uni birlashtiruvchi kuch – milliy o'zlikni anglashiga putur yetkazilmoqda. Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Hech kimga sir emas, bugun dunyoda beqaror vaziyat hukm surmoqda. Xalqaro maydonda davlatlarning bir-biriga o'zaro ishonchi susayib bormoqda. Bunday murakkab sharoitda hayotning o'zi bizdan mamlakatimizda hukm surayotgan o'zaro hurmat, mehr-oqibat, totuvlik va birdamlik muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni buzg'unchi yot g'oya va oqimlar, tashqi ta'sirlardan asrashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda"[10]. Zero, chiroyli niqoblangan jozibali shior va g'oyalar pardasi ostida faoliyat ko'rsatayotgan "ommaviy madaniyat" targ'ibotchilari insonlar qalbi va ongida vatanparvarlik, Vatanga muhabbat tuyg'ularini so'ndirib, xalqni azaliy e'tiqodidan mahrum etish orqali millatni o'zligi hamda buyuk va shonli tarixidan judo qilishga qaratilgan g'arazli maqsadlar borligini barcha yurtdoshlarimiz teran anglashi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.65.
2. Qarshiboyeva V. Riyokor "madaniyat". Tafakkur. -T., 2013. №2 .B-85.
3. Бжезинский З. Великая шахматная доска. – М., 2000. – С.36-38.
4. Jabborova J. Pinhona tajovuz. Tafakkur. – T., 2013. №3. – B.115.
5. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.121.
6. Xodjayeva D. Ma'naviy tahdid: uning mohiyati, ko'rinishlari va ularga qarshi kurashning zarurati // "Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy texnologiyalari" respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallar to'plami. – Toshkent: 2019. – B. 464.
7. Quronov M. Niqob ortiga bir nigoh. Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – B.11.
8. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. "Toshkent islom universiteti" nashriyot matbaa bosmaxonasi. – T., 2014. – B.378.
9. Виктор Еленский. Религиозная свобода: глобальные измерения. <http://tatpolit.ru/category/zvezda/2011-06-21/6008>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston xalqiga Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan bayram tabrigi" <https://president.uz/uz/lists/view/7437>

“МЯГКАЯ СИЛА” КАК ДЕЙСТВЕННЫЙ ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ ИРАНА

АКМАЛОВ

*Шаислам Икрамович,
доцент Международной
исламской академии Узбекистана,
кандидат политических наук*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Eron Islom Respublikasi-ning “yumshoq kuch” salohiyati xalqaro maydon-da ushbu davlat tashqi siyosatining o‘ziga xos vositasi sifatida o‘rganiladi. Eron diplomatiyasining maqsadlariga erishish uchun qanday usullardan foydalanishi va amalda qo‘llanishi yangi ming-yillikda yuz bergan ichki va tashqi o‘zgarishlar kontekstida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. “yumshoq kuch”, xalq diplomatiyasi, xalqaro munosabatlar, sivilizatsiyalar muloqoti, tashqi siyosatga ta’sir qilish vositasi, islom inqilobi eksporti, dunyoning siyosiy manzarasi.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается потенциал “мягкой силы” Исламской Республики Иран на международной арене как уникальный инструмент внешней политики этого государства. Методы, используемые и реализуемые иранской дипломатией для достижения своих целей, также изучаются в контексте внутренних и внешних изменений, произошедших в новом тысячелетии.

Ключевые слова: «мягкая сила», публичная дипломатия, международные отношения, диалог цивилизаций, инструмент внешнеполитического воздействия, экспорт исламской революции, политическая картина мира.

ANNOTATION

The article examines the soft power potential of the Islamic Republic of Iran in the international arena as a unique instrument of the foreign policy of this state. The methods used and implemented by Iranian diplomacy to achieve its goals are also studied in the context of internal and external changes that have occurred in the new millennium.

Key words: “soft power”, public diplomacy, international relations, dialogue of civilizations, instrument of foreign policy influence, export of Islamic revolution, political picture of the world.

ВВЕДЕНИЕ

“Мягкая сила” – комплекс действий, проводимых государством, региональным или международным актором с целью оказания влияния на общественное мнение за рубежом для улучшения своего имиджа и/или привлечения зарубежной поддержки в целях продвижения собственных интересов с использованием всех имеющихся инструментов и современных технологий¹. Данный вид дипломатии имеет особое значение для любой страны, поскольку его использование во внешнеполитической стратегии способствует качественной реализации задач в сфере внешней политики, а также усилению ее позиций в деле урегулирования проблем мировой политики в страновом и региональном разрезах.

“Мягкая сила” в условиях современного мира и его быстрой трансформации играет все более возрастающую роль. Суверенным государствам, претендующим на региональное и мировое лидерство, к числу которых относятся и Исламская Республика Иран, важно в XXI веке выработать и постоянно совершенствовать собственную национальную концепцию публичной дипломатии как инструмент внешнеполитического воздействия.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

Исламская Республика Иран представляет собой государство с богатейшей историей и культурой, а также предстает как важный геополитический игрок. Он относится к исламской цивилизации, выступая лидером в рамках отдельной индо-персидской субцивилизации

¹ Мир Мохаммад Садеги С.М., Хаджи Мине Р. Роль “мягкой силы” Ирана в борьбе против иранофобии https://www.vestnik.mgimo.ru/jour/article/view/1005?locale=ru_RU

и шиитского мира в целом². Иран является одним из ключевых акторов в Евразии, обладающим особенным опытом в сфере применения технологий “мягкой силы” в публичной дипломатии. Тегерану за годы после свершения в 1979 году исламской революции, в результате которой была свергнута прозападная шахская династия, удалось накопить беспрецедентный опыт сопротивления давлению со стороны США и их союзников. При этом политика открытого противостояния западной гегемонии официально закреплена в основополагающих документах страны. Наряду с применением инструментов “жесткой силы” в отношении своих противников (прежде всего США, Израиль и ряда государств арабского мира) Иран использует на международной арене и “мягкие” методы достижения своих внешнеполитических целей.

Саму “мягкую силу” современный американский политолог Джозеф Най определил как “способность влиять на других путем взаимодействия в области формирования повестки дня, оказания воздействия с помощью привлечения симпатий для достижения желаемых результатов”³. Публичная дипломатия, которая включает в себя деятельность в области культуры, языка, образования, религии и многих других сфер, в свою очередь является ключевым инструментом в стратегии “мягкой силы” любого государства.

ИРИ как государство наряду с тысячелетней историей, историческими, культурными и религиозными особенностями, обладает качественным и действенным потенциалом в сфере применения “мягкой силы”. Иран как государство, претендующее на лидерство в регионе, стремится применять достаточно гибкую, разностороннюю, продуманную политику со всеми странами, в том числе на Ближнем Востоке и Южном Кавказе, в Центральной Азии, прибегая к такому инструменту “мягкой

² А.О.Наумов. А.П.Дхар. “Мягкая сила” и публичная дипломатия Исламской Республики Иран на пространстве большой Евразии. Вестник Московского университета. Серия 21. Управление (государство и общество). 2024. Т. 21. № 3 Lomonosov Public Administration Journal. Series 21. 2024. Vol. 21. No. 3.

³ Nye J.S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. - Public Affairs, 2004.

силы”, как публичная дипломатия. Опыт Тегерана в публичной дипломатии может стать примером в формировании имиджа страны и урегулирования международных конфликтов, в которые она вовлекается не по своей воле.

С момента основания Исламской Республики Иран в 1979 году официальной политикой страны был провозглашен экспорт исламской революции, в частности с использованием элементов “мягкой силы”. Речь шла о распространении революционных целей, взглядов, учений среди народов мусульманского мира. При этом такая деятельность происходила в рамках минимизации сотрудничества с Западом и Востоком, под которым тогда прежде всего подразумевался атеистический Советский Союз, а также страны социалистической системы. Эта резкая трансформация, которая в корне изменила политическую картину мира, во многом определила суть внешнеполитических шагов ИРИ, считавшей себя лидером мировой мусульманской общины, дополнительной возможностью для реализации своих религиозных и политических устремлений, в частности в Центральной Азии. Планируя свои шаги, Тегеран учитывал также намерения стран этого региона использовать в своем суверенном развитии религиозный - исламский - фактор, в качестве важнейшего элемента идентичности и культурного наследия.

Однако, нежелание в столицах центральноазиатских государств поддержать продвигаемый курс Ирана на теократизацию, наряду с другими факторами, обусловили осуществление Тегераном определенной корректировки приоритетов и установок внешней идеологической политики.

Президент Ирана Али Акбар Хашеми-Рафсанджани (1989-1997) в качестве основного стратегического механизма для восстановления позиций страны в системе международных отношений сделал ставку на прагматический регионализм, основой которого стала адаптация Ирана к реалиям мировой политики, при которой его внешняя политика строилась на геополитических интересах, а идеологический подход приобретал второстепенное значение. Начавшаяся в тот исторический период трансформация внешнеполитического курса страны привела к повышению авторитета Ирана на

международной арене и способствовала расширению его “мягкосилового” инструментария, включая, например, персидское культурное наследие доисламского периода, которое ранее находилось под запретом⁴.

Пятый президент ИРИ Мохаммад Хатами (1997-2005) провозгласил концепцию “диалога цивилизаций”, которая стала новым направлением публичной дипломатии Ирана. Впервые она была озвучена в декабре 1997 года на 8-й Исламской конференции на высшем уровне в Тегеране в качестве меры укрепления доверия на Ближнем Востоке и в странах Персидского залива и прекращения идеологической борьбы Ирана с другими мусульманскими государствами⁵.

Этот концепт стал своеобразным ответом на бурно развивавшиеся процессы глобализации и призывал, с одной стороны, к усилению диалога в рамках всего мусульманского мира, а с другой — к культурному диалогу с Западом. Целью “Диалога цивилизаций” стало также преодоление разногласий и установление взаимопонимания между западным и исламским мирами. Проект Хатами подразумевал продвижение идей миролюбия с целью искоренения нетерпимости и насилия между народами и их взаимодействия в рамках сферы культуры и религии, однако не охватывал при этом крайне болезненные вопросы безопасности⁶.

Инициативы Хатами получили позитивный отклик международного сообщества, что вдохновило его представить свою концепцию на 53-й пленарной сессии Генеральной Ассамблеи ООН в сентябре 1998 года и предложить объявить 2001 год Международным годом диалога между цивилизациями. Предложе-

⁴ Кальбизаде Э.Х. Прагматизм во внешней политике Ирана и отношениях с Арменией // История, археология и этнография Кавказа. 2022. Т. 18. № 3. С. 686.

⁵ Eighth Session of the Islamic Summit Conference (Session of Dignity, Dialogue, Participation). Tehran, Islamic Republic of Iran. 9-11.12.1997. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.oic-oci.org/archive/english/conf/is/8/8th-is-summits>.

⁶ Statement by H.E. Mohammad Khatami President of the Islamic Republic of Iran before the 53rd Session of the United Nations General Assembly. New York: UN. 21.09.1998. [Электронный ресурс]. URL: https://www.parstimes.com/history/khatami_speech_un.html.

ние Хатами было принято в рамках резолюции ООН А/К.Б8/53/2218, и ЮНЕСКО было поручено разработать культурную, социальную и образовательную программу “Диалога цивилизаций”, включавшую конференции и семинары высокого уровня по всему миру⁷. Как и предполагалось, Год диалога между цивилизациями прошел в 2001 году, однако социокультурные мероприятия, организованные ЮНЕСКО, продолжались далее — с 2003 по 2006 гг. Встречи высокого уровня, проведенные в Азии, Африке, Европе и Америке были посвящены широкому кругу тем, связанных с межкультурным, религиозным и цивилизационным взаимодействием стран и народов. После завершения программы ЮНЕСКО в 2006 году в рамках “Диалога цивилизаций” деятельность была продолжена Фондом диалога между цивилизациями — структурой, созданной в 2007 году для развития регулярного диалога между народами, культурами, цивилизациями и религиями в целях содействия миру, справедливости и терпимости.

На 78-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН 29 мая 2024 года, ссылаясь на предыдущие резолюции о содействии взаимопониманию, развитию и обмену между цивилизациями и культурами, Генассамблея в рамках резолюции А/78/L.75 и содержащейся в ней Программы действий объявила 10 июня Международным днем диалога между цивилизациями. Официально это было сделано для того, чтобы “повысить осведомленность о ценности разнообразия цивилизаций и содействовать диалогу, взаимному уважению, терпимости и глобальной солидарности в этом отношении”⁸.

В 2005 году иранское правительство приняло новую стратегию развития “Иран-2025”, которая включала в себя план перспективного развития государства в течение 20 лет. Представленный документ открывал новые горизонты для развития “мягкой силы” в стране, поскольку с ее помощью акцентировалось внимание на “развитии конструктивного и

позитивного влияния” на международные отношения. Однако иранские исследователи отмечают, что для развития “soft power” правительству страны стоит не только принять новые концепции развития, но нужно привнести ряд значительных изменений как во внешней политике, так и во внутренней, например:

создание положительного, привлекательного имиджа Ирана;

установление доверительных и предсказуемых взаимоотношений;

отказ от чувствительных политических акций во внешней политике;

создание профессионального дипломатического аппарата⁹.

Общность иранского культурно-исторического наследия формирует некие задатки “мягкой силы” Ирана и дает возможность использовать их как важный инструмент внешнеполитического воздействия, укрепления авторитета в регионе, формирования выгодного имиджа, а также налаживания контактов с иностранными государствами. Рассматривая “soft power” под таким углом, можно выделить следующие важные фрагменты целостной картины иранской внешней политики.

Язык и литература выступают одними из ведущих элементов “мягкой силы” Исламской Республики Иран (персидский язык является родственным для многих евразийских языков, включая турецкий, хинди, урду, армянский, грузинский, суахили, что увеличивает возможности “языковой” дипломатии Ирана). С целью популяризации персидского языка и национальной литературы Министерство культуры и исламской ориентации Ирана проводит всевозможные мероприятия, направленные на духовное развитие общества, распространение исламской культуры и искусства, а также расширение культурных связей с народами мира. Так, например, президент ИРИ Хасан Роухани (2013-2021) подчеркивал, что согласно Программе развития Ирана 2016-2021 годов, укрепление позиций персидского языка является одним из главных достижений. Согласно данной стратегии, Министерство

⁷ The list of UNESCO conferences on Dialogue among civilizations. 2004. [Электронный ресурс]. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark/48223/pf0000133120>.

⁸ Резолюция ГА ООН А/78/L.75 от 29.05.2024 // Генеральная Ассамблея ООН. [Электронный ресурс]. URL: <https://press.un.org/en/2024/ga12606.doc.htm>.

⁹ Дехкани Фирузабади. Концептуальная основа внешней политики Ирана. 2008. В книге: Публичная дипломатия. Теория и практика. Под редакцией д.п.н., профессора М.М.Лебедевой. – М.: 2017.

культуры и исламской ориентации не раз проводило международные фестивали персидской литературы и персидского языка, а также организовывало выставки национальной библиотеки Исламской Республики Иран. В некоторых странах открыты центры по изучению персидского языка. Так, один из них был открыт в 2015 году в России при культурном центре ИРИ. Согласно Ethnologue, известному справочнику по языкам мира, который выпускается организацией SIL International, сегодня на персидском языке говорят более 100 млн человек (с учетом персоязычных таджиков в Таджикистане, Афганистане и других странах)¹⁰. По популярности в сети Интернет (по количеству контента) персидский занимает 12-е место в мире. Такая широкая география распространения персидского языка и число его носителей позволяют Ирану говорить со многими странами и народами на одном языке и распространять свою культуру.

Исторические памятники и туризм. Ввиду того, что Иран является наследником по-настоящему уникальной древнейшей цивилизации, на его территории располагаются крупнейшие памятники древности. Например, поистине великий Бистун, древние города Чога-Занбиль и Персеполь, а также еще 19 памятников - настоящих шедевров человечества, включенных в список объектов Всемирного наследия ЮНЕСКО. Иран со своей невероятно богатой культурой имеет потенциал для развития туризма, однако из-за международных санкций против Ирана, вводимых десятилетиями, развитие туристической сферы более высокими темпами пока не представляется возможным. Однако, подчеркивая положительные черты иранского туризма как инструмента “мягкой силы”, стоит отметить, что с 2014 года, по статистике Всемирной туристической организации, ИРИ входит в топ-50 стран по привлекательности для иностранных туристов.

Культурно-образовательное направление. На территории Ирана действуют и играют важную роль в развитии потенциала “мягкой силы” Организация культуры и исламских

связей, которой подведомственны Общество работников культурной сферы, Организация благотворительности, Организация хаджа и паломничества, Информационное агентство ИРИ, Организация исламской культуры и коммуникации, Организация печати и публикации, Высшая штаб-квартира культурных и художественных центров при мечетях, Попечительский совет публичных библиотек и т.д.

Важным элементом мягкой силы являются образовательные программы и студенческие обмены. Так, в Международном университете “Аль-Мустафа”, по данным на 2022 год, обучалось около 55 тыс. студентов из более 120 стран мира. Зарубежные филиалы университета базируются в 60 странах мира. Для тех, кто не может приехать в Иран, создан “Виртуальный открытый университет “Аль-Мустафа”, предоставляющий для своих студентов обширный набор курсов, в том числе и на русском языке. Вместе с этим Министерство образования Ирана предлагает студенческие стипендии для граждан Афганистана, Пакистана, стран Западной Африки.

Несущей конструкцией формирования и реализации доктрины “мягкая сила” является политическая система Ирана. Доктрина “Ни Восток, ни Запад, только Исламская Республика” исторически обеспечивала авторитет Ирану на международной арене, а в особенности среди мусульманских стран. Действительно, историческое прошлое ИРИ с точки зрения политики не может не удивлять: за последние практически 50 лет этому государству удается по-настоящему оказывать сопротивление давлению США, а также в целом успешно выдерживать экономическую блокаду. Достойно упоминания – нюансы такого подхода некоторых стран в отношении ИРИ были использованы Тегераном в разработке и совершенствовании своей собственной концепции “мягкой силы”. Однако, исходя из шиитского уклада жизни иранского общества и государства, “soft power” сталкивается с некоторыми трудностями в ее реализации. В основном это относится к ближневосточному региону, где отвергается шиизм и имеет распространение исламская идеология суннитской направленности. Эти обстоятельства учитываются Ираном, который стремится вести достаточно

¹⁰ Дирахше Дж., Гаффари М. Публичная дипломатия Ирана в исламском мире: инициативы, приоритеты и достижения // Журнал “Фарханг — иртиботот”. 2012. № 16. С. 9–45. (На перс. яз.)



гибкую и осмотрительную политику, чтобы не испортить имидж государства, который создавался десятилетиями.

Несмотря на наличие более ранних институтов “мягкой силы” в Иране особую роль стал играть Центр публичной и медиадипломатии, благодаря данному аппарату иранского МИДа публичная дипломатия становится одним из ведущих внешнеполитических инструментов. Созданный орган уже является неким связующим звеном между государственными и негосударственными акторами.

Закключение

Вся система, отражающая совокупность культурно-исторического наследия Иранской Республики Иран, является сильной стороной Тегерана и имеет за собой тот самый потенциал “мягкой силы”, используемый для налаживания диалога с другими странами. Однако исторический опыт Исламской революции оставил свой след на репутации государства в СМИ, и именно поэтому в настоящее время всю совокупность внешнеполитических решений Ирана западные коллеги пропускают через призму идеологизированности, радикально-религиозных настроений и недоверия.

И все же стоит отдать должное “мягкой силе” Ирана именно в культурно-образовательном направлении, основные заслуги которого принадлежат деятельности Организа-

ции культуры и исламских связей. Благодаря скоординированной и четкой работе этого аппарата ИРИ открыта к сотрудничеству в международной образовательной сфере. Также важно отметить гибкость данной системы, поскольку правительство Ирана не делает акцент международного образования на религии и идеологии, именно это и позволит впоследствии вывести иранскую науку на новый конкурентноспособный уровень при дальнейшей поддержке этого направления развития.

Стоит также обратить внимание на такие реалии, как практическая нейтрализация в декабре 2024 года военно-политических возможностей ИРИ в ряде стран Ближнего Востока, прежде всего в Сирии, парализация в Ливане и Палестине ориентированных на Тегеран военизированных структур Хамас, Хизбулла, огромной армии советников КСИР в ряде арабских государств. Отвлечение огромных сил и средств ИРИ на указанные направления предполагает также возможное задействование опыта иранской дипломатии в использовании “мягкой силы”, что, как представляется, будет хорошим подспорьем, способным повысить эффективность и целенаправленность политико-дипломатических мер, которые Тегеран предпримет в ближайшей перспективе для восстановления своего бывшего потенциала в указанном регионе.

ЛИТЕРАТУРА

1. Мир Мохаммад Садеги С.М., Хаджи Мине Р. Роль “мягкой силы” Ирана в борьбе против иранофобии https://www.vestnik.mgimo.ru/jour/article/view/1005?locale=ru_RU
2. А.О.Наумов. А.П.Дхар. “Мягкая сила” и публичная дипломатия Исламской Республики Иран на пространстве большой Евразии. Вестник Московского университета. Серия 21. Управление (государство и общество). 2024. Т. 21. № 3 Lomonosov Public Administration Journal. Series 21. 2024. Vol. 21. No. 3.
3. Nye J.S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. - Public Affairs, 2004.
4. Кальбизаде Э.Х. Прагматизм во внешней политике Ирана и отношениях с Арменией // История, археология и этнография Кавказа. 2022. Т. 18. № 3. С. 686.
5. Eighth Session of the Islamic Summit Conference (Session of Dignity, Dialogue, Participation). Tehran, Islamic Republic of Iran. 9-11.12.1997. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.oic-oci.org/archive/english/conf/is/8/8th-is-summits>.
6. Statement by H.E. Mohammad Khatami President of the Islamic Republic of Iran before the 53rd Session of the United Nations General Assembly. New York: UN. 21.09.1998. [Электронный ресурс]. URL: https://www.parstimes.com/history/khatami_speech_un.html.
7. The list of UNESCO conferences on Dialogue among civilizations. 2004. [Электронный ресурс]. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark/48223/pf0000133120>.
8. Резолюция ГА ООН/78/L.75 от 29.05.2024//Генеральная Ассамблея ООН. [Электронный ресурс]. URL: <https://press.un.org/en/2024/ga12606.doc.htm>.
9. Резолюция ГА ООН/78/L.75 от 29.05.2024//Генеральная Ассамблея ООН. [Электронный ресурс]. URL: <https://press.un.org/en/2024/ga12606.doc.htm>.
10. Дехкани Фирузабади. Концептуальная основа внешней политики Ирана. 2008. В книге: Публичная дипломатия. Теория и практика. Под редакцией д.п.н., профессора М. М. Лебедевой. – М.: 2017.
11. Дирахше Дж., Гаффари М. Публичная дипломатия Ирана в исламском мире: инициативы, приоритеты и достижения // Журнал “Фарханг – иртиботот”. 2012. № 16. С. 9–45. (На перс. яз.)

АНАЛИЗ ТРАНСФОРМАЦИИ ПОЛИТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ

ЮСУПОВА

*Элеонора Фердинандовна,
доктор философии (PhD) по
политическим наукам, доцент
Ташкентского государственного
педагогического университета
имени Низами*

АННОТАЦИЯ

Политическое сознание молодежи является важным показателем состояния политической культуры и социально-политических процессов в стране. В статье исследуются основные факторы, влияющие на политическое сознание молодежи Узбекистана. Анализируется влияние социально-экономических условий, образования, медиа, а также традиционных и современных ценностей на политическое сознание молодежи Узбекистана. Основываясь на данных социологических исследований, автор выделяет ключевые тенденции и предлагает рекомендации для улучшения политического просвещения и вовлеченности молодежи в политические процессы.

Ключевые слова: политическое сознание, патернализм, государственная молодежная политика, реформы, политическая активность, социальная активность, демократизация, менталитет, ментальные и культурные традиции, политическая культура, развитие, модернизация, государство, трансформация, модернизация, образование.

ANNOTATSIYA

Yoshlarning siyosiy ongi mamlakatdagi siyosiy madaniyat va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar holatining muhim ko'rsatkichidir. Ushbu maqolada O'zbekiston yoshlarining siyosiy ongiga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ta'lim, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarning O'zbekiston yoshlarining siyosiy ongiga ta'siri tahlil qilingan. Sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlariga asoslanib, muallif asosiy tendensiyalarni ta'kidlaydi va siyosiy ma'rifat va yoshlarning siyosiy jarayonlarga jalb etilishini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar bergan.

Kalit so'zlar: siyosiy ong, paternalizm, yoshlarga oid davlat siyosati, islohotlar, siyosiy faollik, ijtimoiy faollik, demokratlashtirish, mentalitet, aqliy va madaniy an'analar, siyosiy madaniyat, rivojlanish, modernizatsiya, davlat, transformatsiya, modernizatsiya, ta'lim.

ANNOTATION

The political consciousness of young people is an important indicator of the state of political culture and socio-political processes in the country. This article examines the main factors influencing the political consciousness of the youth of Uzbekistan. The influence of socio-economic conditions, education, media, as well as traditional and modern values is analyzed. Based on the data of sociological research, the author identifies key trends and offers recommendations for improving political education and youth involvement in political processes.

Key words: political consciousness, paternalism, state youth policy, reforms, political activism, social activism, democratization, mentality, mental and cultural traditions, political culture, development, modernization, state, transformation, modernization, education.

ВВЕДЕНИЕ

Политическое сознание молодежи является ключевым элементом развития гражданского общества и устойчивого политического порядка в любой стране. В условиях социально-экономических и культурных трансформаций, происходящих в Узбекистане, важно понять, какие факторы формируют политические взгляды и предпочтения молодого поколения. Несмотря на растущий интерес к данной проблеме, многие аспекты остаются недостаточно изученными.

Целью данной статьи является анализ факторов, влияющих на политическое сознание молодежи Узбекистана, с учетом социально-экономического контекста, уровня образования, влияния медиа, ментальных и культурных традиций. Для повышения уровня политического участия молодежи в стране, на наш взгляд, необходимо уделять больше внимания политическому образованию молодого поколения, обеспечению доступа к независимым и разнообразным информационным ресурсам, а также поддержке инициатив молодежи в политической сфере.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО
ДАННОЙ ТЕМЕ

Социальная и политическая активность населения – фактор динамичных преобразований, изменение его темпа, и, как показывает практика, они сопряжены с социальной психологией, менталитетом народа. Важной составляющей национального менталитета узбекского народа, как отмечает один из известных узбекских историков, академик А.Аскарлов, является общинность [4, С.326]. Это продиктовано, как подчеркивает автор, своеобразием менталитета восточных народов, национальными обрядами, традициями нации. Общинность – историческая духовная ценность узбекского народа [4, С.326]. Этнолог А.Аширов связывает формиро-

вание общинности и патернализма как важных составляющих национального менталитета с социально-экономическими, географическими и климатическими факторами обитания [5, С.54].

Ученые неоднократно обращались к изучению политического сознания в развитых (Э.Я.Баталов, Ф.М.Бурлацкий, Г.И.Вайнштейн, К.С.Гаджиев, Ю.А.Замошкин и др.) и развивающихся странах (Б.С.Ерасов), изучали проблемы взаимодействия идеологии, информации и массового (в том числе политического) сознания (П.С.Гуревич) [9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16].

Теоретическая основа данного исследования базируется также на концепциях политической социализации, предложенных Г.Алмондом и С.Вербой [3], а также на исследованиях политической культуры и сознания молодежи, выполненных в разных странах. Важную роль играет теория информационного влияния медиа на формирование политических установок.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Для исследования использовались количественные и качественные методы. Проведен социологический опрос среди молодежи в возрасте от 14 до 30 лет в разных регионах Узбекистана. Кроме того, были проведены интервью с экспертами в области политологии и социологии. Полученные данные обработаны с использованием статистических методов анализа, а также специальных политических методов таких, как контент и ситуативный анализ, факториальный анализ. Были использованы, в том числе, эмпирические методы описание, анкетирование, математические методы сбора и обобщения информации.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

На политическое сознание молодежи Узбекистана влияют несколько ключевых факторов, среди которых наиболее значимыми являются уровень образования, доступ к информационным ресурсам, культурные и религиозные традиции, некоторые особенности менталитета.

1. Уровень образования. Результаты исследования показали, что молодежь с более высоким уровнем образования демонстрирует больший интерес к политическим вопросам и склонна к критическому восприятию политической информации. Студенты и выпускники вузов чаще проявляют активную гражданскую позицию и участвуют в политических дискуссиях, чем молодые люди с низким уровнем образования.

2. Доступ к информации. Важную роль в формировании политического сознания играет доступ к различным источникам информации. Молодежь, активно использующая интернет и социальные сети, имеет более разнообразные и, как правило, более критические взгляды на политические процессы. В то же время те, кто полагается преимущественно на традиционные СМИ (телевидение, радио), чаще придерживаются официальной точки зрения.

3. Культурные и религиозные традиции. Традиционные ценности и религиозные убеждения продолжают играть значительную роль в формировании политического сознания молодежи в Узбекистане. Молодые люди, воспитанные в семьях, где сильны традиционные исламские ценности, часто придерживаются консервативных политических взглядов и демонстрируют высокую степень уважения к действующим властям.

4. Особенности менталитета. Особенности национального менталитета узбекского народа являются общинность и патернализм.

Патернализм — система взаимоотношений, которая основана на покровительстве и опеке младших старшими, а также подчинении младших старшим. В то же время патернализм со стороны государства означает, на наш взгляд, идею или деятельность с позиции определенной “заботы” по отношению к слоям и группам, которые являются менее защищенными в социально-экономическом плане.

На первый взгляд, отношения власти и населения, государства и общества — это чистый патернализм. Но это не так просто. Патернализм, можно сказать, — это договор, то есть определенная забота со стороны власти в обмен на доверие. Наиболее сильно патернализм проявляет себя в Японии. Многие авторы связывают успехи японской экономики именно

с такой патерналистской системой отношений.

В рамках данной статьи мы провели также анализ изменения политического сознания человека в условиях демократизации. Так, в условиях тоталитаризма существовало чувство отчужденности человека от политической власти, в то время как во время демократизации пришло осознание того, что решение наиболее важных государственных вопросов зависит от голоса и волеизъявления каждого гражданина. Наличие цензуры, страх высказать свое мнение трансформировались в осознание человеком права свободы слова и мысли, возможности критики деятельности государственных органов. Незнание своих прав и свобод, неумение ими пользоваться в процессе демократического развития трансформировались в процессе демократизации, во-первых, в правовую грамотность населения, а во-вторых, в умение отстаивать и защищать свои права и свободы.

За годы независимости в Узбекистане произошла кардинальная трансформация массового сознания, особенно сознания молодежи. Если в социальной среде населения к молодежи относятся люди с 14 до 30 лет включительно [1], то сегодняшняя молодежь является “продуктом”, сформировавшимся за годы независимости. Для реализации го-

сударственной молодежной политики, Закона Республики Узбекистан “О государственной молодежной политике” (2016), необходимо еще глубже исследовать природу сознания и психологии молодежи для ее социальной и политической активизации, превращения в мощную авангардную социальную силу общества.

На торжественной церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан, на совместном заседании палат Олий Мажлиса Президент Шавкат Мирзиёев отметил: “Мы неуклонно и решительно продолжим государственную молодежную политику. И не только продолжим, но и поднимем ее на еще более высокий уровень в соответствии с требованиями сегодняшнего дня. Мы мобилизуем все силы и возможности нашего государства и общества для того, чтобы наша молодежь обладала самостоятельным мышлением, высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, ни в одной сфере не уступала бы сверстникам из других стран, была счастлива и уверена в своем будущем” [2, С.40].

Между менталитетом и политическим сознанием существует тесная взаимосвязь, их объединяет общность в мировосприятии и мироощущении, обусловленная этническим происхождением, культурной принадлежностью, уникальностью общественного развития.



С целью получения представления об уровнях влияния общинности и патернализма на формирование политического сознания, мы провели социологическое исследование. Выборочная совокупность составила 312 человек в возрасте от 18 до 30 лет. Изучалось мнение

студентов Ташкентского государственного педагогического университета с помощью анкеты, состоящей из ряда вопросов.

Респондентам был задан вопрос: “При принятии определенного решения советуется ли Вы с представителями старшего поколения?”.




Рис. 1. При принятии определенного решения советуется ли Вы с представителями старшего поколения?

Результаты опроса свидетельствуют о том, что очень большой процент респондентов принимает решения, предварительно посоветовавшись с представителями более старшего поколения. Это говорит о том, что в нашем обществе достаточно сильны патерналистские мотивы.

Влияние общинности на сознание молодого поколения можно проследить через следующий вопрос анкеты: “Важно ли для Вас мнение окружающих людей: родственников, друзей, членов коллектива?”.



Рис. 2. Важно ли для Вас мнение окружающих Вас людей: родственников, друзей, членов коллектива?



Результаты опроса свидетельствуют о том, что в нашем обществе ярко проявляется такая особенность национального менталитета как общинность. Для нас очень важно мнение родственников, друзей, коллектива.

Общинность и патернализм – характерные особенности нашего национального менталитета. Исследование данного феномена позволяет сделать вывод не об отказе от этих черт, а об их совершенствовании в соответствии с требованиями демократии, укреплении не вертикальных, а горизонтальных отношений между человеком и властью, обществом и государством как важном залого формирования поистине демократического государства и гражданского общества.

Общинность и патернализм не противостоят демократическим ценностям, они характеризуют исторические ценности восточных обществ, где уважительное отношение к старшим, к власти, государственной политике является важным залогом сохранения стабильности, социального согласия, толерантности, взаимного уважения в обществе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Исследование показало, что политическое сознание молодежи Узбекистана формируется под воздействием многих факторов, среди которых ключевыми являются уровень образования, доступ к информации, культурные

традиции, некоторые особенности национального менталитета. Для повышения уровня политического участия молодежи в стране необходимо уделять больше внимания гражданскому образованию, обеспечению доступа к независимым и разнообразным информационным ресурсам, а также поддержке инициатив молодежи в политической сфере.

Рекомендуются разработка и внедрение программ политического просвещения, которые будут учитывать культурные и религиозные особенности узбекистанского общества, а также создание платформ для активного вовлечения молодежи в политическую жизнь страны. Для дальнейшего развития политического сознания молодежи необходимо активизировать работу по гражданскому образованию, поддержке молодежных инициатив, а также развитию медиаграмотности и доступа к независимым источникам информации. Эти меры будут способствовать формированию более активного и информированного молодого поколения, способного принимать осознанное участие в политической жизни страны и влиять на ее будущее развитие.

Данная статья предоставляет основы для дальнейших исследований в области политического сознания молодежи в Узбекистане и может послужить основой для разработки стратегий, направленных на усиление политической активности молодого поколения в стране.

ЛИТЕРАТУРА

1. Закон Республики Узбекистан “О государственной молодежной политике”. – Ташкент, 2016. <https://lex.uz>.
2. Мирзиёев Ш.М. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. – Ташкент: Узбекистан, 2016. – С.40.
3. Almond G., & Verba, S. (1963). The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. Princeton University Press.
4. Аскарлов А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. – С.326.
5. Аширов А. Ўзбек миллий менталитети ҳақида баъзи мулоҳазалар. Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар этногенетик ва этник тарихи. – Тошкент: 2004. – С.54.
6. Inglehart R. (1997). Modernization and Postmodernization: Cultural, Economic, and Political Change in 43 Societies. Princeton University Press.
7. Putnam R. D. (2000). Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. Simon & Schuster.
8. Мамадалиев Ш. Халқ ҳокимияти. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2003.–С.24.
9. См.: Баталов Э.Я. Новый мировой порядок и политическая общность. – Москва: Наука, 1983.
10. См.: Баталов Э.Я. Политическая культура современного американского общества. – Москва: Наука, 1990;
11. См.: Бурлацкий Ф.М. Современный Левиафан: Очерки политической социологии капитализма / Ф.М.Бурлацкий, А.А.Галкин. – Москва: Мысль, 1985.
12. См.: Вайнштейн Г.И. Массовое сознание и социальный протест в условиях современного капитализма. – Москва: Мысль, 1990.
13. См.: Гаджиев К.С. Американская нация: национальное самосознание и культура. – Москва: Наука, 1990.
14. См.: Гуревич П.С. Буржуазная идеология и массовое сознание. Москва: Наука, 1980.
15. См.: Ерасов Б.С. Массовое сознание в развивающихся странах: содержание и динамика сдвигов. Журнал “Вопросы философии”, 1981. – №9.
16. См.: Замошкин Ю.А. Личность в современной Америке: Опыт анализа ценностных и политических ориентаций. - Москва: Мысль, 1980.
17. См.: Юсупова Э.Ф. Национальный менталитет и политическое сознание в контексте принятия Конституции Республики Узбекистан. Журнал “Проблемы современной науки и образования” - Россия, Иваново, 2017. - № 38.
18. См.: Eleonora Yusupova, Sayipjon Tilabaev. Historical Aspects of the Change Political Consciousness of Youth. Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3).

JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHGA QARATILGAN DAVLAT SIYOSATI SIYOSATSHUNOSLIK FANI OBYEKTI SIFATIDA

SARMONOV

*Toxir Gopirovich,
O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi kurs boshlig'i*

ANNOTATSIYA

Maqolada jinoyatchilikning oldini olish masalasi siyosatshunoslik fani nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining nazariy-metodologik asoslari, uning o'ziga xos xususiyatlari va amalga oshirish mexanizmlari yoritilgan. Muallif tomonidan jinoyatchilikning oldini olish tizimida davlat va nodavlat subyektlarining o'zaro hamkorligi masalalari, shuningdek, xalqaro tajriba tahlil qilingan. Maqolada jinoyatchilikning oldini olish borasidagi davlat siyosatining samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatchilikning oldini olish, davlat siyosati, siyosiy jarayon, ijtimoiy nazorat, huquqiy mexanizmlar, institutsional hamkorlik, preventiv choralar, ijtimoiy xavfsizlik.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется проблема профилактики преступности с точки зрения политологии. Освещены теоретико-методологические основы, особенности и механизмы реализации государственной политики в сфере противодействия преступности. Автором проанализированы вопросы взаимодействия государственных и негосударственных субъектов в системе профилактики преступности, а также международный опыт. В статье даны научно-практические рекомендации по повышению эффективности государственной политики по профилактике правонарушений.

Ключевые слова: предупреждение преступности, государственная политика, политический процесс, социальный контроль, правовые механизмы, институциональное сотрудничество, превентивные меры, социальное обеспечение.

ANNOTATION

The article analyzes the issue of crime prevention from the perspective of political science. The theoretical and methodological foundations of state policy in the field of combating crime, its specific features and implementation mechanisms are covered. The author analyzes the issues of interaction between state and non-state actors in the crime prevention system, as well as international experience. The article provides scientific and practical recommendations for improving the effectiveness of state policy in crime prevention.

Key words: crime prevention, state policy, political process, social control, legal mechanisms, institutional cooperation, preventive measures, social security.

KIRISH

Jinoyatchilikning oldini olish masalasi an'anaviy ravishda asosan huquqshunoslik fanlari doirasida o'rganib kelinmoqda. Ushbu soha mutaxassislari tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va muhim natijalarga erishilgan. Jinoyatchilikning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish, uning sabablari va oqibatlarini chuqur tahlil qilish borasida muhim ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bugungi kunda yangi yondashuvlarga bo'lgan ehtiyoj sezilmoqda.

Biroq zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, globallashuv sharoitida vujudga kelayotgan yangi tahdidlar bu masalaga kompleks yondashuvni talab etmoqda. Jinoyatchilik xarakterining o'zgarishi, uning yangi shakllarining paydo bo'lishi va tahdidlarning tobora murakkablashib borishi, an'anaviy yondashuvlarning chegaralangan samaradorligini ko'rsatmoqda. Zamonaviy jinoyatchilik faqat huquqiy doirada qaralsa, uni to'liq bartaraf etish qiyin ishga aylanib qolmoqda.

METODLAR

Tadqiqotchi G'.Dehqonov ta'kidlaganidek: "Xalqaro hayot bilan hamohang tarzda milliy xavfsizlik sohalari ham kengayib, ixtisoslashib bordi. Himoya qilinishi lozim bo'lgan xavfsizlik obyektlari – milliy manfaatlar – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalardagi xavfsizlik subyektlari manfaatlari hisobiga boyidi. Bunday tendensiya xavfsizlik hodisasini tizimli va kompleks ravishda tushunish va o'rganish ehtiyojini oshirdi. Milliy xavfsizlikning tarkibiy qismlarga "ajratilishi" mutaxassislar tomonidan globallashuvning zamonaviy tahdidlariga o'rinli javob sifatida baholanadi".

Professor I.Ismoilov bu masalaga to'xtalar ekan, xalqaro ilmiy jurnalda nashr etilgan maqolasida muhim fikrlarni ilgari suradi. Olimning ta'kidlashicha, mahalladagi jamoat tartibotini

ta'minlash va jinoyatchilikning oldini erta olish uchun "Farovon va xavfsiz qo'shnichilik" tamoyili asosidagi tizimni yanada tezlashtirish maqsadida, har bir mahalla ("mahallabay"), oila ("oilabay") va shaxs ("fuqarobay") darajasida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va bartaraf etish orqali jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari o'z joyida hal qilinadi"¹. Bu yondashuv, professorning fikricha, jamiyat xavfsizligini ta'minlashning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bunday tizimli yondashuv orqali nafaqat jinoyatchilikning oldini olish, balki mahalla institutining samaradorligini oshirish va jamiyat barqarorligini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi, deb yozadi olim o'z maqolasida.

Siyosiy ta'limotlar tarixida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan davlat siyosati haqidagi fundamental yondashuvlarni ko'rish mumkin. Bu masala azaldan davlatchilik rivojining muhim jihatlaridan biri sifatida qaralib kelingan. Bu borada Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiyning qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. IX–X asrlarda yashab ijod qilgan bu buyuk olim o'z davrining eng ilg'or fikrlarini ilgari surgan va davlat boshqaruvi masalalarida chuqur ilmiy meros qoldirgan. U o'zining mashhur "Fozil shahar" konsepsiyasida ideal davlat tuzilishi va boshqaruvi batafsil tavsiflab bergan. Bu konsepsiya nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, unda davlat boshqaruvinin muhim jihatlari yoritib berilgan. Forobiy davlat boshqaruvida adolat tamoyillariga alohida e'tibor qaratgan va bu orqali jamiyatda tartib-intizomni ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish mumkinligini ta'kidlagan. Uning fikricha, adolatli boshqaruv nafaqat jinoyatchilikni kamaytiradi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Alloma ideal davlat hokimi (davlat hokimiyati) uchun zarur bo'lgan sifatlarni sanab o'tgan, ularning ichida o'n birinchi sifat alohida ahamiyatga ega. Bu sifatlarni tizimi puxta o'ylangan bo'lib, har biri davlat boshqaruvinin muayyan jihatini qamrab oladi. Forobiy shunday yozadi: "(o'n birinchi), tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham

haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda, har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi zarur"². Bu talablar orqali Forobiy davlat rahbarining shaxsiy fazilatlarini va kasbiy sifatlari uyg'unligini ta'kidlamogda.

Qadimgi yunon faylasufi Aflotunning ta'limotida davlatning donoligi eydos (ezgulik) g'oyasini anglashga qaratilgan bo'lib, bu g'oya adolat va boshqa barcha fazilatlarining foydaliligi va maqsadga muvofiqligini belgilab beradi. Eydos tushunchasi Aflotun falsafasida markaziy o'rinni egallaydi va u moddiy dunyodan yuqori turuvchi g'oyalar olamining asosiy unsuri hisoblanadi. Aflotunning fikricha, davlat boshqaruvinin asosiy maqsadi jamiyatda ezgulik va adolatni qaror toptirishdan iborat bo'lishi kerak. Bu maqsadga erishish uchun davlat rahbarlari faylasuf bo'lishi, ya'ni ezgulik g'oyasini chuqur anglagan bo'lishi lozim³. Bu esa o'z navbatida jamiyatda tartib-intizom va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Faylasuf ta'kidlashicha, "umuman yashashga intilish emas, balki ezgu hayotga intilish muhimdir"⁴. Bu fikr inson hayotining sifat jihatiga urg'u beradi. Agar inson faqat yashashgagina intilsa, bu maqsadlarning buzilishiga olib keladi. Masalan, boylik orttirishga munosabatda bu holat uning o'zi maqsadga aylanishiga va oqibatda pul mablag'larini cheksiz ko'paytirishga intilishga olib keladi. Buning insonni ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashtiradi va uning shaxs sifatidagi kamolotiga to'sqinlik qiladi. Bunday holat jamiyatda turli salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Jumladan, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, ma'naviy qadriyatlarning qadrsizlanishi va jinoyatchilikning ortishiga olib kelishi mumkin.

Tomas Mor o'zining mashhur "Utopiya" asarida shunday yozadi: "Ularda qonunlar juda kam, chunki bunday tuzumda yashovchi odamlarga juda oz miqdordagi qonunlarning o'zi yetarlidir"⁵. T.Morning fikricha, agar jamiyat to'g'ri tuzilgan bo'lsa va odamlar yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lsalar, ularni boshqarish uchun ko'p qonunlar kerak bo'lmaydi. Chunki bunday jamiyatda odamlar o'z burchlarini chuqur anglagan holda, vijdon va adolat bilan

ish tutadilar. Mor tasvirlagan utopik jamiyatda odamlar o'rtasida tenglik hukm suradi, xususiyl mulk mavjud emas va barcha mehnat qilish orqali o'z ehtiyojlarini qondiradi.

Tommazo Kampanella ham o'z navbatida bu fikrni qo'llab-quvvatlab: "Ularning qonunlari kam sonli, qisqa va tushunarlidir"⁶, deb yozadi. Kampanellaning "Quyosh shahri" asarida tasvirlangan ideal jamiyatda qonunlar oddiy va hammaga tushunarli tilda yozilgan bo'lib, ularni amalga oshirishda hech qanday murakkabliklar yuzaga kelmaydi. Bunday qonunlar jamiyat a'zolarining huquq va burchlarini aniq belgilab beradi hamda ularning bajarilishini samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Morelli esa o'zining "Tabiat kodeksi yoki tabiat qonunlarining asl ruhi" nomli kitobidagi bo'limlardan biriga shunday sarlavha qo'yadi: "Jazo haqidagi qonunlar burch buzilishlari qanchalik kam bo'lsa, shunchalik kam sonlidir, qanchalik samarali bo'lsa, shunchalik yumshoqdir"⁷. Morelli fikricha, ideal jamiyatda odamlar o'z burchlarini vijdonan bajaradilar va shuning uchun ham huquqbuzarliklar juda kam uchraydi. Bunday sharoitda og'ir jazolar belgilashga zarurat qolmaydi, chunki yengil jazolarning o'zi yetarli darajada samarali bo'ladi.

XULOSALAR

Politologiya fani nuqtayi nazaridan jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan davlat siyosatini o'rganish, bir tomondan, mavjud institutsional mexanizmlarning samaradorligini baholash, ikkinchi tomondan esa, jamiyat xavfsizligini ta'minlashning yangi, innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bunday yondashuv orqali jinoyatchilikka qarshi kurashning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini chuqur tahlil qilish mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi siyosatini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash va strategik rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rinli savol tug'iladi – huquqshunoslikda "taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)"⁸, deya ta'riflanadigan

jinoyatchilik siyosiy fan nuqtayi nazaridan qanday tushunilishi lozim? Bu savol jinoyatchilik tushunchasining mohiyatini chuqurroq anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar bu masalani yanada dolzarb qilib qo'ymoqda.

Fikrimizcha, jinoyatchilikni muayyan vaqt davrida milliy qonunchilik tomonidan taqiqlangan deviant (g'ayriijtimoiy) hodisalar yig'indisi sifatida ta'riflash to'liq asosli hisoblanadi. Bunday yondashuv jinoyatchilikning huquqiy va ijtimoiy-siyosiy jihatlarini o'zida mujassam etadi. Bu ta'rif jinoyatchilikning ikki muhim jihatini – ham huquqiy, ham ijtimoiy tabiatini aks ettiradi va uning kompleks hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan davlat siyosatining konseptual asoslarini chuqur tahlil qilar ekanmiz, uning bir qator fundamental xususiyatlarini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi fundamental xususiyat – jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan davlat siyosati tizimli xarakterga ega. Mazkur tizim turli darajadagi institutsional subyektlarning muvofiqlashtirilgan faoliyatini o'zida mujassamlashtiradi va ularning samarali hamkorligini ta'minlaydi. Tizimning asosiy subyektlari qatoriga huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim-tarbiya muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan mahalla tizimi va nodavlat notijorat tashkilotlar kiradi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari, diniy tashkilotlar, xususiyl sektor vakillari ham bu tizimning muhim ishtirokchilari hisoblanadi. Har bir subyekt o'zining funksional vazifalari doirasida, ammo yagona strategik maqsad yo'lida faoliyat yuritadi. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bevosita preventiv chora-tadbirlarni amalga oshirsa, ta'lim muassasalari aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish orqali jinoyatchilikning oldini olish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Ikkinchi muhim xususiyat – jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan davlat siyosati prognostik va preventiv yo'nalganligidir. Bunda asosiy e'tibor potensial jinoiy xatti-harakatlarning oldini olishga qaratiladi. Bu jarayonda kriminogen

omillarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Davlat siyosatining bu yo'nalishi doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, ayniqsa yosh avlod bilan olib boriladigan maqsadli ishlar uzluksiz va tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy va huquqiy chora-tadbirlar majmuasi qo'llaniladi. Masalan, ishsizlikni kamaytirish, aholi farovonligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish kabi kompleks chora-tadbirlar orqali jinoyatchilikka turtki bo'luvchi omillarni bartaraf etish mumkin.

Uchinchi xususiyat – jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan davlat siyosatining muayyan maqsadga yo'nalganligi. "Jinoyatchilikni to'liq bartaraf etish" kabi noaniq yondashuvlardan farqli o'laroq, davlat siyosatining asosiy maqsadi jinoyatchilik darajasini jamiyat xavfsizligi uchun zarur darajaga qadar pasaytirishdan iborat. Mashhur fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko'ra, "jinoyatchilikning mavjudligi, agar u jamiyat uchun xos bo'lgan me'yoriy darajadan oshmasa, ijtimoiy normadir"⁹. Ushbu nazariya hozirga qadar amaliy tasdig'ini topmoqda va dunyoning ko'plab mamlakatlarida jinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyalarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Taniqli norvegiyalik kriminolog Nils Kristining ilmiy konsepsiyasiga muvofiq, davlat siyosatining strategik vazifasi "jinoyatchilikning maqbul darajasi"ni aniqlash va unga erishishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirish uchun jinoyatchilikning umumiy darajasini pasaytirish, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning oldini olish, kriminogen xavf guruhlarini aniqlash va ular bilan maqsadli profilaktik ishlarni olib borish talab etiladi¹⁰. Bunda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchi xususiyat – jinoyatchilik o'z mohiyatiga ko'ra huquqiy tushuncha bo'lganligi sababli, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan davlat siyosatini samarali amalga oshirish jinoyat va ma'muriy huquq sohasidagi qonunchilikni maqbullashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Bu borada rossiyalik mashhur olim Y.I.Gilinskiy tomonidan ilgari surilgan – "taqiqlar deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omil" ekanligi

haqidagi g'oya muhim metodologik asos vazifasini o'taydi. Shu nuqtayi nazardan, olimning fikricha, "taqiqlovchi va qattiq jazolovchi davlat siyosati liberal tamoyillarga asoslangan yondashuvga nisbatan kamroq samara berishini kuzatish mumkin"¹¹. Qonunchilikni maqbullashtirish jarayonida jinoiy va ma'muriy qonunchilikni zamon talablariga muvofiq-lashtirish, jamiyatdagi o'zgarishlarni inobatga olish, xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda asossiz taqiqlar va haddan tashqari qattiq jazo choralaridan voz kechish, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan qilmishlar uchun javobgarlikni yengillashtirish, jinoiy jazolarga muqobil choralarni kengaytirish, huquqbuzarlarni jamiyatga qaytarishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, jinoyat qonunchiligini liberallashtirish jarayoni jamiyat xavfsizligini ta'minlash maqsadlari bilan uyg'un holda amalga oshirilishi, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar, ayniqsa korrupsiya, terrorizm, uyushgan jinoyatchilik kabi ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan qilmishlarga nisbatan qat'iy yondashuv saqlanib qolishi lozim.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, "profilaktika", "ogohlantirish", "oldini olish" va "prevensiya" tushunchalari mazmun-mohiyati jihatidan bir-biriga yaqin bo'lib, ularni sinonim sifatida qo'llash mumkin. Buning asosiy sababi shundaki, jinoyatchilik profilaktikasi biz uchun, avvalo, davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida qiziqish uyg'otadi. Davlat siyosati nuqtayi nazaridan qaraganda, bu atamalarning barchasi jinoyatchilikning oldini oluvchi chora-tadbirlar tizimini anglatadi.

Jinoyatchilikning oldini olish masalasiga siyosatshunoslik nuqtayi nazaridan yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turli fanlar o'z metodologiyasi va yondashuvlariga tayangan holda bu masalani tadqiq etadi. Biroq siyosatshunoslik fani doirasida bu masala o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi, chunki u davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganiladi. Jinoyatchilikning oldini olish masalasi siyosatshunoslik fanining tadqiqot obyektiga aylanishi uchun u siyosiy jarayonlar hamda ijtimoiy, siyosiy xavfsizlik



nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi va turli davlat, nodavlat subyektlarning o'zaro munosabatlari bilan bog'liqlikda o'rganilishi lozim.

Shu o'rinda masalaning qator muhim siyosiy jihatlarni alohida ta'kidlash joiz. Birinchidan, jinoyatchilikning oldini olish masalasining siyosiy kun tartibiga kiritilishi va ilgari surilishi jarayoni, bu jarayonda turli siyosiy kuchlar, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirok etadi. Ikkinchidan, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha davlat siyosatining turli chora-tadbirlarini tanlash yoki rad etish borasidagi siyosiy kurash, bunda turli manfaatdor guruhlarining pozitsiyalari va ularning o'zaro ta'siri seziladi. Uchinchidan, ushbu siyosatni amalga oshirish va baholash mexanizmlari, shu jumladan monitoring tizimi va samaradorlik ko'rsatkichlarining ishlab chiqilishi talab etiladi. To'rtinchidan, mazkur siyosatni amalga oshiruvchi subyektlar o'rtasidagi institutsional aloqalar, ularning vakolatlari taqsimoti va hamkorlik mexanizmlari aniqlashtirilishi asosiy shart hisoblanadi.

Shuningdek, jinoyatchilikning oldini olish sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish jarayoni murakkab siyosiy-

huquqiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Bu mexanizmlar qonun ijodkorligi faoliyatidan tortib, ijro etuvchi hokimiyat organlarining amaliy faoliyatigacha bo'lgan keng qamrovli jarayonlarni qamrab oladi. Shu bilan birga, bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xalqaro tashkilotlarning ishtiroki ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur masalaning nafaqat milliy, balki xalqaro darajadagi siyosiy ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Bu masalalarning barchasi bevosita siyosatshunoslik fanining predmeti hisoblanadi. Chunki ular davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoni, turli manfaatdor guruhlarining o'zaro ta'siri va siyosiy institutlarning faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Jinoyatchilikning oldini olish sohasidagi davlat siyosatining samaradorligi ko'p jihatdan aynan shu siyosiy jarayonlarning qay darajada samarali tashkil etilganligiga bog'liq bo'ladi. Bunda siyosiy institutlarning faoliyati, ularning o'zaro muvofiqlashtirilgan harakatlari, qarorlar qabul qilish jarayonining shaffofligi va jamoatchilik nazorati mexanizmlarining samarali ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Dehqonov G'.Q. Xavfsizlik tadqiqotlarining o'ziga xos jihatlari // Academic Research in Educational Sciences. - 2022. - T. 3. - №11. - B. 67-73.
2. Ismailov I. Mahalla Law Enforcement Point (The Lowest Stage of Public Security System).// International Journal of Social Science Research and Review. Volume 5, Issue 4 April, 2022. P. 71-76
3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy / Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas'ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 245-b.
4. Платон. Государство // Платон. Собр. соч. : в 3 т. - Т. 3. – М. : Мысль, 1971. – 685 с.
5. Аристотель. Политика // Аристотель. Соч. : в 4 т. - Т. 4. – М. : Мысль, 1983. - С.53.
6. Мор Т. Утопия. – М. : Наука, 1978. - С. 237.
7. Кампанелла. Город Солнца / Пер. с лат. и ком. Ф.А.Петровского. Пер. прил. М.Л.Абрамсон, С.В.Шервинского и В.А.Ещина. Вст. ст. В.П.Волгина. — М.—Л. : АН СССР, 1954. - с. 89.
8. Морелли. Кодекс природы, или Истинный дух ее законов. – М. : Изд-во АН СССР, 1956. - С. 244.
9. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 14-modda. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. –Т.: “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi. 8-b.
10. Дюркгейм Э. Норма и патология /Э.Дюркгейм // Социология преступности / Пер. с франц. Е.А.Самарской; под ред. М.Н.Грецкого. – М.: Прогресс, 1966. – С.39-40.
11. Кристи Н. Борьба с преступностью как индустрия: Вперед, к ГУЛАГу западного образца? / Пер. с англ. А.Петрова, В.Пророковой. Ред. и автор примеч. Ю.Чижов. Предисл. Я.Гилинского. — 2-е изд. — М.: РОО Центр содействия реформе уголовного правосудия, 2001. — 224 с.
12. Гилинский Я.И. Запрет как криминогенный (девиантогенный) фактор // Девиантность, преступность и социальный контроль в «новом мире»: сб. статей /Я.И.Гилинский. – СПб.: Алеф-Пресс, 2012. – С.57.

JAMIYATDA GENDER TENGLIK SIYOSATI TA'MINLANISHINING MUHIM OMILLARI

OTAQULOV

*Shuhrat Murodullayevich,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori,
dotsent*

ANNOTATSIYA

Gender tenglik – bu erkaklar va xotin-qizlar o'rtasidagi huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosat. Bugungi kunda jahondagi ko'plab mamlakatlarda gender tenglik masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. O'zbekistonda ham gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosat amalga oshirilmoqda, ammo bu yo'lda bir qator muammolar mavjud. Ushbu maqolada O'zbekistonda gender tenglik siyosatiga amal qilishga ta'sir etuvchi omillar gender tenglikka oid tamoyillar hamda ularning O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, siyosiy jarayon, ijtimoiy-siyosiy omil, jamiyat, madaniyat, qadriyat, ta'lim, ijtimoiy rol.

АННОТАЦИЯ

Гендерная политика — деятельность, направленная на обеспечение правового, экономического и социального равенства между мужчинами и женщинами. Сегодня вопрос гендерного равенства приобретает все большее значение во многих странах мира. Узбекистан также реализует политику, направленную на продвижение гендерного равенства, но на этом пути возникает ряд проблем. В статье рассказывается о принципах гендерного равенства и их влиянии на общественно-политические процессы и соблюдение политики гендерного равенства в Узбекистане.

Ключевые слова: гендерное равенство, политические процессы, социально-политический фактор, общество, культура, ценности, образование, социальная роль.

ANNOTATION

Gender equality is a policy aimed at ensuring legal, economic and social equality between men and women. Today, the issue of gender equality is becoming increasingly important in many countries around the world. Uzbekistan is also implementing a policy aimed at promoting gender equality, but there are a number of problems along the way. This article discusses the principles of gender equality and their impact on socio-political processes in Uzbekistan, which affect the observance of gender equality policy in Uzbekistan.

Key words: gender equality, political process, socio-political factor, society, culture, values, education, social role.

O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan islohotlar va normativ-huquqiy hujjatlar yildan-yilga takomillashib bormoqda. Bu borada qabul qilingan "Gender tenglikni ta'minlashga oid strategiya" mamlakatdagi xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Mazkur strategiya xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish, ta'lim va sog'likni saqlash sohasida teng imkoniyatlar yaratish, boshqaruv sohalariga xotin-qizlarning jalb qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

Bugungi kunda gender tenglikni ta'minlashda bir qator ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar mavjud. Bu omillar orasida eng muhimi – xalqning an'anaviy dunyoqarashi va milliy mentalitet hisoblanadi. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi rollar aniq belgilab qo'yilgan. Milliy mentalitetning o'ziga xos qarashlari va tarixi ham gender tenglikka ta'sir qiladi.

Gender tenglikka amal qilishda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, iqtisodiy rivojlanish va ayollarning iqtisodiy faoliyatiga ko'proq imkoniyatlar yaratish jamiyatdagi gender tenglikning mustahkamlanishiga hissa qo'shadi. Xotin-qizlarning mehnat bozoridagi faoliyatini kengaytirish, ularni oilaviy va ijtimoiy ishlardagi rolini oshirish bilan birga, iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ko'plab xotin-qizlar iqtisodiy va ijtimoiy holatdan kelib chiqib, oilaviy vaziyatlarga bog'liq bo'lib qolmoqda. Xotin-qizlarning ta'lim olish va ish topish imkoniyatlari orqali ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, shuningdek, oilaviy va ijtimoiy faoliyatlarining samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy rivojlanish xotin-qizlarning faol ishtirokini va ularning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga yordam beradi. Agar ayollar mehnat bozorida erkin va teng shartlarda ishtirok etsa, bu mamlakatning iqtisodiy o'sishini rag'batlantiradi. Buning uchun davlat, ish beruvchilar va jamiyat tomonidan ayollarning

ishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish, ularni ta'lim va kasbiy malaka olish uchun shart-sharoitlar bilan ta'minlash zarur. Ta'lim olish xotin-qizlarga nafaqat shaxsiy rivojlanish uchun, balki iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, ayollar kasbiy malaka va tajribaga ega bo'lishi bilan birga, ularning ish topish imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Xotin-qizlar qulay ta'lim va kasbiy tajribaga ega bo'lsa, ular nafaqat oilaviy hayotdagi rolini bajaradi, balki o'zlarining iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatlarini rivojlantira oladilar.

Xotin-qizlar, ko'pincha, oilaviy va ijtimoiy ishlar bilan bog'liq bo'lib, bu ularning mehnat bozoridagi faoliyatiga turli cheklovlar o'rnatadi. Ammo agar ayollarga oilaviy vazifalarni bajarishda yordam beradigan shart-sharoitlar yaratilsa, bu ularning mehnat faoliyatiga ko'proq vaqt va energiya sarflash imkoniyatini yaratadi. Buning uchun jamiyatda ayollarga yosh bolalarni parvarish qilish, oilaviy ishlarni bajarishda teng imkoniyatlar yaratish orqali qo'llab-quvvatlash kabi mexanizmlar ishlab chiqish zarur.

Iqtisodiy mustaqillik xotin-qizlar uchun faqat qo'shimcha daromad manbayi bo'lib qolmay, balki ularning ijtimoiy mavqeyini va qadr-qimmatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ular iqtisodiy faoliyatga jalb etilgani sari, ularning ijtimoiy rollari ham o'zgarib boradi. Ayniqsa, iqtisodiy mustaqillik xotin-qizlarga o'z shaxsiy qarorlarini qabul qilishda, ularning ijtimoiy maqomini mustahkamlashda va jamiyatdagi gender tenglikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratish jamiyatdagi gender tenglikni mustahkamlashning muhim bosqichlaridan biridir.

Shuningdek, davlat siyosatining samaradorligi va iqtisodiy tizimning gender tenglikka nisbatan adolatlilikni ta'minlashga qaratilgan choralari muhim ahamiyatga ega. Har bir sohada gender tengligini ta'minlash va ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish davlatning ustuvor maqsadlaridan biri bo'lishi kerak¹.

O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashda madaniy va an'anaviy omillar ham aniq rol o'ynaydi. Har bir xalqning o'zining qadriyatlarini va

¹ "O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash: Xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli"

madaniyati bor. Madaniy va an'anaviy qadriyatlar, jamiyatdagi ayollarning ijtimoiy roli, ularning iqtisodiy va siyosiy huquqlari ko'p hollarda oshkora yoki norasmiy ravishda chegaralanishi mumkin. Bu omillar gender tenglikni ta'minlash yo'lidagi eng katta to'siqlardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonning shahar va qishloq aholisi o'rtasida ayollarning ijtimoiy roliga bo'lgan munosabatlarda katta farqlar mavjud. Shaharlarda ayollar ko'proq o'z huquqlarini ifodalash va turli sohalarida faol bo'lishga intilishadi, ammo qishloqlarda an'anaviy qarashlar va oilaviy qadriyatlar ko'proq hukmron. Masalan, qishloqlarda ayollar ko'proq oilaviy vazifalarga ega bo'lishadi va ko'p hollarda o'zlarining iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatlarini mahalliy an'analarga moslashtirishga majbur bo'ladilar. Bu holat gender tenglikning rivojlanishini aniq cheklaydi.

Mazkur an'anaviy madaniyat ayollarni ko'proq oilaviy vazifalarga bag'ishlaydi. Bu, o'z navbatida, ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatidan to'liq foydalanishlariga to'sqinlik qiladi. Erkaklar oiladagi qarorlarni qabul qilishda asosiy rol o'ynaydi va ayollar bu qarorlarga muvofiqlashadi. Jamiyatda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan hukumat siyosati bor, lekin bu siyosatning amalga oshirilishida jamiyatdagi an'anaviy qarashlar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, davlat va nodavlat tashkilotlari gender tenglik siyosatiga amal qilishda, jamiyatni ma'rifiylashtirishga, ayollarning haq-huquqlarini himoya qilishga va gender tenglikning ahamiyatini tushuntirishga e'tibor qaratishlari muhimdir.

Ma'rifiy tadbirlar, treninglar va ma'lumot berish ishlari jamiyatdagi an'anaviy qarashlarga qarshi kurashishda katta ahamiyatga ega. Bu tadbirlar ayollar va erkaklarning huquqlari, gender tenglikning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, gender tenglik va inson huquqlariga oid tafakkurni shakllantirish, ko'p yillardan beri shakllangan qarashlarni o'zgartirish uchun muhimdir².

Media va axborot sohasidagi ma'lumotlar gender tenglik siyosatini amalga oshirishda

muhim rol o'ynaydi, jamiyatdagi gender munosabatlarini shakllantirish va ularni o'zgartirish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Televizor, radio, internet, gazeta, jurnallar va boshqa axborot manbalarining barchasi jamiyatga ta'sir o'tkazuvchi omillar hisoblanadi. Ushbu media vositalar orqali to'g'ri axborot tarqatilishi, gender tenglik muammolariga e'tibor qaratilishini ta'minlash mumkin.

Media orqali ayollar va erkaklar haqida shakllangan tasavvurlar, ularning ijtimoiy roli haqidagi qarashlar shakllantiriladi. To'g'ri, ochiq va obyektiv tasavvurlar ayollar va erkaklar o'rtasidagi barqaror va adolatli munosabatlarni yaratishga yordam beradi. Ammo ko'p hollarda ayollar media mahsulotlarida so'zsiz va ijtimoiy rollari cheklangan holda taqdim etiladi. Masalan, ayollar ko'pincha uydagi ishlar, bola tarbiyalash yoki estetik qiyofaga ega bo'lish bilan tasvirlanadi. Bunday tasvirlar xotin-qizlarning qo'llab-quvvatlashga muhtojligini va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ishtirokini kamsitadi. Shuningdek, bu kamsitish usullari o'z navbatida jamiyatdagi gender stereotiplarining saqlanishiga sabab bo'ladi.

Media orqali ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy rollarini ko'rsatish, ularning muvaffaqiyatlari va yutuqlari haqida xabardorlikni oshirish jamiyatdagi gender stereotiplarni yo'qotishga va gender tenglikka erishishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ayollarning rahbarlik, siyosiy, iqtisodiy faoliyat va ilmiy sohalaridagi ishtirokini yoritish ularning rivojlanishga qaratilgan imkoniyatlarini ko'rsatishga yordam beradi.

Gender tenglikka oid axborotni to'g'ri va shaffof tarqatish, gender masalalarini yoritishda hamisha manfaatli bo'lishi kerak. Ommaviy axborot vositalarda ayollar va erkaklar orasidagi adolatli munosabatlarni, ularning hayotiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini himoya qilishning muhimligini ta'kidlash orqali jamiyatdagi axborot siyosatiga amal qilish mumkin. Shu bilan birga, gender tenglikni taqdim etgan kontentlarni yaratish va targ'ib qilish, nafaqat ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy roliga ta'sir o'tkazadi, balki erkaklarning ham har qanday gender stereotiplaridan ozod bo'lishiga yordam beradi.

Gender tenglikka amal qilishda ta'lim sohasi ham muhim omil hisoblanadi, chunki

² The role of gender values in the socialization of the individual. European Journal of Molecular and Clinical Medicine

u jamiyatdagi har bir insonning huquqlarini tushunish va ularni himoya qilishga yo'naltirilgan harakatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Ta'lim va ma'rifat, aynan, gender tenglikni ta'minlash va ayollar bilan erkaklar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni yo'qotishga yo'naltirilgan muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Agar jamiyat xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlari haqida bilimga ega bo'lsa, ular o'zlarining huquqlarini talab qilishda va gender tenglikni ta'minlashda faol va samarali ishtirok etishadi.

Ta'lim tizimida gender tenglikka oid o'quv dasturlari va seminar-treninglarni tashkil etish har bir insonning erkinlik va huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish uchun muhim hisoblanadi. Bu o'quv dasturlarida xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi faqat biologik farqlar emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rollar ham batafsil yoritilishi kerak. Ta'limda gender tenglikka oid maxsus modullar, treninglar va seminarlar tashkil qilish, umumiy ta'lim tizimida gender tenglik bo'yicha adabiyotlar mavjudligini ta'minlash yoki fanlarning har biriga gender tenglikka asoslangan ma'lumotlarni kiritish, yoshlar orasida tenglikni targ'ib qilish imkonini yaratadi³.

Qizlar va o'g'il bolalar uchun teng shart-sharoitlarni yaratish bu faqat ta'lim tizimining o'ziga xos vazifasi bo'lmay, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ham zarurdir. Ayniqsa, qizlarning ta'limiga e'tibor qaratilsa, bu ularning jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy ishtirokini oshirishga, o'z huquqlarini anglashga va ularni himoya qilishga yordam beradi. Shu o'rinda davlatimiz rahbarining "Agar bitta qiz farzandni o'qitsak, butun jamiyatni o'qitgan bo'lamiz" degan fikrlarini keltirish o'rinlidir. Qizlar uchun har tomonlama ravnaq topish va ularni barcha sohalarda teng imkoniyatlar bilan ta'minlash bugungi kunning muhim talablaridan biridir.

Har bir jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun yoshlarning gender tenglik bo'yicha to'g'ri va samarali ta'lim olishi muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat qizlar va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, balki erkaklar va o'g'il bolalarni ham

tenglik va hurmatga asoslangan munosabatlarga targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Ta'lim sohasida ham gender tengligini ta'minlashga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish, xotin-qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning oliy ta'limdagi ishtirokini rag'batlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bu maqsadda O'zbekistonda xotin-qizlar uchun oliy ta'lim muassasalarida maxsus grantlar tashkil etilgan. Shuningdek, ayollar uchun kasb-hunar ta'limi va malaka oshirish imkoniyatlari ham kengaytirilgan.

O'zbekistonning xalqaro maydondagi gender tenglik siyosati ham ahamiyatlidir. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining gender tenglikka oid turli ko'rsatmalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan tashabbuslarga a'zo bo'lib, xalqaro standartlar va qonunlarga muvofiq tartibda qonunlar qabul qilishda ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda gender tenglik masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jashon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST), BMT ayollar dasturi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik samarali yo'lga qo'yilgan.

Gender tengligini ta'minlash uchun turli ijtimoiy kompaniyalar ham muhim omil sanaladi. O'zbekistonda gender tenglik masalalari bo'yicha tadbirlar, ko'rgazmalar, seminarlar tashkil etish orqali keng jamoatchilik o'rtasida bunday masalalarga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishga qaratilgan ishlar ko'lamini yanada rivojlantirish zarur. Bu kabi tadbirlar jamiyatdagi genderni o'zgarishga olib keladigan stereotiplar va salbiy qarashlarning kamayishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash jarayonida, bir qator ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Bu omillar jamiyatning an'anaviy qadriyatlari, din, ta'lim, iqtisodiy sharoitlar va davlat siyosatining ta'sirida shakllanadi. O'zbekistonning ko'pgina mintaqalarida, ayollar va erkaklar o'rtasidagi rollar yaqqol ajratilgan⁴. Jamiyat va oiladagi rollarning aniq belgilanishi, ko'pincha ayollarga faqat oila ishi va bolalarni tarbiyalash vazifalarini berib qo'yadi. Bu esa ayollarning jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy hayotga faol ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi.

³ "Gender Equality in Education: A Global Perspective" – Ta'limda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha xalqaro tajriba va strategiyalar.

⁴ "Islomda gender masalalarining o'ziga xos tamoyillari"

An'anaviy dunyoqarashning bir qismi, ayollar va erkaklarning tabiiy farqlariga asoslangan, shuning uchun ayollar faqat oilaviy masalalarga aloqador bo'lishi, erkaklar esa ish va xo'jalik ishlariga mas'ul bo'lishi kerak deb hisoblanadi. Bu qarashlar gender tenglikka jiddiy to'sqinlik qiladi.

O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha davlat tomonidan olib borilayotgan islohot va dasturlar, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega. Jumladan, xotin-qizlarni turli xil tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan qonunlar, gender tenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlar jamiyatda ayollarning huquqlari va imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan.

Shuningdek, ayollar uchun tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va ularning ishbilarmonlik faoliyatini rag'batlantirish uchun davlat tomonidan turli xil grantlar va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Xulosa o'rnida O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashning ilg'or yo'nalishlari, jamiyatning an'anaviy dunyoqarashi va diniy qadriyatlarning ta'siri, ta'lim, iqtisodiy imkoniyatlar va davlat siyosatining birgalikdagi ta'siriga bog'liq. Gender tenglikni ta'minlash uchun davlat, jamiyat va har bir shaxsning o'рни muhim. Bu jarayonda ayollarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish uchun ko'plab

tadbirlar va siyosiy dasturlar tizimli davom ettirilishi zarur.

O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, qabul qilingan qonunlar va strategik dasturlar mamlakatdagi xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashga qaratilgan muhim qadamlardir. Ushbu harakatlar kelajakda xotin-qizlarning faolligini va jamiyatdagi o'rnini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosatga amal qilishga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar huquqiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sohalaridagi o'zgarishlarga bog'liq. Gender tenglikni ta'minlash va uni hayotga tatbiq etish uchun jamiyatning barcha qatlamlarida xabardorlikni oshirish, an'anaviy qarashlardan voz kechish va xotin-qizlarning ijtimoiy roliga oid ta'lim berish muhim ahamiyatga ega. Gender tenglik siyosatini samarali amalga oshirish uchun ushbu omillarni kompleks ishlash mexanizmlari orqali rivojlantirish zarur.

Buning uchun jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam ravishda olib borish va yoshlar o'rtasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhimdir. Bu yo'ldagi harakatlar, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlaydi va barcha sohalarida tenglikni amalga oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. "O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash: Xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli". T. Narbayeva, O. Musurmanova va Z. Ismailova. (2023)
2. Otaqulov Sh., M. Xaitov. E. B., "The role of gender values in the socialization of the individual". European Journal of Molecular and Clinical Medicine, 7(7), 1047-1057. (2020).
3. "Gender Equality in Education: A Global Perspective" – Ta'limda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha xalqaro tajriba va strategiyalar.
4. Yusupova N., Mamadiyev B., Haydarov M. Islomda gender tenglikning o'ziga xos tamoyillari (2022).

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SIYOSIY PARTIYALARNING YANGICHA FAOLIYATI HAMDA DERNIZATSIYALASHGAN MAQSAD VA VAZIFALARI

RAXIMOVA

*Sevara G'ayratovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti "Ijtimoiy fanlar"
kafedrası o'qituvchisi,*

SHOKIROVA

*Mubina Nabijon qizi,
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti Siyosatshunoslik
yo'nalishi 2-kurs talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola mamlakatimizdagi siyosiy partiyalarning tashkil topishi, istiqlol yillari-dagi sa'y-harakatlari, yangi O'zbekiston sharoitiga moslashuvi hamda ularning modernizatsiyalashgan maqsad va vazifalari atroficha tahlil qilingan. Shuningdek, siyosiy partiyalarning inklyuziv siyosiy fuqarolik jamiyati qurish borasidagi taklif va tavsiyalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: siyosiy partiya, O'zLDep, "Adolat" partiyasi, Yangi O'zbekiston, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy davlat, "Milliy tiklanish" partiyasi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi, XDP, parlament.

АННОТАЦИЯ

В статье дан подробный анализ формирования политических партий в нашей стране, их деятельности в годы независимости и адаптации к условиям Нового Узбекистана, а также их модернизированных целей и задач. Кроме того, высказаны предложения и рекомендации политических партий относительно построения инклюзивного политического гражданского общества.

Ключевые слова: политическая партия, УзЛиДеп, партия "Адолат", Новый Узбекистан, гражданское общество, социальное государство, партия "Национальное возрождение", Законодательная палата Олий Мажлиса, Экологическая партия, НДП, парламент.

ANNOTATION

This article provides a detailed analysis of the formation of political parties in our country, their efforts in the years of independence, and their adaptation to the conditions of New Uzbekistan today, as well as their newly modernized goals and tasks. In addition, proposals and recommendations of political parties regarding the construction of an inclusive political civil society were made.

Key words: Political party, UzLiDep, "Adolat" party, New Uzbekistan, civil society, social state, "National Revival" party, Oliy Majlis Legislative Chamber, "Ecological" party, PDP, parliament.

Kirish. Tan olish kerak, biz bugun tolerantlik mavjud bo'lgan demokratik jamiyat qurishni, nafaqat iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanayotgan, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishishni ko'zlagan, umumiy olganda to'laqonli inklyuziv siyosiy tizimga ega bo'lgan davlat barpo etishni maqsad qilmoqdamiz. Chunki, har qanday adolatli siyosiy tizim asosida boshqarilayotgan davlat jahon miqyosida ham o'z o'rnini egallashi ma'lum. Mana shunday siyosiy tizimning tashkil topishi hamda yangicha demokratik g'oyalar asosida jamiyat va davlat rivojlanishida, shubhasiz, xalq vakillari, qonun yaratuvchilar – deputatlar muhim o'rin tutadi. Deputatlarning faoliyati esa nodavlat va notijorat tashkilotlar hisoblangan siyosiy partiyalar bilan chambarchas bog'liq. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va faoliyati mamlakat hayotida sodir bo'layotgan yangilanish va o'zgarishlar jarayoni, turli ijtimoiy qatlam va guruhlarining xohish-irodasi, intilishlaridan kelib chiqqan. Bugungi kunda ham partiyalar o'zining ahamiyatini saqlab qolgan holda aniq g'oyalarning tarafdori, muayyan guruhlarining manfaatlarini aniq tasavvur qiladigan, shu qarashlarni oldinga sura oladigan, himoya qiladigan va hayotga tatbiq etish uchun kurashadigan kuch sifatida maydonga chiqadi. Siyosiy partiyalarning bevosita hokimiyatni, vakillik organlari tarkibini shakllantirishda ishtirokini hisobga oladigan bo'lsak, davlatimiz va jamiyatimiz taqdiriga tegishli har qanday qonunlarni ishlab chiqishda ular bosh aktorlar hisoblanadi.

Bejiz, mustaqilligimizning dastlabki yillarida davlat rahbarimiz "Biz adolatli, demokratik jamiyat qurmoqchi ekanmiz, bir haqiqatni aslo yoddan chiqarmaylik: tepadan turib, maxsus farmon yoki dekret bilan jamiyatda adolat o'rnatib bo'lmaydi. Bu barchaning birdek ishtiroki, birinchi navbatda peshqadam ziyolilarimiz, turli siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari namoyandalarining, mas'ul xizmatchilarimizning

g'ayrati, jasorati, aql-zakovati bilan ro'yobga chiqadigan murakkab ishdur" deb ta'kidlamadi [1:244]. Shuning uchun ham, yangi O'zbekistondagi siyosiy partiyalarning bugungi kundagi yangicha faoliyati va rivojlanish strategiyasini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolada siyosiy fanlar doktori Rustam Jumayevning "Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo'lida" asari, siyosiy ekspert Qodir Jo'rayevning "O'zbekiston Respublikasi va jahon hamjamiyati" asari, va shuningdek, Sh.Fayziyev mas'ul muharrirligida nashr etilgan "Siyosiy partiyalar mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida" nomli o'quv qo'llanmasi va boshqa asarlardan foydalanilgan. Ushbu maqolada yuqorida keltirilgan asarlar mualliflarining siyosiy partiyalarning ahamiyati, ularning jamiyat manfaatlariga bo'ysungan holda ish yuritishi va milliy qonunchiligimizni yanada ratsionallashtirish lozimligi to'g'risida fikrlari bayon etilgan.

Tahlil va natijalar. Tarixdan bizga ayonki, G'arbda, ya'ni Angliyada sanoat inqilobining va Yevropada burjua inqilobining ro'y berishi natijasida fuqarolik jamiyati tushunchasi shakllandi. Shundan so'ng esa o'z-o'zidan monarxiya, cherkov va yakka qirollik hokimiyatiga qarshi bo'lgan turli xil ijtimoiy guruhlarining o'zining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini talab qilish, davlat boshqaruv tizimiga nisbatan toqatsizlik kabi harakatlari jamiyatda keng tus ola boshladi. Shu tariqa ma'lum bir guruh yoki qatlamga tayangan holda, davlat va umummillat manfaatlari bilan uyg'un faoliyat ko'rsatadigan, rivojlanishning siyosiy yo'nalishlariga ta'sir ko'rsata oladigan siyosiy tashkilotlar – siyosiy partiyalar tashkil topa boshladi. O'rta Osiyoda esa XX asr boshlariga kelib jadidchilik harakati tufayli "Turon", "Ittihodi taraqqiy", "Birlik", "Sharq ozodligi", "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar", "Muftaq ul-maorif va boshqa ko'plab ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan [2:110]. Ammo Sobiq Ittifoqi davrida barcha siyosiy partiyalar barham topdi va faqat yakka partiya hukm surdi. Bu esa mamlakatimiz fuqarolarining boshqacha qarash, g'oya va maqsadlari bo'lishi mumkin emasligini ta'minlagan mustamlakachilik siyosati edi.

Istiqlol sharofati bilan O'zbekistonda siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi roli va ahamiyatini tubdan kuchaytirish bo'yicha izchil, bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirildi. Chunki, jahon tajribasi ko'rsatganidek, har bir mustaqil davlat uchun markaziy va mahalliy hukumatlar o'rtasidagi hayotiy muhim munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizm zarur. Siyosiy partiyalar mavjudligi esa markaz va mahalliy hukumatlar manfaatlarining optimal birligini ta'minlovchi yagona vosita hisoblanadi. Shuningdek, ushbu islohotlarning natijasida bugungi kunda mamlakatimizda haqiqiy ko'ppartiyaviylik tizimi vujudga keldi. Ushbu sohadagi islohotlarni mustaqillik davridagi tarixiy rivojlanishdan kelib chiqib, ikki bosqichga ajratish mumkin. Xususan, dastlabki bosqich – 1991–2000-yillar. Mazkur bosqichda amalga oshirilgan islohotlarning huquqiy negizini tashkil qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlar sifatida “O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida”gi (1991), “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi (1993), “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida”gi (1994), “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi (1996), “Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida”gi (1999) qonunlar qabul qilindi [3:4].

Ushbu qonun va hujjatlar asosida O'zbekiston Respublikasi o'zining demokratik siyosiy tizim boshqaruvini huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'ydi. Buning isboti o'laroq, O'zbekiston Respublikasi mustaqillik tufayli o'ziga xos siyosiy tizim – ko'ppartiyaviylik yo'lini tanladi, bugungi kunda ushbu tanlangan yo'l mamlakatimizda demokratik jarayonlarning rivojlanishi va huquqiy asoslar kengayib borishini ta'minlab kelmoqda. Birinchi Prezidentimiz ham bejiz, “Demokratiyaning zaruriy sharti ko'ppartiyaviylik nuhitini vujudga keltirishni taqazo etadi. Amaldagi ko'ppartiyaviylik – bu har xil qarash va g'oyalar o'rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydoni demakdir” deb so'z yuritmagan [4:496].

Shu tariqa fuqarolik jamiyati institutlari hisoblangan siyosiy partiyalar bosqichma-bosqich tashkil topa boshladi. Xususan, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (1991-yil), O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (1995-

yil), O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (1995-yil), O'zbekiston “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi (1998-yil) tashkil topdi. Konstitutsiyada jamiyatimizda ko'ppartiyaviylik tizimini shakllantirishning huquqiy asoslari yaratildi. 1994, 1999-yillardagi Oliy Majlis va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar ko'ppartiyaviylik asosida o'tishi bilan ajralib turadi. Shuni ta'kidlash lozimki, keyingi yillar mobaynida O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi ham o'zining faoliyatini boshladi (2003-yil). Shuningdek, 2008-yil 20-iyunda “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasining birlashuvi qurultoyi qarori bilan yangi – O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi tuzildi. Mazkur partiyalar tomonidan so'nggi yillardagi o'z faoliyatini keng tahlil qilish va ushbu ikkala partiyaning ham maqsad va g'oyalari o'zaro yaqinligi sababli ushbu birlashuv yuz berdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur siyosiy partiyalar o'zining g'oya va maqsadlari yo'lida jamiyatdagi ma'lum bir qatlamlarning manfaatlarini himoya qilmoqda. Quyida mamlakatimizdagi partiyalar faoliyatining ilk yillaridan to hozirga qadar amalga oshirayotgan maqsad va strategiyalari ko'lamini tahlil qilamiz.

Mustaqilligimizning ilk yillaridayoq tashkil topgan Xalq demokratik partiyasi O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga va himoyaga muhtoj fuqarolari manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida tashkil topgan partiya hisoblanadi. Partiya ushbu ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga asosan pedagoglar, vrachlar, boshqa ijtimoiy sohalarning xodimlari va mutaxassislari, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar, pensionerlar hamda imkoniyatlari cheklangan kishilarni kiritadi [5:56]. Hozirgi kunda ushbu partiya o'z faoliyati davomida ijtimoiy sohada ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslarning talab va ehtiyojlari, qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash hamda qurilish sohasida samarali nazoratni ta'minlash, aholiga sifatli kommunal xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, sport va madaniyatni

qo'llab-quvvatlash va ommalashtirish kabi ishlarni amalga oshirishda qonun loyihalari bilan chiqmoqda. Xalq demokratik partiyasining mustaqillik yillaridagi O'zbekistonda va hozirgi Yangi O'zbekiston davridagi faoliyatini taqqoslaydigan bo'lsak, ushbu partiya o'zining yangi va optimallashtirilgan shaklga kelganini ko'rishimiz mumkin. Shu narsa ayonki, Xalq demokratik partiyasining shakllanishini muvofiqlashtirgan asosiy omillarni partiyaning sinalgan tashkilot tuzilmasi va funksional o'ziga xosligi bilan izohlash mumkin. Mazkur partiya o'z davrida boshqaruv ko'nikmalarida o'rta va yuqori bo'g'indagi a'zolarining aqliy potentsialiga va o'zining moddiy bazasiga katta e'tibor qaratdi. 1991–1992-yillarda yuz bergan a'zolarining partiyadan boshqa guruhlarga o'qish holati ham unga salbiy ta'sir ko'rsata olmadi [6:36]. Aksincha, yirik tadbirkorlar, fermerlar, shu bilan birga faol, mehnatsevar yoshlarning katta qismini o'z ichiga olgan Xalq demokratik partiyasi parlament fraksiyasining tayanch nuqtasiga aylangandi. Shu o'rinda partiyaning yutuqlaridan yana biri shundaki, mustahkam intizom, moddiy va information asosga ega bo'lgan holda partiya asosiy shiddatini quyi qatlamlarga – boshlang'ich tashkilotlarga, xususan mahallalar faoliyatiga qaratgani edi. Ushbu harakat va faoliyatlarning barchasi partiyaning bugungi kundagi olib borayotgan siyosatida kuchli tajriba va ko'nikma bo'lib xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik jarayonlar saylov tizimi o'zgarishiga sabab bo'ldi. Xususan, 2024-yil 17-oktabr kuni mamlakatimizda yirik siyosiy tadbir – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar, tuman va shahar kengashlariga saylov bo'lib o'tdi. Davlatimiz tarixida birinchi marotaba aralash saylov tizimi asosida o'tgan parlament saylovlari xalqaro hamjamiyat tomonidan ham katta qiziqish bilan qarshi olindi. Ushbu saylov natijalariga ko'ra, XDP yagona saylov okrugi bo'yicha 2 558 015 ta yoqlab berilgan ovozlardan kelib chiqib Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 12 ta deputatlik o'rniga ega bo'ldi.

Ushbu Yangi O'zbekistondagi yangicha parlament ruhiga tayanib keyingi davrda

siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari tomonidan hududlarda aniq masala va yo'nalishlar bo'yicha o'rganishlar o'tkazish amaliyoti tatbiq etildi. Zero, Prezidentimiz qayd etganidek, "Har qanday siyosiy partiya zamon bilan hamnafas bo'lib, uning o'tkir talablariga javob bergan taqdirdagina siyosiy kuch sifatida yashay oladi" [7]. Ushbu yangicha tizim yuritilar ekan, Xalq demokratik partiyasi ham 2021–2024-yillar davomida ko'plab qonun loyihalari, Davlat dasturlari bajarilishi yuzasidan va, shuningdek, budget taqsimlash jarayonlarida muhim va samarali taklif va qarorlar qabul qilinishida faol ishtirok etdi. Hozir ham Xalq demokratik partiyasi Yangi O'zbekistonning yangi Parlamenti tizimiga moslashib, maqsad va vazifalarini mas'uliyat bilan bajarishga harakat qilmoqda.

Mamlakatimizda eng birinchi sotsial-demokratik partiya hisoblangan, asosiy maqsadlari kuchli ijtimoiy-huquqiy davlat barpo etish, adolatli fuqarolik jamiyatini tashkil etishdan iborat bo'lgan "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi 1995-yil 18-fevralda tashkil topgan. Partiyaning ilk tarkibi o'sha davrlarda turli xil toifalardagi ilmiy va texnik soha ziyolilari hamda o'rta rahbar xodimlardan iborat edi. Ushbu partiyaning siyosiy va ijtimoiy maydondagi ilk maqsad va vazifalari ijtimoiy adolat tamoyili qaror topishi uchun kurashga, ijtimoiy har qanday sodda johillikning ibtidoiy usuliga qarshi harakat qilishga intilishdan iborat edi [8:38].

Bora-bora sotsial-demokratik partiya o'zining maqsad va vazifalarini kengaytirib, zamon talablariga hamda xorijiy tajribalarga tayangan holda takomillashtirib bordi. Partiyaning g'oyaviy negizini sotsial-demokratiyaning 3 asosiy prinsipi: siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy adolat tashkil etdi. Qonun ustuvorligini ta'minlovchi adolatli ijtimoiy munosabatlar o'rnatilgandagina odil jamiyat qurish mumkin bo'ladi. "Adolat" partiyasi ushbu yo'nalishdagi ishlarni bajarishni o'zining asosiy vazifasi deb hisoblaydi. Partiya elektoratining asosiy qismi bo'lgan ijtimoiy soha vakillarining ijtimoiy irodasini namoyon etishga intiladi, huquq va manfaatlarini himoya qiladi, g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, mehnat va barqaror hayot muhofazasini ta'minlaydi. Mazkur partiya yuqoridagi sanab o'tilgan prinsip va qoidalarga amal qilar ekan,

Yangi O'zbekiston siyosatiga mutanosib ish yurtib kelmoqda. Partiya bu borada bir qator loyiha va tashabbuslarni o'tkazib kelmoqda. Xususan, "Adolat" SDP tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilgari surilgan g'oyalar doirasida umumta'lim maktablari (shuningdek, ixtisoslashtirilgan, maxsus maktablar) o'quvchilari ongiga korrupsiyaning jamiyat rivojiga salbiy ta'sirini sodda va tushunarli qilib yetkazish hamda ularning huquqiy bilimlarini o'stirish, korrupsiyaga qarshi nafrat tuyg'usini uyg'otish maqsadida "Korrupsiya – yoshlar tasavvurida!" insholar tanlovi o'tkazdi. Unda respublika bo'yicha 8642 ta umumta'lim maktabidan 445 mingdan ortiq o'quvchi ishtirok etdi. Bundan tashqari, "Adolatli jamiyat olimlarga tayanadi" – ilmiy faoliyati afzalliklarini yoshlarga yetkazish va ularni ilmiy izlanishlarga yo'naltirish, ilmiy izlanish olib borayotgan olimlar va iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yosh izlanuvchilarni yetuk olimlar atrofiga birlashtirish, mamlakatimiz ilm-fanining xalqaro miqyosdagi o'rnini mustahkamlash bo'yicha mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash va takliflar tayyorlash, izlanuvchi olimlarning yagona elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirishga ko'maklashish partiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Shuningdek, "Bir adolatchi – yuz ayolga himoyachi" – xotin-qizlarni turli xil tazyiq va zo'rvonliklardan himoyalash masalalari, gender tengligiga oid tegishli mavzularda "Ayollarni zo'rvonlikdan asraylik", "Yangi O'zbekistonda gender tengligi masalalarida yangicha yondashuv", "Ayol borki, olam munavvar", "Sizga ehtirom, aziz ayollar" mavzularida o'rganishlar, teleko'rsatuvlar, davra suhbatalari va boshqa turkum tadbirlar amalga oshirildi [9].

Ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston "Adolat" SDP hozir o'z taraqqiyotining yangi sifat bosqichida turibdi. Bu partiya saflarining mintaqalardagi sonining ortishi va tashkiliy mustahkamlanishida namoyon bo'lmoqda. Yangi aralash saylov tizimida "Adolat" SDP yagona saylov okrugi bo'yicha 2 420 857 ta yoqlab berilgan ovozlar sonidan kelib chiqib Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 12 ta deputatlik o'ringa ega bo'ldi.

Ma'rifiy partiya deb atash mumkin bo'lgan partiya, ya'ni "Milliy tiklanish" partiyasining 1995-yil 25-mayda I ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. "Milliy tiklanish" partiyasi "Fidokorlar" partiyasi bilan 2008-yilda birlashib, o'z qamrovini kengaytirdi. Mazkur partiya tashkil topgan ilk yillarida harakat va shakllanishlar jihatdan biroz zaif bo'lsa-da, keyingi 20 yil davomida partiyaning aniq maqsad va vazifalari ko'zga tashlana boshladi.

Mazkur partiyaning asosiy maqsadlari barqaror milliy rivojlanishni ta'minlash, milliy manfaatlarni himoya qilish va ilgari surish, ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar, boy tarixiy merosni saqlash va boyitish, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarida milliy o'zlikni anglash hissini oshirish, yoshlarni milliy mustaqilligimizni, milliy an'analarimizni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash kabi bir qator ma'naviy-ma'rifiy g'oyalardan iboratdir.

"Milliy tiklanish" partiyasi so'nggi yillar mobaynida eng faol partiya sifatida o'z faoliyatini olib borayotgan partiyalardan biri hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda modernizatsiyaga asoslangan milliy qadr-qimmatimizni keng yoyishga harakat qilib kelayotgan "Milliy tiklanish" partiyasi o'zining 2025–2029-yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturini taqdim etdi. Ushbu dasturda lotin alifbosiga o'tishni yakunlash, arxeologik obyektlarda ijara tizimini bekor qilish, ajrimlar bojini oshirish, boshqa davlat fuqaroligini olganlardan fuqarolikni bekor qilish, renovatsiya va xalq tabobati to'g'risidagi qonunlarni qabul qilish masalalari o'rin olgan edi. Bundan tashqari, partiya ta'lim tizimi, sport, qadriyatlarga tayangan milliy kontent yaratish, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, turizm va iqtisodiyotni rivojlantirish, Oliy Majlis va siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va millatlararo totuvlik kabi sohalarga bir qancha dolzarb va muhim qonunlar loyihasini taklif qilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, istiqbolga erishgan ilk yillarimizdanoq milliy model yaratish g'oyasi mamlakatimizda keng targ'ib qilingan g'oyalardan biri bo'lgan edi. Xususan, "Milliy tiklanish" partiyasi ham aynan mana shu g'oya ustida ishlashga kirishgan partiyalardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda birinchi davlat rahbarimiz ta'kidlagan gaplarga e'tibor qaratsak,

“Bizning modelimiz vatanimiz hududida tarixan shakllangan jamiyatning ko‘pmillatli tarkibini saqlab qolish va mustahkamlashga asoslanadi. Biz bu modeldan demokratik huquqiy davlat qurishning pirovard maqsadlari uchun foydalandik. Binobarin, aholining ijtimoiy guruhlari, qatlamlarida yuzaga kelgan partiyalar, jamoatchilik harakatlari bu noyob hodisa bilan hisoblashmasliklari mumkin emas” [10:158].

Bugungi kundagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida eng ko‘p deputatlik o‘rniga ega bo‘lgan partiya, ya‘ni O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasi 2003-yil 4-5-oktabrda bir guruh tashabbuskorlar – kichik biznes vakillari, tadbirkorlar va fermerlardan iborat mulkdorlar qatlami, ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassisleri hamda boshqaruv xodimlari, ishbiarmonlar tomonidan ularning manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan umummilliy siyosiy tashkilot, ya‘ni partiya tuzish tashabbusi bilan chiqishdi. Ushbu yildan boshlab to hozirga qadar parlamentda eng yirik partiya hisoblanib, ko‘plab muhim qonun loyihalarini taqdim etib kelmoqda. Partiyaning maqsad va vazifalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, chuqur ma‘muriy islohotlarni amalga oshirish, sud-huquq tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish, sudlarning haqiqiy mustaqilligini ta‘minlash, iqtisodiyotni erkinlashtirish, qulay ishbiarmonlik va investitsiyaviy muhitni shakllantirish, millatlararo totuvlikni ta‘minlash, puxta o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish bo‘yicha tizimli va o‘zaro bog‘liq, bir-birini taqozo etuvchi choralar amalga oshirishni partiya o‘zining yuqori darajali vazifalari va maqsadlari deb belgilab olgan.

Partiyaning erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tish va kadrlar masalalari bo‘yicha faoliyati e‘tiborga molikdir. Jumladan, 2007-yil 27-martda “Partiya tuzilmalarining davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya organlarida bo‘shagan lavozimlarni egallash uchun O‘zLiDep kadrlari zaxirasini shakllantirish dasturi” qabul qilingan edi [11]. Uni amalga oshirish uchun siyosiy ta‘lim tizimida barcha hududiy tashkilotlarda maxsus partiyaviy tadbirlar ishlab chiqildi hamda mingdan oshiq partiya faollari, jumladan, jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan ayollar va yoshlar hisobiga partiyaning kadrlar zaxirasi yaratildi. Kadrlar

zaxirasi bo‘yicha hududiy komissiyalar faoliyati muntazam tahlil qilib kelinmoqda. Ishbiarmonlar partiyasi Yangi O‘zbekiston siyosatiga monand qonun loyihalari va amaliy natijalari bilan faoliyat yuritib kelmoqda. 2024-yilda aralash saylovlarda ham 5194 041 ta yoqlab berilgan ovozlardan kelib chiqib Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 26 ta deputatlik o‘rnini band qildi. Bularning barchasi partiya bo‘lgan xalq ishonchi yuqoriligidan dalolat.

Ekologiya mavzusini eng ustuvor deb belgilab qo‘ygan partiyalardan biri O‘zbekiston Ekologik partiyasini tuzish tashabbusi mamlakatda tabiiy resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat va jamiyat hayoti uchun muhim ustuvor yo‘nalish hisoblangan ekologik siyosat bilan shug‘ullanuvchi partiya tuzish bo‘yicha shakllantirilgan 100 nafardan iborat tashabbuskor guruh tomonidan ko‘tarilgan [13]. Mazkur partiya 2019-yil 22-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan. Partiyaning maqsadi mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga, ekologik xavfsizligiga erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun qulay atrof-muhitni yaratish hamda tabiiy resurslarni saqlashga yo‘naltirilgan davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishni ta‘minlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash davlat, jamiyat va mamlakat har bir fuqarosining vazifasi bo‘lishiga erishishga ko‘maklashishdan iborat.

2019–2023-yillar davomida partiya tomonidan 30 ga yaqin loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Ekologik partiyasi taklifi asosida 2019-yil 26-yanvar kuni Vazirlar Mahkamasi farmoyishi asosida yurtimiz bo‘ylab birinchi marotaba umumxalq ekologik xayriya hashari o‘tkazildi. Eng muhimi, ekologik hashar doirasida to‘plangan mablag‘larning asosiy qismi Orolbo‘yida ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy vaziyatni yaxshilashga yo‘naltirildi [14]. Bundan ko‘rinib turibdiki, hali faoliyatiga ko‘p bo‘lmagan Ekologik partiyaning tizimli faoliyatida ko‘plab yangilanishlar mavjud.

So‘nggi saylovlarda ham Ekologik partiya 1 960 764 ta yoqlab berilgan ovozlar sonidan kelib chiqib Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 10 ta deputatlik o‘rniga ega bo‘ldi.

Xulosa va takliflar. Siyosiy partiyalarning Yangi O‘zbekiston sharoitida olib borayotgan

faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, partiyalarning so'nggi 10 yil mobaynida olib borgan islohotlari e'tiborga molik. Shuningdek, Yangi O'zbekiston g'oyasiga tayanar ekanmiz, siyosiy partiyalar o'z oldiga qo'ygan vazifalarini amalga oshirishda, demokratik jarayonlarning rivojlanishi, inklyuziv siyosiy institutlar qurishda bir-biridan ajralib qolmasligi muhim. Bugungi siyosiy jarayonlar sharoitida umummilliy ehtiyojdan kelib chiqqan holda partiyalar o'z faoliyatini inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda amaliy muqobil takliflar bilan chiqish, turli ijtimoiy guruhlarining demokratik jarayonlarda ishtirokini ta'minlash, o'z vakolatlari doirasida xalqni o'z orqalaridan

ergashtirishlari muhim jihat hisoblanadi. Bundan tashqari, parlament yangicha jahon standartlariga moslashishi uchun xorijiy parlament va partiyalar bilan o'zaro aloqalarni yanada rivojlantirish lozim. Ma'lumki, parlamentlararo aloqalar zamonaviy xalqaro munosabatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi paytda dunyoda yuz berayotgan tendensiya shuni ko'rsatmoqdaki, parlamentlararo aloqalar turli davlatlar o'rtasida munosabatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda [15:85]. Shu narsa ayonki, mamlakatimizdagi ushbu 5 partiya kuchli fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ko'plab ishlarni amalga oshirishni maqsad qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999. – B.244.
2. Ergashev I. Politologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – B.110.
3. Fayziyev Sh.X. Siyosiy partiyalar mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida. Amaliy qo'llanma. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – B.4.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlof mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. "Fidokor" gazetasi muxbiri savollarga javoblar. Asarlar, 8-jild. – B.496.
5. Fayziyev Sh.X. Siyosiy partiyalar mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida. Amaliy qo'llanma. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – B.56.
6. Jumayev R. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo'lida. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. 1998. – 36-bet
7. <https://parliament.gov.uz/news/kuchli-parlament-va-xalq-vakillik-organlari-yangi-ozbekiston-tayanchi#>
8. Jumayev R. Davlat va Jamiyat: demokratlashtirish yo'lida. – T.: Sharq nashriyot-manbaa konserni bosh tahririyati. 1998. – B.38.
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Adolat_sotsial-demokratik_partiyasi
10. Karimov.I.A "Bunyodkorlik yo'lidan" T.4. –T "O'zbekiston", 1996. -158-bet.
11. O'zbekiston Siyosiy Kengash Ijroiya qo'mitasi axborotnomasi, 2007/1
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Ekologik_partiyasi#cite_ref:7_6-0
13. <https://ecouz.uz/history>
14. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Ekologik_partiyasi
15. Jurayev Q. O'zbekiston Respublikasi va jahon hamjamiyati. – T.: Oltin meros press, 2024. – B.85.

O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING INSTITUTIONALLASHUVI JARAYONLARINING EVOLUTSION DINAMIKASI

XOLMAXMATOV
*Azim Hazratkulovich,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston Milliy universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanish jarayonlarini davrlashtirish muammosi tahlil etilib, bunda O'zbekiston Respublikasining ayni sohadagi Qonun va qonunosti hujjatlariga nazariy manbaa sifatida qaraladi. Bu esa mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda sohadaqi tadqiqotlar uchun kategoriyalar tizimi vazifasini o'tovchi qator tushunchalar mazmuni qat'iy belgilab qo'yilganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanish jarayonlarini davrlashtirishda Qonun va qonunosti hujjatlarining qabul qilinish sanalariga determinand sifatida qaralib, shu asosda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati ikki bosqichda, bu bosqichlarning o'zi ham muayyan davrlarda shakllanganligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Yoshlar siyosati, Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati, Huquq bilimdonlari, Tafakkur sinovlari, Yoshlar ittifoqi, Kamolot jamg'armasi, determinand, Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonun.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется проблема периодизации процессов формирования государственной политики в отношении молодежи в Узбекистане, в которой в качестве теоретического источника рассматриваются Закон и нормативно-правовые акты Республики Узбекистан в этой же области. Это объясняется тем, что в данных нормативных правовых документах строго определено содержание ряда понятий, которые служат системой категорий для исследований в данной области. Также при периодизации процессов формирования государственной политики по делам молодежи в Узбекистане определяющим фактором считаются даты принятия Закона и нормативно-правовых документов, и на этой основе выявлено, что реализуемая в Узбекистане молодежная политика осуществляется в два этапа, а сами эти этапы формировались в определенные периоды.

Ключевые слова: Молодёжная политика, молодёжное общественное движение

“Камалот”, Юристы, Мыслительные тесты, Молодёжный союз, Фонд “Камалот”, определяющий фактор, Закон о государственной политике в отношении молодёжи.

ANNOTATION

The article analyzes the problem of periodization of the processes of formation of state policy towards youth in Uzbekistan, in which the Law and legal acts of the Republic of Uzbekistan in this same area are considered as a theoretical source. This is explained by the fact that these regulatory legal documents strictly define the content of a number of concepts that serve as a system of categories for research in this area. Also, when periodizing the processes of formation of state policy on youth affairs in Uzbekistan, the determining factor is the date of adoption of the Law and regulatory documents, and on this basis it was revealed that the youth policy implemented in Uzbekistan is carried out in two stages, and these stages themselves were formed in certain periods.

Key words: Youth policy, Kamalot youth social movement, Legal experts, Thought tests, Youth union, Kamalot fund, determinant, Law on state policy on youth.

KIRISH

Mustaqillikka erishgach, ko'pgina sohalar qatori O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati ham alohida yo'nalish sifatida tubdan qayta tashkil topdi, bir qator muhim tadrijiy taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirdi. Yoshlarimiz bugun erishgan va ertaga mamlakatimiz taraqqiyoti uchun zamin bo'ladigan maqsadlar bilan yashayapti. Ular amalga oshirayotgan jasorat namunalari haqida minglab misollarni keltirish mumkin. Mustaqillik sharofati bilan tiklangan ma'naviy merosimizni o'rganishda, urf-odatlarimizga rioya etishda, mutafakkir va allomalarimiz bilan faxrlanishda, o'z davlati madhiyasini kuylashda, millat bayrog'idan g'ururlanishda, ajdodlarga armon bo'lgan, avlodlarga in'om bo'lgan “Vatanimga xizmat qilaman!” degan shavkatli tuyg'ularga to'lgan yangi avlod vujudga keldi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi

O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati bilan bog'liq masalalar tahliliga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari Q.Quranboyev, S.Jo'rayev, D.Bo'ronova, F.Ravshanov, M.Yuldashev, Z.Qodirova, E.Bobomurodov, G.Tulenova kabi taniqli olimlarning izlanishlari va ilmiy ishlarini kiritish mumkin. Shu ma'noda, O'zbekistonning 2030 yilgacha amalga oshirilishi belgilangan strategiyasiga tayanib olib borilayotgan bunyodkorlik faoliyati jarayonida jismonan yetuk va ma'nan barkamol yosh avlodni voyaga yetkazishga oid davlat siyosatini yangi bosqichga ko'tarish bilan bog'liq mavzuni bevosita maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganish, shu asosda amaliyot uchun zarur bo'lgan xulosa va takliflarni ishlab chiqish alohida e'tiborni talab qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot olib borish davomida obyektivlik, tarixiylik, qiyosiy-tarixiy, tuzilmaviy, tuzilmaviy-funksional, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, hujjatlarni o'rganish, ma'lumotni

qayta ishlash guruhlash kabi sotsiologik usullardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati shakllanishi va amalga oshirish jarayonini sohaga oid ikkita muhim qonunning qabul qilinishi bilan bog'liq ravishda ikki xronologik bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich, 1991–2016-yillarni o'z ichiga olib, uni yoshlarga oid davlat siyosatining joriy qilinishi, davlat siyosiy faoliyatining alohida ustuvor yo'nalishi sifatida ajralib chiqishi va institutsionallasuvi kabi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflash mumkin.

Ushbu bosqichning boshlanishi 1991-yil 20-noyabr kuni "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi [1] Qonuni qabul qilinishi bilan belgilanadi. Shuningdek, mazkur qonunning qabul qilinishi "Yoshlarga oid davlat siyosati" atamasining keng ilmiy va amaliy iste'molga kirib kelishiga zamin yaratdi. Ushbu sanadan to bugungi kungacha Respublikamizda yoshlar siyosati davlat siyosiy faoliyatining alohida turi sifatida amal qilib kelishiga olib keldi. Qonunning qabul qilinishi yoshlarga oid davlat siyosati bilan shug'ullanuvchi davlat hokimiyati organlari va Yoshlar ishlari bo'yicha davlat Kengashi yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Qonunga ko'ra Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir[2].

Bu borada, mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar jarayonida yosh avlodni jismonan sog'lom va ma'nan barkamol qilib o'stirish, ularni eng zamonaviy intellektual bilimlar bilan ta'minlash, ma'rifatlilik darajasini yanada kuchaytirish va mustahkamlashga alohida e'tibor qaratish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi. Ayni paytda, davlat va xalq hayotida yoshlarga yanada keng yo'l ochish, ularning jamiyatda mustahkam va munosib joy olishi uchun kerak bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib

berish bu sohadagi asosiy vazifalar sifatida belgilab olindi.

Yoshlarni siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga jalb qilish, ularni demokratik yangilanish jarayonlarining faolishtirokchisiga aylantirishga alohida ahamiyat qaratildi. Ushbu jarayonda yoshlar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan "milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin" [3] ya'ni, yoshlar yoshlarga oid davlat siyosatining nafaqat obyekti, balki uning subyekti sifatida tavsiflangani bejiz emas edi.

O'zbekistonning aynan o'sha davrda istiqbolga erishishi, hayotning barcha sohalari qatori, bu boradagi islohotlar va yangilanishlari uchun ham keng imkoniyat yaratdi. Ushbu yo'nalish davlatimiz siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Bu borada birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning mustaqillikning ilk davrida bildirgan quyidagi fikri yoshlarga oid davlat siyosatining eng asosiy maqsad-muddolari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va anglashda nihoyatda muhim nazariy xulosa bo'lib hisoblanadi: "... yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezoni bo'lishi darkor" [4].

Ushbu xulosaga asoslanib va o'sha davr talablaridan kelib chiqib, yurtimizda yoshlar muammosiga alohida ahamiyat qaratildi, ularning manfaat va ehtiyojlarini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratishga kirishildi. Shuningdek, davlatimizning yoshlar masalasiga doir strategik yo'nalishlari izchil va tizimli ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun zarur bo'lgan dolzarb vazifalar hamda ushbu vazifalar ijrosini ta'minlovchi bir qator davlat va nodavlat tashkilotlari belgilab olindi. Bundan ma'lum bo'ladiki, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati institutsionallasuvining dastlabki

davrlaridayoq, mazkur sohani o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, yoshlar hamda bir qator davlat va nodavlat tashkilotlari bu yo'nalishdagi davlat siyosatining subyektlari sifatida ko'rsatildi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Bugun yoshlarning jamiyat hayotidagi o'rni va mavqeyini yanada yuksaltirish o'ta muhim masaladir", deb ta'kidlagan edi[5].

Umuman olganda, yoshlarga doir siyosat yo'nalishi bir qancha rivojlangan davlatlarda XX asrning 60–70-yillarida mustaqil soha sifatida shakllandi. Biroq, 1985-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Samarali yoshlar siyosatini shakllantirishning asosiy qoidalari to'g'risida" rezolyusiya qabul qilinganidan so'ng bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi, deb yozadi L.Tangriyev o'zining "Yoshlar siyosati subyekti: bandlik muammosi" nomli nomzodlik dissertasiyasida[6]. Har bir mamlakatda o'ziga xos, davlat qurilishi va boshqaruv tizimiga mos ravishda yoshlar siyosatini yuritishning turli mexanizmlari va tizimlari qaror topa boshladi.

Shu nuqtayi-nazardan yondashganda, O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi davlatning yoshlarga doir siyosatida muhim bosqich hisoblanib, siyosatda yoshlar muammosiga alohida ahamiyat qaratish uchun keng imkoniyatlarni ochib berdi.

Shuni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati shakllanishi va amalga oshirishining birinchi bosqichini mazkur siyosatning ijrosini ta'minlovchi subyektlarning tashkil topishiga ko'ra **to'rt xronologik davrga** ajratish mumkin.

Birinchi davr, 1992–1996-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda O'zbekiston Yoshlari Ittifoqi [7] nomi bilan faoliyat yuritgan tashkilot yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy subyekti vazifasini bajargan. U a'zolikka asoslangan bo'lib, faoliyatini a'zolar tomonidan to'lanadigan badallar hisobiga yo'lga qo'ygan.

O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyati,

birinchidan, a'zolardan badal yig'ish, ularning hisobini olib borish, hisob kartochkalari yuritish kabi byurokratik vazifalar;

ikkinchidan, tashkilot faqatgina siyosat, mafkura masalalari bilan shug'ullanib, sobiq "Komsomol" tashkilotining izidan ketgan;

uchinchidan, O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi bozor iqtisodiyotiga o'tish sari ildam faoliyat olib bora olmagan.

Yuqorida keltirib o'tilgan va shunga o'xshash kamchiliklar bu tashkilot faoliyatini qayta ko'rib chiqish masalasini yuzaga keltirgan.

Mamlakatimizning bozor munosabatlariga o'tish davrida yoshlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, boqimandalik kayfiyatidan xalos etish kabi bir qator zaruratlar paydo bo'ldi. Natijada 1996–2001-yillarni o'z ichiga oluvchi yoshlarga oid davlat siyosati shakllanishining **ikkinchi davri** boshlandi. Bu davrda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy ijrochisi sifatida "Kamolot" jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 17-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamg'armasi to'g'risida"gi PF-1425-sonli[8] Farmoniga asosan tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-maydagi "O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 207-sonli qarori bilan tashkilot faoliyati mustahkamlab qo'yildi. Bu tashkilot a'zolikka asoslanmagan bo'lib, jamg'arma bo'limlari qoshida hukumat qarori bilan berilgan imtiyozlar asosida faoliyat yuritadigan sho'ba korxonalardan (ular 5 yilgacha davlat solig'idan ozod etilgan edi) olinadigan foyda hisobiga dasturiy faoliyatini yuritdi.

O'z navbatida "Kamolot" jamg'armasining o'sha davr talablariga yetarlicha javob berolmaganligi oqibatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 30-maydagi "O'zbekiston yoshlarining "Kamolot" ijtimoiy harakati faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish to'g'risida"gi 240-sonli qarori[9] bilan Jamg'arma "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatiga aylantirildi hamda bu 2001–2006-yillarni qamrab oluvchi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati shakllanishining **uchinchi davrini** boshlab berdi.

Bu davrda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining Dasturi va Nizomida belgilangan vazifalarni hayotga tadbqiq etishga, Harakatning moliyaviy-iqtisodiy negizini va moddiy-

texnik bazasini mustahkamlashga imkoniyat yaratildi. Bu tashkilotda a'zolik badali yig'ilmaydigan, a'zolik bileti yuritilmaydigan bo'ldi va tashkilotga mafkuraviy vazifa yuklanmadi. O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati – O'zbekiston yoshlarining ixtiyoriylik asosida tashkil etiladigan, o'zini o'zi boshqaradigan nodavlat notijorat tashkilot sifatida ta'sis etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil oktabrdagi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi PQ-486-sonli qarori[10] o'ziga xos yangi davrni boshlab berdi va "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatini isloh qilish va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan mazkur **to'rtinchi davr** 2006–2016-yillarni o'z ichiga qamrab oldi. Ushbu davrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ma'naviy-ma'rifiy sohaga daxldor bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan yoshlar masalalarini, avvalambor, ularning dolzarb muammolarini yechish, jamiyatdagi o'rni va mavqeyini oshirishda yo'l qo'yilayotgan sovuqqonlik, beparvolik va mas'uliyatsizlik holatlarini bartaraf etish, eng asosiysi, hayotga kirib kelayotgan avlodning ijtimoiy faolligini kuchaytirish vazifasi yuklandi. Bu borada "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatiga tayanish vazifasi mazkur davlat tashkilotlari

faoliyatining muhim yo'nalishi etib belgilab qo'yildi.

Ikkinchi bosqich 2016-yilning 14-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi[11] qonuni qabul qilinishi bilan boshlandi. Mazkur qonunning qabul qilinishi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida o'ziga xos yangi davrni boshlab berdi. O'z navbatida, bu mamlakatimizda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar mas'uliyati va o'zaro hamkorligini kuchaytirishga, ushbu sohada sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu qonun asosida yoshlarga oid davlat siyosatining mezonlari bugungi kun talablariga munosib ravishda belgilab berildi. Asosiysi qonun bilan ushbu yo'nalishdagi ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari sifatida yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa huquq hamda manfaatlarini mustahkamlab qo'yildi. Shu asosda O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash, yoshlarning siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularni siyosiy jarayonlarga faol jalb qilish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar, uslublarni amaliyotga



joriy etishning oson yo'llari ishlab chiqila boshlandi.

Qonundagi e'tiborli jihatlardan biri – unda ushbu yo'nalishdagi asosiy tushunchalar “yoshlarga oid davlat siyosati”, “yoshlar (yosh fuqarolar)”, “yosh oila”, “yosh mutaxassis” kabi mohiyati ochib berilgan[12].

Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi subyektlar aniq belgilab qo'yildi. Shuningdek, yoshlar uchun qonun bilan o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy imtiyozlar belgilab berildi.

Mazkur qonunda belgilab berilgan O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida bir qator me'yoriy-huquqiy, tashkiliy loyihaviy va moliyaviy mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi yoshlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvidan so'ng yoshlar siyosati sohasiga oid 40 ta Qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 3 ta qonuni qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida” PF-5106-son Farmoni[13] bilan yoshlar masalalariga oid 70 ga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjatlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta farmoni, 8 ta qarori, 2 ta farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18 ta qarori va 4 ta farmoyishi qabul qilinishi yoshlar siyosati sohasidagi islohotlarning tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirilishiga zamin yaratmoqda.

Mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va yangi yuksak sifat bosqichiga ko'tarish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi farmoniga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O'zbekiston

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati negizida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi[14].

O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30 iyun sanasi mamlakatimizda “Yoshlar kuni” [15] sifatida nishonlanadi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqiga 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi[16] doirasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq bir qator yangi va muhim vazifalarni amalga oshirdi. Shuningdek, bu davrda Yoshlar ishlari agentligi faoliyati yo'lga qo'yilib, sohaga oid davlat siyosatini yuritishda bosh islohotchi vazifasini bajarmoqda.

Xulosa va takliflar

(Conclusion/Recommendations)

Umuman olganda, O'zbekiston yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanish va amalga oshirish dajarasini ikki bosqichga bo'lgan holda tadqiq etish mumkin. Mazkur xronologik davrlashtirishda O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonunlari determinant qilib olinadi. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining mustaqil faoliyat turi sifatida vujudga kelishi, uning me'yoriy-huquqiy, tashkiliy asoslarining shakllanishi va yoshlarga oid davlat siyosati sub'ektlarining vujudga kelishi hamda rivojlanishi birinchi bosqichning o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. Ikkinchi bosqichini esa yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi tushunchalarning aniq ta'riflanishi, ustuvor yo'nalishlar va tamoyillarning belgilanishi va yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat tashkilotlarning qat'iy belgilanishi, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari va texnologiyalarining zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilishi kabilar bilan tavsiflash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, birinchi bosqichni O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanish va institutsionallashtirish davri sifatida ikkinchi bosqichni esa yoshlarga oid davlat siyosati mexanizmlari va texnologiyalarini sohaga oid barcha davlat va nodavlat tashkilotlari ishtirokida amaliyotga qo'llash va yoshlarning barcha qatlamlariga keng miqyosda kirib borish davri sifatida ko'rsatish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi № 429-XII qonuni <http://www.lex.uz>
2. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi № 429-XII qonunining 1-moddasi <http://www.lex.uz/acts>
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat. 2008. B – 119.
4. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. T.17. – B.131.
5. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". – Toshkent: "O'zbekiston", 1999 yil, 23-bet.
6. L.Tangriyev. "Yoshlar siyosat subyekti: bandlik muammosi" nomli nomzodlik dissertatsiyasi. Avtoreferat. Toshkent: 2001-yil.
7. Bo'ronova D. "O'zbekistonda yoshlar siyosati: bosh tamoyillar va ularning mohiyati" – T.: "G'ofur G'ulom" NMIU, 2008. B. – 82
8. O'zbekiston yoshlarining jamg'armasi "Kamolot" to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Xalq so'zi. 18 aprel 1996-yil.
9. O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 30-maydagi 240-sonli qaroriga tegishli hujjatlar to'plami. –T.: 2001.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 10-oktabrdagi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi PQ-486-son qarori // Xalq so'zi, 2006 yil 10 oktabr.
11. O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlar (I qism). – T: "O'zbekiston" NMIU, 2017.B – 32.
12. O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlar (I qism). – T: "O'zbekiston" NMIU, 2017.B – 32.
13. O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlar (I qism). – T: "O'zbekiston" NMIU, 2017.B – 59.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoniga sharh <http://lex.uz/docs/3255680>
15. O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlar (I qism). – T: "O'zbekiston" NMIU, 2017.B – 58.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni //Xalq so'zi, 2017, 8 fevral.

**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
TASHQI SIYOSATINING
ASOSIY YO'NALISHLARI**

QOLQANOV

*Nuriddin Tashpulatovich,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent*

ANNOTATSIYA

Maqolada tashqi siyosat, uning zarurligi, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'zining tashqi siyosatini amalga oshirayotganligi, bunda pragmatik tashqi siyosat yuritishga alohida e'tibor berilib, yillar davomida mazkur sohadagi islohotlar va qonuniy asoslar takomillashtirib borilayotganligini yoritishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, tashqi siyosat, globallashuv, tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari, tashqi siyosatning konstitutsiyaviy asoslari.

O'zbekiston mustaqil davlat bo'lgach o'zimizning tashqi siyosatimizni jahon hamjamiyatining to'la huquqli subyekti sifatida amalga oshirish uchun real imkoniyatlarga ega bo'ldi. Shu kundan e'tiboran tashqi siyosat mustaqil tarzda amalga oshirib kelinmoqda. Tashqi siyosat – davlatning xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta'minlashga hamda ushbu yo'nalishdagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat yo'nalishi hamda sohasi. Tashqi siyosat mamlakatning asosiy va o'zgaras maqsadi – xalq va davlat suverenitetini ta'minlashni hisobga olgan holda yuritiladi. Davlatning tashqi siyosiy faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya jarayonlarida, milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlashda milliy manfaatlarni himoya qilish uchun tashqi siyosat mexanizmi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarda namoyon bo'ladi.

Tashqi siyosat davlatning faoliyat sohasi sifatida aniq belgilangan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, xavfsizlik va mudofaa sohasida u bir qator muhim siyosiy, harbiy-texnik, gumanitar masalalarni hal qilish, boshqa davlatlar bilan hamkorlikni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Davlatlarning xalqaro hamkorligi xavfsizlikni o'zaro mustahkamlash, urushning oldini olish va qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarligini oshirishga qaratilgan harbiy sohadagi qo'shma faoliyatni o'z ichiga oladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida davlat oldida boshqa masalalar turibdi. Bu yerda asosiy vazifalar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, o'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik va boshqa aloqalarni rivojlantirishdir.

Davlatning xalqaro huquq subyekti sifatida taraqqiy etishi xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan hamkorlik aloqalari orqali amalga oshiriladi. Har bir davlat o'z milliy manfaatlari yo'lida xalqaro hamkorlikni olib boradi. Bunday hamkorlik davlatning tashqi siyosati orqali ta'minlanadi.

Tashqi siyosat – davlatning tashqi funktsi-

yalarini amalga oshirishning barcha usullari va vositalari yig'indisidir.

Tashqi siyosat diplomatiya bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'lanish shunchalik yaqinki, ba'zan ular o'z ixtiyori bilan yoki beixtiyor o'zaro tenglik belgisini qo'yadilar. Ammo bu tushunchalar o'rtasida farqlar mavjud. Diplomatiya tashqi siyosatning o'zi emas, balki uni amalga oshirish usullari va vositalari majmuidir. Demak, diplomatiya davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish, tashqi siyosiy maqsadlariga erishish vositalari, metodlari va usullari majmuyi, suveren davlatlar o'rtasidagi o'z davlati suverenitetini mujassamlashtirgan diplomatik vakillarning o'zaro almashinuviga asoslangan munosabatlar tizimidir.

Tashqi aloqalar sohasidagi davlat faoliyati keng ma'noda uning diplomatik faoliyati bo'lib, bu mamlakatning xalqaro maydondagi barcha rasmiy aloqalari va munosabatlarini qamrab oladi. Bunday faoliyatni davlatlar o'rtasidagi shartnomalar asosida tartibga soluvchi qoidalar xalqaro huquq sohalaridan biri bo'lgan diplomatik huquq yo'lga qo'yadi.

Tashqi siyosat tushunchasi siyosiy institut sifatida davlat faoliyatining xalqaro ishlardagi umumiy yo'nalishini, shuningdek, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalaridan iborat maqsad hamda vositalarni qamrab oladi. Tashqi siyosatga davlat umumiy siyosatining tarkibiy qismi va uning ichki siyosatining davomi sifatida qaraladi. Har bir davlat tashqi siyosatini o'z manfaatlari hamda boshqa obyektiv va subyektiv omillardan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Shuni ham unutmaslik lozimki, davlat tashqi siyosatining rivojlanishi muayyan tarixiy davrga va mamlakatdagi ichki siyosiy jarayonning xususiyatlariga, xalqaro tizim parametrlariga bog'liq. Xalqaro munosabatlar esa o'z navbatida davlatlarning tashqi siyosiy faoliyati yig'indisidan shakllanadi.

Shuningdek, tashqi siyosatning yana bir o'ziga xos xususiyati – davlatning xalqaro maydondagi faoliyati yoki uning bunday harakatlarni amalga oshirishga qodirligi ko'rsatkichidir. Davlatning tashqi siyosiy faoliyati ijtimoiy faoliyatning o'ziga xos mazmun kasb etuvchi shakllaridan biridir. U muayyan organlari orqali davlatning siyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, avvalambor, xalqaro munosabatlarning turli

sohalarida ustuvorlikni qo'lga kiritish, saqlab turish va undan foydalanish bo'yicha sa'y-harakatlar majmuini o'zida namoyon etadi.

Ayni vaqtda tashqi siyosiy faoliyatni umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga rioya qilmay turib amalga oshirib bo'lmaydi. Xalqaro huquq normalari va prinsiplari davlatlarning tashqi faoliyatlari natijasida shakllanar ekan, ular barcha asosiy guruhlar uchun maqbul bo'lgan murosa ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Tashqi siyosatning funksiyalari quyidagilardan iborat:

- **Himoya qiluvchi funksiyasi.** Chet elda mamlakat va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, tashqaridan hujumlarning oldini olish, nizolarni tinch yo'l orqali hal qilish bilan bog'liq.

- **Tashqi siyosatning axborot-tahliliy (prognozlash) funksiyasi.** Davlatning ijobiy qiyofasini yaratish, tashqi siyosiy jarayonlarni o'rganish, xalqaro vaziyat to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, tavsiyalar ishlab chiqish, tegishli harakatlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

- **Tashkiliy funksiyasi.** Davlat uchun manfaatli va foydali aloqalarni o'rnatish hamda davlatning xorijdagi faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan tashabbuskor harakatlarni qamrab oladi.

- **Mafkuraviy funktsiya.** Milliy davlat taraqqiyot modelining falsafiy asoslarini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklarini targ'ib qilishdan iborat.

Davlat tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar ko'p. Birinchidan, mintaqadagi va umuman xalqaro maydondagi siyosiy, iqtisodiy va harbiy vaziyatga qarab shakllanadi. Odatda, davlatning tashqi siyosiy sa'y-harakatlari mamlakatning o'ziga xos strategik va hayotiy milliy manfaatlariga ega bo'lgan yoki amalga oshiradigan nuqtaga yo'naltiriladi. Tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari deganda uzoq muddatli manfaatlar sifatida tan olingan va odatda boshqa davlatlar bilan o'zaro aloqalar orqali amalga oshiriladigan "asosiy yo'nalishlar" tushuniladi¹. Ular mintaqaviy yoki global darajada davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning aniq masalarini hal qilish-

¹ Xalqaro huquq. Darslik. Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2018. – B.129.

ga qaratilgan xalqaro institutlar orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari, shuningdek, milliy tashqi siyosat manfaatlarini tizimni belgilaydigan va strategik munosabatlarni ifodalovchi ichki milliy omillar ta'siri ostida shakllanadi. Ushbu omillardan biri konstitutsiyaviy huquqdir.

Tashqi siyosat ijtimoiy munosabatlarning eng tartibga solinadigan obyektidir. U doimiy ravishda ichki va tashqi siyosiy omillar ta'sirida bo'lib, milliy va xalqaro huquqlarga bo'ysunadi. Tashqi aloqalar davlat organlari tomonidan boshqariladi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy va xalqaro institutlarga ta'sir qiladi. Davlatning tashqi siyosati milliy manfaatlariga asoslangan bo'lsa-da, unga mintaqaviy hamda global manfaatlar ham ta'sir qiladi, ular alohida davlatlar, turli xalqaro tashkilotlar, transmilliy iqtisodiy va boshqa tuzilmalar ham bo'lishi mumkin.

Xalqaro huquqning davlat tashqi siyosatini tashkil etishga, shu jumladan, bu sohadagi milliy qonunchilikka ta'siri kuchayib bormoqda. Xalqaro munosabatlarning umumiy qonuniyatlarini namoyon etishdan tashqari, ushbu tendensiya jahon hamjamiyati progressiv qismining "kelajakda xalqaro huquqni barcha xalqlarning haqiqiy xulq-atvor kodeksiga aylantirishni"² amalga oshirish istagiga asoslanadi. Bugungi kunda hech kim "xalqaro huquq boshqa omillar qatorida davlatlarning tashqi siyosatiga bevosita ta'sir qiladi, chunki davlatlar xalqaro huquq bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari kerak"³ degan fikrga qarshi chiqmaydi.

Xalqaro munosabatlar yildan yilga murakkablashmoqda. Globallashuv omili tashqi siyosatga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqlar o'rtasidagi gumanitar, axborot, ilmiy, etnik-madaniy va boshqa aloqalarning ta'siri kengaymoqda. Tashqi siyosat ko'lami va doirasini nafaqat davlatlar va hukumatlar siyosati, balki umuman mamlakatlar, jamiyat va tashqi dunyo o'rtasidagi aloqalarning butun majmuasi sifatida kengaytirish tendensiyasi doimiy ravishda rivojlanib bormoqda.

² Международное право: Отв. ред. Ю.М. Колосов. – М.: Международные отношения, 2000. – С. 14.

³ Международное право: Отв. ред. Ю.М. Колосов. – М.: Международные отношения, 1996. – С. 15.

Bugungi kunda xalqaro munosabatlarda nodavlat subyektlarning roli oshishi hisobiga bu borada davlatlarning ulushi kamayishi haqida tobora ko'proq gapirilmogda⁴. Jahon siyosatining globallasuvi yangi yondashuvlarni belgilaydi. Endilikda "Inson huquqlarini himoya qilish bahonasida davlatning ichki ishlariga aralashish huquqi to'g'risidagi doktrina" amaliyotga kiritildi. Bu ish nafaqat xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun, balki gumanitar sabablarga ko'ra ham amalga oshmogda. Shunga qaramay, tashqi siyosat yurgizishga faqatgina davlat va uning boshqaruv organlari vakolatli bo'lib qolmogda.

Tashqi siyosatni konstitutsiyaviy jihatdan tartibga solish zarurati. Tashqi siyosatni konstitutsiyaviy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'liqroq tasavvurga ega bo'lish uchun birinchi navbatda, ushbu munosabatlarning asosiy mavzusini aniqlashtirish kerak. Qoida tariqasida, ushbu kategoriya tushunchasi va ijtimoiy munosabatlarning muhim sohasi sifatida ma'lum bir mamlakatning tashqi siyosatini tahlil qilish uni amalga oshirish mexanizmlarini aniq belgilashdan, davlatning asosiy maqsadi milliy manfaatlarini amalga oshirish uchun olib boriladigan xalqaro munosabatlar tizimidagi davlatning muayyan maqsadlari, vazifalari va harakatlarining umumiyligini o'rganishdan boshlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, suveren davlatning xalqaro munosabatlardagi o'rnini aniqlash zamirida konstitutsiyaviy huquq va xalqaro huquqning ma'lum bir mamlakat tashqi siyosatini me'yoriy tartibga solishdagi rolini to'liqroq tushunish yotadi.

Siyosatshunoslik faniga ko'ra, suveren davlat siyosiy tizimning markaziy elementidir. U milliy darajada hokimiyat va boshqaruv munosabatlarining va xalqaro munosabatlarda davlat suverenitetining tamsili bo'lib xizmat qiladi. Shu munosabat bilan taniqli siyosatshunos K.S.Gajiyev quyidagilarni ta'kidlaydi⁵: Xalqaro munosabatlarning asosiy subyektlari, birinchi navbatda suveren milliy davlatlardir. Aynan davlat tashqi siyosatni amalga oshirish, boshqa davlatlar bilan munosabatlarning subyekti sifatida harakat

qilish, davlatlararo shartnomalar va bitimlar tuzish, urush e'lon qilish hamda tinchlik o'rnatish va hokazolar uchun haqiqiy vakolatlarga ega".

Xalqaro tashkilotlar va xalqaro munosabatlarning boshqa subyektlari ta'sirining kuchayishiga qaramay, xalqaro xarakterdagi qarorlarni yakuniy qabul qilishda oxirgi so'zni ko'pincha alohida suveren davlat aytadi. Masalan, "katta yettilik" deb nomlangan mamlakatlar haqida gapiramiz, ularning resurslari tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishga imkon beradi (hatto ushbu masalalar bilan maxsus shug'ullanadigan nufuzli xalqaro tashkilotlar bor bo'lsa ham).

Boshqacha aytganda, xalqaro munosabatlardagi murakkablik va demokratlashtirish jarayonlariga qaramay, davlat tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarning asosiy subyekti bo'lib qolmogda. Bu fikrni chet elda va xalqaro olimlarning keng doirasi ham qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, xalqaro ommaviy huquq darsligida ta'kidlanishicha, xalqaro huquq normalari asosan davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, chunki bu davlatlar xalqaro huquqning boshqa subyektlarida mavjud bo'lmagan suverenitet kabi o'ziga xos siyosiy va huquqiy xususiyatga ega.

R.T.Hakimov va R.A.Tuzmuhamedovning ta'kidlashicha, xalqaro huquq subyektlarining uch turi mavjud bo'lib, ularning asosiysi davlatdir, "davlat suverenitet kabi o'ziga xos bo'lgan huquqlarga ega va shuning uchun ham u xalqaro munosabatlarning to'laqonli ishtirokchisi hisoblanadi"⁶. Ushbu xulosa davlat va xalq suvereniteti o'rtasidagi munosabatni tahlil qilishning realistik yondashuviga asoslanadi. Mualliflarning fikricha, xalq suvereniteti (keng jamoatchilik) byurokratik mexanizm(davlat) dan oldin rivojlangan bo'lsada, ikkinchisi o'zining katta tashkil etilishi tufayli asta-sekin "o'zini o'zi ta'minlaydigan apparat"ga aylandi. Ularning fikriga ko'ra, ayrim davlatlarning konstitutsiyalarida xalqqa hokimiyat manbayi yoki davlat suverenitetining manbayi sifatida murojaat qilish odatiy hol bo'lsa-da, dunyo xalqning irodasini chinakam ifoda etadigan davlat hokimiyatini hali ko'rmadi.

⁶ Тuzмухамедов Р.А., Хакимов Р.Т. Основы международного права. – Т.: Издательский дом "Мир экономики и права", 1998. – С. 11.

⁴ Современные международные отношения. / Под ред. А.В.Торкунова. – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2000. – С. 70-93.

⁵ Гаджиев К.С. Введение в политическую науку. – М.: Логос, 1997. – С. 288-289.

Davlat tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslarini o'rganish, asosan, yuqorida aytilganidek, mustaqil va o'z siyosati yo'nalishini tanlay oladigan, xalqaro munosabatlar tizimidagi davlat xatti-harakatlarining ichki siyosiy va huquqiy shartlarini har tomonlama o'rganish imkonini beradi. Ushbu yondashuvning ahamiyati aniq, chunki konstitutsiya ma'lum bir davlatning rivojlanishi va tendensiyalarining tarixiy xususiyatlari natijasidir. Unda nafaqat normalarning o'zi, balki xalqning asosiy qadriyatlari, ustuvorliklari, prinsiplari va manfaatlari, davlat mexanizmini tashkil etish me'yorlarini hamda ichki va tashqi siyosatning maqsadlarini belgilaydigan normalar ham mavjud bo'ladi. Ayrim konstitutsiyalar, masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tashqi siyosat to'g'risida maxsus bob mavjud bo'lsa, Rossiyada tashqi siyosat konstitutsiyaviy tartibga solish obyekti emas. Konstitutsiya milliy va xalqaro huquqning o'zaro bog'liqligi (Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 15-moddasi 4-band⁷), davlatlararo birlashmalarda ishtirok etgan (79-modda) va davlatning tashqi siyosiy funksiyalarinigina belgilab bergan, xolos. Muayyan konstitutsiya tarkibida tashqi siyosat masalalari mavjudmi yoki yo'qmi, asosiy qonun unga boshqa konstitutsiyaviy va huquqiy institutlar, tegishli qonunchilik normalari orqali ta'sir qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy konstitutsiyalar, qoida tariqasida, quyidagilarni aks ettiradi:

- ✓ davlat tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari;
- ✓ urush e'lon qilish va tinchlik o'rnatish bilan bog'liq masalalar;
- ✓ elchilarni tayinlash;
- ✓ xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari va ichki normalarning nisbati;
- ✓ davlat organlarining xalqaro shartnomalarni tuzish, ratifikatsiya qilish va denonsatsiya qilish vakolatlari;
- ✓ inson huquqlarini himoya qilish sohasida hamkorlikni belgilaydigan qoidalar – fuqarolik, inson huquqlari va erkinliklari, ekstraditsiya, boshpana huquqi va boshqalar.

⁷ Конституция Российской Федерации // <http://kremlin.ru/acs/constitution>

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bir qator xorijiy davlatlarning konstitutsiyalari tashqi siyosat masalalarini maxsus belgilamaydi yoki to'g'ridan to'g'ri o'z tarkibida aks ettiradi. O'zbekiston Konstitutsiyasi ikkinchisiga misol bo'ladi.

Bir paytlar davlatning tashqi siyosati konstitutsiyaviy tartibga solishning bevosita obyekti bo'lmagan. Davlatning xalqaro munosabatlar tizimidagi funksiyalari va ularning tashqi siyosiy pozitsiyasini tartibga soluvchi normalar konstitutsiyalarda XIX asrning o'rtalaridan paydo bo'la boshladi. Ushbu normalar davlatning tashqi siyosiy funksiyalarini, uning xalqaro huquqiy pozitsiyasini tartibga solgan, urush e'lon qilish va tinchlik o'rnatish tartibini o'z ichiga olgan.

Konstitutsiya bilan tartibga solinadigan masalalar doirasi asta-sekin kengaydi. Bularga quyidagilar kiradi: davlatning tashqi siyosiy faoliyati tamoyillarini o'rnatish; inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi hamkorlikni belgilaydigan qoidalarni belgilash fuqarolik, inson huquqlari va erkinliklari, ekstraditsiyahamda boshpana huquqi va boshqalar. Masalan, Yaponiya Konstitutsiyasida alohida to'qqizinchi moddada "yapon xalqi abadiy ravishda urushdan millatning suveren huquqi sifatida, shuningdek, xalqaro nizolarni hal qilish vositasi sifatida qurolli kuchlarni ishlatish yoki tahdid qilishdan voz kechadi"⁸ deb e'lon qilingan. Shu maqsadda Yaponiya urushning boshqa vositalari qatorida quruqlik, dengiz va havo kuchlarini tashkil etishdan bosh tortdi.

"Davlat tomonidan urush olib borish huquqi tan olinmaydi". Yaponiya uchun asosiy qonunning ushbu moddasi normalari bugungi kunda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Bu mamlakat zamonaviy dunyoning yetakchi sanoat kuchlaridan biridir. O'zbekiston uni xavfsizlik Kengashi tarkibiga doimiy a'zo sifatida kiritish kerakligini (Germaniya bilan birgalikda) bir necha bor ta'kidlagan⁹. Mavjud xalqaro

⁸ Конституции зарубежных государств. – М.: Издательство БЕК, 1997. – С. 443.

⁹ O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning Birlashgan Millatlar tashkilotining besh yuz yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali majlisidagi nutqi (Nyu-York, 1995-yil 24-oktabr) // Xalq so'zi. – 2000-y. 2-sentabr.

majburiyatlar (masalan, BMTga a'zolik) xalqaro qurolli kuchlarni jalb qilishda ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Yaponiya allaqachon 9-moddani qoidalarini buzmoqda, u bir necha yuz ming o'zini himoya qilish kuchlariga ega va o'z harbiylarini sayyoramizning qaynoq nuqtalariga jo'natmoqda.

Yaponiya asosiy qonunining 9-moddasiga o'xshash normalar boshqa mamlakatlar konstitutsiyalarida ham mavjud. Masalan, urushdan voz kechish 1790-yil 22-mayda Buyuk fransuz inqilobi davrida Ta'sis majlisining dekretida mustahkamlangan. Keyin u 1791-yilgi Konstitutsiyaning VI qismida va 1848-yilgi Konstitutsiyaning V bandida, 1946-yilgi asosiy qonunning muqaddimasida ham takrorlangan. Agressiv urushni rad etish boshqa davlatlar konstitutsiyalarida, masalan, 1891- va 1946-yillarda Braziliya, 1931-yilda Ispaniya, 1932-yilda Tailand, 1935-yilda Filippin Konstitutsiyalarida ham mavjud edi¹⁰. Ikkinchi jahon urushidan keyin bu ro'yxat ancha kengaydi. Masalan, 1947-yil 22-dekabrda Italiya Konstitutsiyasining 11-moddasida shunday deyilgan: "Italiya urushni boshqa xalqlarning erkinligiga tajovuz qilish vositasi va xalqaro nizolarni hal qilish usuli sifatida rad etadi; u boshqa davlatlar bilan o'zaro kelishuv shartlari asosida xalqlarga tinchlik va adolatni ta'minlash tartibi uchun zarur bo'lgan suverenitet cheklovlariga rozi bo'ladi; u ushbu maqsadlarga intilayotgan xalqaro tashkilotlarni rag'batlantiradi va ularga yordam beradi"¹¹. 1949-yil 23-maydagi Germaniya Konstitutsiyasining 26-moddasi xuddi shu ruhda yozilgan.

O'zbekiston o'zining tinch tashqi siyosatini konstitutsiyaviy ravishda mustahkamlagan davlatlar qatoriga kiradi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasiga ko'ra: "O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro

huquqning umum e'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi"¹². Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Konstitutsiyasi davlatimiz suverenitetini e'lon qilish bilan birga, xalqaro hamjamiyat oldida boshqa davlatlar suverenitetini tan olish va hurmat qilish majburiyatlarini ham olmoqda.

Bir qator davlatlar o'zlarining konstitutsiyalarida doimiy betaraflikni e'lon qilib, boshqacha yo'l tutdilar. Ushbu davlatlar ixtiyoriy ravishda (bir tomonlama yoki xalqaro shartnomaga muvofiq) doimiy betaraflik, ya'ni harbiy ittifoqlarga qo'shilmaslik va tinchlik hamda urush davrida o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy tuzilmasi bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka rioya qilish majburiyatini oldilar. Hozirgi vaqtda quyidagilar doimiy neytral davlatlar hisoblanadi:

- Shveysariya (1815-yil 8-noyabrda Shveysariyaning doimiy betarafliigi va uning hududi daxlsizligini tan olish va kafolatlash to'g'risidagi Parij aktiga binoan);
- Avstriya (1955-yil 26-oktabrda Avstriya betarafliigi to'g'risidagi Federal Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq);
- Malta (Malta Respublikasi hukumatining 1981-yil 14-maydagi Deklaratsiyasi);
- Turkmaniston (BMT Bosh Assambleyasining 1995-yil 12-dekabrda qarori va Turkmanistonning 1995-yil 12-dekabrda Konstitutsiyaviy qonuni);
- Vatikan (Italiya bilan 1929-yil 11-fevralda Lateran shartnomasi);
- San-Marino Respublikasi (Italiya bilan 1939-yil 31-martda shartnoma);
- Kamboj (1991-yil 23-oktabrda Kamboj bo'yicha Parij konferensiyasida imzolangan kelishuv).
- Shvetsiya betaraflik siyosatiga an'anaviy ravishda, shu jumladan, urush paytida ham amal qiladi, ammo bu qoida na konstitutsiyaviy hujjatlarda, na xalqaro hujjatlarda rasman qayd etilgan¹³.


Xalqaro munosabatlarning jadal rivojlanishi va asosan ko'p qirrali hamkorlik xalqaro shartnomalar va tashkilotlar sonining sezilarli

¹⁰ Конституции зарубежных государств. – М.: Издательство БЕК, 1997. – С. 438.

¹¹ Конституции государств Европейского Союза. Под ред. Л.А.Окунькова. – М.: Издательская группа ИНФРАМ-НОРМА, 1997. – С. 424.

¹² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – B.8.

¹³ Международное право. Отв. Ред. Ю.М.Колосов. – М.: Международные отношения, 2000. – С.81-82.



darajada ko'payishiga olib keldi. Bir qator mamlakatlarning konstitutsiyalari bu jarayonga javob berishi kerak edi. Konstitutsiyalarda xalqaro va milliy huquq normalarining nisbatlarini tartibga soluvchi normalar paydo bo'la boshladi. Masalan, 1958-yilgi Fransiya Konstitutsiyasi ichki qonunchilik va xalqaro-huquqiy normalar o'rtasidagi nisbatni quyidagicha hal qildi: "tegishli ravishda ratifikatsiya qilingan yoki tasdiqlangan shartnomalar yoki bitimlar, ular e'lon qilingan paytdan boshlab, boshqa tomonning bunday shartnomani qo'llash sharti bilan, ichki qonunlardan ustun mavqega ega"¹⁴. Germaniya Konstitutsiyasining 25-moddasida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari federal qonunning ajralmas qismi sifatida belgilanadi. "Ular qonunlardan ustunlikka ega va to'g'ridan to'g'ri Federatsiya hududida yashovchi shaxslar uchun huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradi"¹⁵. Shuningdek, 1993-yilgi Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga binoan "xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalari va Rossiya Federatsiyasining xalqaro shartnomalari uning huquqiy tizimining ajralmas qismidir. Agar Rossiya Federatsiyasining xalqaro shartnomasida qonunda nazarda tutilganidan

boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, unda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi" (Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 15-moddasi, 4-bandi).

Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalarining ustuvorligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida ham qayd etilgan. 17-moddada esa tashqi siyosatni tashkil etish masalalarida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga oliy yuridik kuch e'tirof maqomi berilgan. "Ushbu tamoyillarning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi shuni ko'rsatadiki, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalari O'zbekiston hududida ichki qonun sifatida amal qiladi va ularni konstitutsiyaviy prinsiplarga ko'tarish nafaqat ularning keng qo'llanishi, balki har qanday ichki qonun hujjatlarini ular bilan birgalikda shakllantirish talabini, barcha davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ularga qat'iy rioya etilishini anglatadi"¹⁶. Xalqaro huquq normalarining milliy huquqdan ustunligini mustahkamlagan bunday konstitutsiyalarni qabul qilgan davlatlar soni dunyoda ko'pchilikni tashkil qiladi.

¹⁴ Конституции государств Европейского Союза. Под ред. Л.А.Окунькова. – М.: Издательская группа ИНФРАМ-НОРМА, 1997. – С. 676.

¹⁵ Конституции государств Европейского Союза. Под ред. Л.А.Окунькова. – М.: Издательская группа ИНФРАМ-НОРМА, 1997. – С. 676.

¹⁶ Саидов А.Х. На основе равноправия и взаимной выгоды. – "Народное слово". – 6 декабря 2000 г.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – B.8.
2. Xalqaro huquq. Darslik. Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2018. – B.129.
3. Гаджиев К.С. Введение в политическую науку. – М.: Логос, 1997. – С. 288-289.
4. Конституции зарубежных государств. – М.: Издательство БЕК, 1997. – С. 438.
5. Конституции государств Европейского Союза. Под ред. Л.А. Окунькова. – М.: Издательская группа ИНФРАМ-НОРМА, 1997. – С. 424.
6. Конституция Российской Федерации // <http://kremlin.ru/acs/constitution>
7. Конституции зарубежных государств. – М.: Издательство БЕК, 1997. – С. 443.
8. Международное право. Отв. Ред. Ю.М. Колосов. – М.: Международные отношения, 2000. – С.81-82.
9. Международное право: Отв. ред. Ю.М. Колосов. – М.: Международные отношения, 2000. – С. 14.
10. Международное право: Отв. ред. Ю.М. Колосов. – М.: Международные отношения, 1996. – С. 15.
11. Международное публичное право: Учебник. – Т.: Заркалам; ТГЮИ; ЦИПЧГП, 2003. – С. 87-90.
12. Саидов А.Х. На основе равноправия и взаимной выгоды. Народное слова. – 6 декабря 2000 г.
13. Современные международные отношения. / Под ред. А.В. Торкунова. – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2000. – С. 70-93.
14. Тузмухамедов Р.А., Хакимов Р.Т. Основы международного права. – Т.: Издательский дом “Мир экономики и права”, 1998. – С. 11.
15. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning Birlashgan Millatlar tashkilotining besh yuz yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali majlisidagi nutqi (Nyuu-York, 1995 yil 24 oktyabr) // Xalq so'zi. – 2000 y. 2 sentyabr.

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDA INTEGRATSION JARAYONLARNING SIYOSIY VA IQTISODIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

VORISOVA

*Komilaxon Olmos qizi,
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti tayanch doktoranti*

ANNOTATSIYA

Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) 2009-yilda tashkil topgan bo'lib, a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim mintaqaviy tuzilmaga aylandi. Ushbu maqola TDTning hozirgi iqtisodiy va siyosiy manzarasini tahlil qiladi, asosiy tashabbuslar, muammolar va tashkilotning mintaqaviy integratsiyadagi rolini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: sammit, funksionalizm, diversifikatsiya, institutsionalizm, ittifoq, innovatsiya, platforma, infratuzilma, integratsiya.

АННОТАЦИЯ

Организация тюркских государств (ОТГ) была создана в 2009 году и стала важной региональной структурой, направленной на развитие экономического, политического и культурного сотрудничества между ее государствами-членами. В статье анализируется текущий экономический и политический ландшафт ОТГ, рассматриваются ее основные инициативы, проблемы и роль организации в региональной интеграции.

Ключевые слова: саммит, функционализм, диверсификация, институционализм, альянс, инновации, платформа, инфраструктура, интеграция.

ANNOTATION

The Organization of Turkic States (OTS) was established in 2009 and has become an important regional structure aimed at developing economic, political and cultural cooperation among its member states. This article analyzes the current economic and political landscape of the OTS, highlighting its main initiatives, challenges and the organization's role in regional integration.

Key words: summit, functionalism, diversification, institutionalism, alliance, innovation, platform, infrastructure, integration.

Xalqaro tashkilotlar va tuzilmalar xalqaro munosabatlar tizimi doirasida mintaqaviylik, institutsionalizm va funktsionallik nazariyalari va tarixiy yondashuv orqali o'rganiladi. Amerikalik siyosatshunos Samuel P.Xantington "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" kitobida rivojlanayotgan turkiy tilli davlatlarning umumiy sivilizatsiyasi soyasi ostidagi hamkorlik usullarini tahlil qiladi. Xantington nazariyasiga ko'ra, "Sovuq urush" tugaganidan so'ng davlatlar umumiy madaniyat elementlariga ega bo'lgan davlatlar bilan ittifoq tuzishga intilishadi va bu davlatlarning siyosatchilari va jamoat arboblari aynan til, din va o'zaro qadriyatlar yaqinligi hamda qardoshlik munosabatlari tufayli bir-biriga ishonishga moyil bo'ladi. TDT Ozarboyjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va O'zbekistonni o'z ichiga olgan a'zo davlatlar hamda Vengriya, Turkmaniston va Shimoliy Kipr kabi kuzatuvchi davlatlarni birlashtiradi. Tashkilot umumiy til, madaniyat va tarixiy aloqalarga asoslangan hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilgan. So'nggi o'n besh yil ichida TDT o'z faoliyat doirasini kengaytirib, savdo, transport, raqamlashtirish va madaniy almashinuv kabi turli sohalarni qamrab oldi.

Iqtisodiy hamkorlik TDTning kun tartibida markaziy o'rinni egallaydi. 2023-yilda 500 million AQSH dollari miqdoridagi boshlang'ich kapital bilan tashkil etilgan Turkiy Investitsiya Jamg'armasi muhim bosqich bo'ldi. Ushbu jamg'arma ichki mintaqaviy savdo va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi, kichik va o'rta biznes(KO'B)ni rag'batlantiruvchi va a'zo davlatlar o'tasida innovatsiyalarni rivojlantiruvchi umumiy moliyaviy platforma vazifasini bajaradi. Infratuzilmani rivojlantirish ham asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Trans-Kaspiy Xalqaro Sharq-G'arb O'rta Koridori kabi loyihalar Osiyo va Yevropani bog'lovchi uzluksiz savdo tarmog'ini yaratish, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va a'zo davlatlarning global miqyosdagi ishtirokini oshirishga qaratilgan. O'rta Koridorning janubiy yo'nalishi hisoblangan

Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li yiliga 12–15 million tonna yuk tashishni ta'minlab, mintaqaviy savdo hajmini sezilarli darajada oshirishi kutilmoqda.

Iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida TDT xizmatlar va investitsiyalar bo'yicha Erkin Savdo Kelishuvi hamda Raqamli Iqtisodiyot Hamkorlik Kelishuvini imzolash bo'yicha muzokaralarni boshladi. Ushbu tashabbuslar savdo to'siqlarini bartaraf etish, biznes uchun yangi imkoniyatlar ochish va mintaqada o'sish va innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan. Shuningdek, TDT a'zo davlatlarning Markaziy(Milliy) Banklar Kengashini tashkil etish jarayonida bo'lib, bu moliyaviy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Siyosiy jihatdan, TDT a'zo davlatlar uchun siyosatni muvofiqlashtirish va mintaqaviy hamda global masalalarda yagona pozitsiyani ifodalash maydonini taqdim etadi. Tashkilot Janubi-Sharqiy Osiyo Davlatlari Assotsiatsiyasi(ASEAN), Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti(YXHT), Fors Ko'rfazi Hamkorlik Kengashi(GCC), Islom Hamkorlik Tashkiloti(IHT) va Afrika Ittifoqi kabi tashqi hamkorlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yib, turkiy dunyo doirasidan tashqarida ham diplomatik ta'sirini kuchaytirmoqda. 2024-yil aprel oyida Jenevada joylashgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ofisida Turkiy Hafta tadbirining muvaffaqiyatli o'tkazilishi a'zo davlatlarning boy madaniy merosini namoyish etdi va TDTning xalqaro maydondagi diplomatik mavqeyini mustahkamladi. TDT Markaziy Osiyoda tashqi ta'sirlarni muvozanatlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Mintaqada tarixan Rossiya va Xitoy kabi qudratli davlatlar hukmronlik qilib kelgan. Trans-Kaspiy Koridori va Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li kabi loyihalar orqali hamkorlikni rivojlantirish va bog'liqlikni kuchaytirish orqali TDT a'zo davlatlarga yagona turkiy ovozni ifodalash imkoniyatini beradi hamda mintaqaviy mustaqillik va iqtisodiy integratsiyani rag'batlantiradi. Shunga qaramay, TDT chuqurroq integratsiyaga erishishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Hozirda TDT ichidagi savdo a'zo va kuzatuvchi davlatlarning umumiy tashqi savdo hajmining atigi 7 foizini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich 1,1 trillion AQSh dollaridan oshdi. Tashkilot yaqin kelajakda bu raqamni 10 foizga

yetkazishni maqsad qilgan. Buning uchun savdo to'siqlarini bartaraf etish va savdo jarayonlarini soddalashtirish choralari ko'rilmogda.

Siyosiy tahlilchilarning fikricha, turkiy davlatlar integratsiyasiga to'sqinlik qiladigan bir necha omillar mavjud.

Birinchidan, Markaziy Osiyoda shakllangan kuchlar nisbati (AQSH, Xitoy va Rossiya) mavjudligi va siyosiy beqarorlik. Bu omil ba'zi turkiy tilli davlatlardagi barqarorlik va iqtisodiy o'sishga putur yetkazishi, jumladan mojarolar, chegara nizolari (masalan, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi nizo), ichki tartibsizliklar va siyosiy boshqaruvdagi turg'unlik mintaqaviy raqobatga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchidan, tabiiy resurslarga iqtisodiy qaramlik va cheklangan iqtisodiy diversifikatsiya. Ba'zi a'zo davlatlar tabiiy resurslar eksportiga qattiq bog'liq bo'lib, bu ularni xomashyo narxlarining o'zgarishi, eksportga bo'lgan talab, sarmoyani kamaytirishi, ishsizlik va ijtimoiy tartibsizliklarni kuchaytirishi va iqtisodiy zarbalarga qarshi zaiflashishi mumkin.

Uchinchidan, turkiy davlatlar integratsiyasining lokomotivi Turkiyaning cheklangan iqtisodiy imkoniyatlari geosiyosiy raqobatga bardosh berishi mushkul. Ekspertlarning fikricha, turkiy davlatlar orasida o'ta qudratli davlatlar mavjud emas. Bu yerda birodarlik, tarixiy o'zlik va hamkorlikka bo'lgan ehtiyoj kuchliligi jihatidan ham Shanhay hamkorlik tashkilotidan ajralib turadi.

Shunga qaramay, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida bir qator imkoniyatlar mavjudki, ularni ham aytib o'tish joiz.

Birinchidan, strategik joylashuvi: xususan Turkiya, Ozarboyjon va Vengriya strategik jihatdan Yevropa va Osiyo chorrahasida joylashgan bo'lib, bu ularga savdo va transport sohasidagi raqobatdoshlikda ustunlik beradi.

Ikkinchidan, tabiiy resurslar: xususan, Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekiston tabiiy resurslar, jumladan neft, gaz va foydali qazilmalarga boy bo'lib, ular daromad manbayi va iqtisodiy o'sishni ta'minlay oladi.

Uchinchidan, yosh aholi: a'zo davlatlarning barchasi yosh aholiga ega bo'lib, ular iqtisodiy samaradorlik va innovatsiyalar bo'yicha demografik dividendni ta'minlay oladi.

To'rtinchidan, mintaqaviy integratsiya: a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy o'sish va barqarorlikka yordam beradigan savdo kelishuvlari, infratuzilma loyihalari va madaniy almashinuv kabi yaqinroq mintaqaviy integratsiyadan foyda olishlari mumkin.

Beshinchidan, infratuzilmaga sarmoya kiritish: jumladan, transport, energetika va telekommunikatsiya sohalariga sarmoya kiritib, aloqa va raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin. Yaqin kelajakda turkiy davlatlar oldida turgan hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri ham aynan mavjud transport yo'laklaridan samarali foydalanish bo'lishi va kelajakda Xalqaro Trans-Kaspiy korridorining ahamiyati



oshishi kutilmoqda. Ozarboyjon tomonidan taklif qilingan, Naxchivonni boshqa Ozarboyjon hududlari bilan bog'lashi ko'zda tutilgan Zangezur transport yo'lagini ishga tushirish imkoniyatlari yanada oshirishi mumkin. Chunki Zangezur yo'lagi Turkiya va Ozarboyjon va boshqa turkiy respublikalar o'rtasidagi transport va temir yo'l aloqalarini tiklaydi. Bu masalada Rossiya, Turkiya va Ozarboyjon manfaatlari kesishadi. Bu koridor orqali Rossiya Armaniston, Eron va Turkiya bilan aloqalarni yanada mustahkamlash mumkin.

Oltinchidan, iqtisodiy diversifikatsiya: jumladan, noresurs sohalarga sarmoya kiritish, innovatsiyalar va texnologiyalardan foyda olishlari mumkin, bu esa ularning tashqi zarbalarga nisbatan zaifligini kamaytiradi va uzoq muddatli o'sishga yordam beradi.

Yettinchidan, madaniy diplomatiya: xususan, o'z madaniy merosi, tili va an'alarini targ'ib qilish orqali jamiyatlar o'rtasidagi qardoshlik aloqalarini mustahkamlashi, ularni yanada bir-biriga yaqinlashtirishi mumkin. Bu bilan chet elda ijobiy imijni ilgari surish mumkin. Eng muhimi, umumiy til va madaniy merosga egalik turkiy tilli davlatlar o'rtasida madaniy almashinuv sur'ati oshishiga olib keladi.

Xalqaro munosabatlarda funksionalizm nazariyasining asoschisi Devid Mitra qayd etganidek, "Xalqaro tashkilot funksional bo'lishi mumkin, qachonki u faoliyat ko'rsatishi kerak bo'lgan shart-sharoitlarga mutanosib bo'lsa va tashkilotning faoliyati hozirgi zamon talablariga mos ravishda olib borilsagina u amalga oshadi". Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, geosiyosiy manzara ham, imkoniyatlar ham to'siqlarni taqdim etadi. TDT qo'shni davlatlar bilan murakkab munosabatlarni boshqarish bilan birga, ichki hamkorlikni mustahkamlash va strategik tashabbuslarni ilgari surish bilan shug'ullanadi. Turkiy Investitsiya Jamg'armasi va Trans-Kaspiy koridori kabi loyihalar tashkilotning iqtisodiy mustaqillik va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan strategik qarashini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiy davlatlar tashkiloti integratsion tuzilma sifatida rivojlanishning prinsipial jihatdan yangi bosqichiga o'tmoqda. Globallashuv jarayonini ham unutmazlik kerakki, u ro'y berayotgan

muqarrar voqelik bo'lib, xalqaro munosabatlarning tartib-qoidalarini belgilaydi. Global-lashuv barcha xalqaro tuzilmalar, shu jumladan, Turkiy davlatlar tashkilotini ham global masalalarda konsensusga erishish va muammolarni birdamlikda hal qilishga undamoqda. Turkiy xalqlarning sivilizatsiyaviy ildizlari va turkiy davlatlarning mavjud siyosiy irodasi asosida o'zaro yaqinlashuv jarayoni faollashgani, yagona alifbo tizimiga o'tish va madaniy tadbirlar orqali qardosh jamiyatlarni bir-biriga bog'lash, o'zaro savdo-iqtisodiy, transport-tranzit aloqalarni kengaytirish sari tashlanayotgan dadil qadamlar tashkilotning yorqin istiqbolidan dalolatdir. Albatta, ko'p tomonlama hamkorlik, ko'p tomonlama rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Tashkilot zamon ruhiga mos keladi va o'z kun tartibini shakllantiradi va shunga mos ravishda o'z vazifalarini bajaradi. Bu bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkilotining dinamik rivojlanishi jarayonining asosiy sababidir. Tashkilotning kelajakdagi konyunktutaviy o'zgarishlar, ichki siyosiy vaziyatlar, hokimiyat transformatsiyasiga samarali moslashishi uning "umumiy turkiy oila" sifatidagi muvaffaqiyatida muhim omil bo'lishi mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, Markaziy Osiyo tarixiy-ma'naviy markaz sifatida turkiy davlatlar integratsiyasida muhim o'ringa ega bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, fundamental qadriyatlar va umimiy til bilan anglashiladigan turkiy dunyo bilan bog'langan O'zbekiston ushbu ulkan geosiyosiy makro makonning markaziy ustunlaridan biridir. Tashkilotga a'zolik doirasida O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati kundan-kunga kengayib borayotgani bu borada katta potensial mavjudligini ko'rsatadi.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim yutuqlarga erishdi. Infratuzilmani rivojlantirish, raqamlashtirish va madaniy almashinuv bo'yicha strategik tashabbuslar orqali TDT mintaqaviy va global ishlarda asosiy o'yinchi sifatida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Yagona maqsadlarni amalga oshirishga sodiqlik va mavjud muammolarni hal qilish tashkilotning birlik, o'sish va umumiy kelajak sari intilish maqsadiga erishishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Samuel P. Huntington, *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*, New York: Simon and Schuster, 1996.
2. Nakhichevan Agreement on the Establishment of the Cooperation Council of Turkic Speaking States. October 3, 2009. <https://turkicstates.org/assets/dokuman/Nahngilizce1.pdf>
3. Organization of Turkic States. <https://www.turkicstates.org/en/gozlemci-ulkeler>
4. Cengiz Tomar & Ülviyya Amuyeva, "Analytics: From Turkic Speaking Countries to Turkic States (in Russian)," Anadolu Agency, November 15, 2021, <http://v.aa.com.tr/2421283>.
5. "Members Endorse Turkmenistan's WTO Observer Status," World Trade Organization, July 22, 2020.
6. Pelin Musabay Baki, *Cooperation among the Turkic Speaking States and the New Regionalism*, unpublished Ph.D. thesis (in French), Galatasaray University, Istanbul, 2020, Chapter III, pp. 420- 429.
7. "The Turkic Council was Renamed the Organization of Turkic States," In Business, November 13, 2021, <https://inbusiness.kz/ru/last/tyurkskij-sovet-pereimenovali-v-organizaciyu-tyurkskihgosudarstv>.
8. Zbigniew Brzezinski, *The Grand Chessboard: American Primacy and its Geostrategic Imperatives* (in Russian), Moscow: ACT, 2021, p. 225.
9. Azon-TV. https://www.youtube.com/c/AzonTVuz?sub_confirmation=1
10. "Zangezur Corridor Will Provide a New Link between Türkiye and Azerbaijan (in Russian)," Anadolu Agency, May 31, 2021, <https://www.aa.com.tr/ru/mir/zangezurskiy-koridor-obespechitnovoe-soobshchenie-mejdu-turtsiye-i-azerbaydjanom/2259451#>.
11. *The Functional Theory of Politics*. By David Mitrany. New York: St. Martin's Press, 1975. Pp. xxv + 294.
12. Nazirov M. (2021). Some Aspects of Political Transition in Central Asian States. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(6).
13. Saidolimov S., & Nazirov M. (2022). Early Stage of Transition in Central Asian Countries: The Impact of Socio-Cultural Factors. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 13, 228-231.
14. Nazirov M. (2021) Contemporary Trends of Uzbekistan's Regional Policy in Central Asia. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11, 384-389.

TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK TO'G'RISIDAGI ISHDA REABILITATSIYA TAOMILLARI: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR

SHADIYEVA

*Sayyora Arifovna,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti*

*“Fuqarolik huquqi va
xalqaro xususiy huquqiy fanlar”
kafedrasi dotsenti, y.f.n.*

RAZZAQBERGANOVA

*Muyassar Odilbek qizi,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti Xalqaro biznes huquqi
yo'nalishi magistranti*

ANNOTATSIYA

Maqolada to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda reabilitatsiya taomillari, bankrotlik holatidagi qarzdorga vaqtinchalik yordam ko'rsatish, kreditorlar bilan muzokaralar olib borish va moliyaviy tiklanish rejasini ishlab chiqish masalalari tizimlilik nuqtayi nazaridan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: To'lovga qobiliyatsizlik, bankrotlik, tadbirkorlik faoliyati, reabilitatsiya taomillari, ijtimoiy barqarorlik, to'lov qobiliyati, pul majburiyatlari, moliyaviy faoliyat, reabilitatsiya rejas.

АННОТАЦИЯ

В статье с системной точки зрения анализируются вопросы реабилитационных процедур в деле о неплатежеспособности, оказания временной помощи должнику в случае банкротства, ведения переговоров с кредиторами и разработки плана финансового восстановления.

Ключевые слова: неплатежеспособность, банкротство, предпринимательская деятельность, реабилитационные процедуры, социальная стабильность, платежеспособность, денежные обязательства, финансовая деятельность, план реабилитации.

ANNOTATION

The article analyzes from a systematic point of view the issues of rehabilitation procedures in insolvency cases, providing temporary assistance to a debtor in a state of bankruptcy, conducting negotiations with creditors, and developing a financial recovery plan.

Key words: Insolvency, bankruptcy, entrepreneurial activity, rehabilitation procedures, social stability, solvency, monetary obligations, financial activity, rehabilitation plan.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarida jiddiy rivojlanish kuzatilmoqda. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati uchun yaratilayotgan imkoniyatlar o'z samarasini bermoqda. Tadbirkorlik davlat iqtisodiyotini asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biri hisoblanadi va uning rivojlanishi iqtisodiy o'sish, innovatsiya, yangi ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadbirkorlik iqtisodiyotga turli yo'llar bilan ta'sir qiladi va uning rivoji iqtisodiy tizimning turli jabhalari o'zgarishiga olib keladi¹.

Tadbirkorlik faoliyati davomida pul majburiyatlari va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarning to'lanmasligi esa ushbu tadbirkorlarning qarzdorga aylanishiga, unga nisbatan bankrotlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish va tegishli taomilni qo'llashga asos bo'ladi. To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda ishtirokchilar turli bo'lsa-da, qo'llaniladigan barcha taomillarda qarzdor alohida o'ringa ega bo'ladi, barcha protsessual harakatlar uning atrofida amalga oshiriladi. Biroq bankrotlik taomillarini qo'llash uchun faqat qarzdor bo'lishning o'zi yetarli emas, unda to'lovga qobiliyatsizlik belgilari mavjudligi talab etiladi².

To'lovga qobiliyatsizlik yoki bankrotlik – bu korxona yoki tadbirkorning qarzlarini to'lash qobiliyatini yo'qotishidir. Bunday hollarda reabilitatsiya taomillari qarzdorning moliyaviy faoliyatini tiklash uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning to'liq bankrot bo'lishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu maqolada reabilitatsiya taomillarining mohiyati, amaliyotdagi dolzarb muammolari va ularni hal etish bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.

Bankrotlik instituti o'z to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish

(reabilitatsiya) orqali yoki iqtisodiy nochor, rentabelsiz va istiqbolsiz xo'jalik yurituvchi subyektlardan iqtisodiy xalos bo'lish yo'li bilan iqtisodiyotni mustahkamlovchi amaldagi mexanizmlardan biri hisoblanadi³.

Reabilitatsiya taomillari – bu to'lovga qobiliyatsizlik holatiga tushgan qarzdorning moliyaviy ahvolini tiklash va qarzlarini to'lash imkoniyatlarini oshirish uchun qo'llaniladigan huquqiy jarayonlar majmuasidir. Ushbu taomillar odatda qarzdorga vaqtinchalik yordam ko'rsatish, kreditorlar bilan muzokaralar olib borish va moliyaviy tiklanish rejasini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-apreldagi "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi qonunining (bundan buyon matnda To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonun) 32-moddasida: "To'lovga qobiliyatsizlikning oldini olish maqsadida qarzdorning muassislari (ishtirokchilari), boshqaruv organi yoki qarzdor mol-mulki egasining qarzdorni to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'g'risidagi arizasi sudga taqdim etilguniga qadar qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'riladi. Qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qarzdor bilan tuzilgan bitimga asosan kreditorlar yoki boshqa shaxslar tomonidan ham ko'rilishi mumkin"ligi keltirilgan bo'lsa, bevosita ushbu Qonunning IX va X boblari korxonani reabilitatsiya qilishga – Sud sanatsiyasi va Tashqi boshqaruv tartib-taomillarini yoritib berishga qaratilgan:

To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunining 3-moddasiga ko'ra, **sud sanatsiyasi** – qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to'lov qobiliyatini tiklash va uning kreditorlar oldidagi qarzini to'lash uchun qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o'tkazmagan holda sud tomonidan qo'llanadigan tartib-taomildir. Sud sanatsiyasi tartib-taomilining huquqiy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, uni joriy etish ikki xil shaklda amalga oshiriladi:

1) kreditorlar birinchi yig'ilishining qarori asosida sud tomonidan qo'llanishi mumkin. Kreditorlar birinchi yig'ilishida sud sanatsiyasini joriy etish haqida qaror qabul qilinadi va sudga ma'qullash uchun taqdim etiladi, shuningdek,

3) Azizov X.T. Tadbirkorlik subyektlarining bankrotligi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari // "Moliya" ilmiy jurnali. 2014. № 2. – B. 112.

¹ "Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali" – UIF-2023: 8.2 | 2181-3035 | № 20. 60-bet.

² "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 12.04.2022-yildagi O'RQ-763-son.

sud sanatsiyasining muddati va qarzni uzish ma'qullangan jadvali ko'rsatiladi. Bu holatda sud sanatsiyasining huquqiy tabiati shartnomaga asoslanadi (kreditorlarning o'zaro va qarzdor bilan tuzilgan umumiy shartnomasi). Qarzni uzish jadvalining predmeti muhofaza qilib kelingan qarz majburiyatlarini bajarishning aniq muddatlarini belgilash hisoblanadi. Biroq shuni inobatga olish lozimki, ko'rsatilgan shartnomani klassik kechiktirish shartnomasi bilan adashtirmaslik lozim. Qarzni uzish jadvalining o'ziga xosligi shundaki, kreditorlarning roziligiga kamchilik kreditorlarning irodasi ko'pchilik kreditorlarning irodasiga bo'ysundirilgan holda erishiladi. Klassik kechiktirish shartnomasida qarzdorning roziligi kabi kreditorlardan ham bir xil rozilik talab etiladi;

2) sud tomonidan kreditorlar irodasidan tashqarida joriy etilishi mumkin. Kreditorlar birinchi yig'ilishida qarzdor bankrot deb topilgan yoki hech qanday qaror qabul qilinmagan bo'lsa, sud majburiyatlar bajarilishining ta'minoti (garov) taqdim etilganda sud sanatsiyasini qo'llash to'g'risida ajrim chiqarishga haqli. Yuqoridagi sud sanatsiyasining joriy etish shakllari aslida sud sanatsiyasining rejasini kreditorlar yig'ilishida ko'rib chiqish va sud tomonidan ma'qullashga nisbatan qo'llanishi lozim. Chunki qarzdorda vaqtincha to'lovga qobiliyatsizlik holatining mavjud bo'lishining o'zi qarzdorga sud sanatsiyasini qo'llashga asos bo'ladi. Qarzdorda to'lov to'xtagan bo'lsa ham, lekin uning mol-mulki qiymati majburiyatlari miqdoridan ortiq bo'lsa, o'z-o'zidan qarzdor bankrot deb topilishi mumkin emas. Bu holatda sud tomonidan ariza ish yurituvga qabul qilinishi bilan bir paytda sud sanatsiyasini joriy qilish lozim bo'ladi va sud sanatsiyasi rejasini ishlab chiqish uchun qarzdorga muayyan vaqt beriladi. Agar keyinchalik qarzdorda doimiy to'lovga qobiliyatsizlik holati aniqlanadigan bo'lsa, unda qarzdor bankrot deb topilaveradi. Kreditorlar yig'ilishida faqat sud sanatsiyasi rejasini ko'rib chiqiladi va ma'qullanadi. Agar sud sanatsiyasi rejasini yig'ilishda ma'qullanmaydigan bo'lsa, rejani maromiga yetkazish uchun qo'shimcha muddat taqdim qilinadi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunning 3-moddasiga ko'ra, **tashqi boshqaruv** – qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to'lov qobiliyatini tiklash va kreditorlar oldidagi qarzini to'lash uchun qarzdorning ishlarini boshqarish

vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o'tkazmagan holda sud tomonidan qo'llanadigan tartib-taomil. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, sud sanatsiyasi bilan taqqoslaganda tashqi boshqaruvning quyidagi alohida jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- sud sanatsiyasiga qaraganda tashqi boshqaruvni joriy etish imkoniyati ko'proq;
- tashqi boshqaruvda kreditorlar talablarining qondirilishiga nisbatan moratoriy tatbiq etiladi;
- tashqi boshqaruvda kreditorlar bilan hisob-kitoblar qarzdor to'lov qobiliyati tiklangandan keyin amalga oshiriladi;
- tashqi boshqaruv joriy etilgan paytdan qarzdor boshqaruv organlari vakolatlari tugatiladi, qarzdor rahbari o'z vazifasini bajarishdan chetlashtiriladi;
- qarzdor to'lov qobiliyatini tiklash choralari qarzdor rahbari emas, maxsus subyekt – tashqi boshqaruvchi amalga oshiradi;
- tashqi boshqaruv tartib-taomili faol xarakterga ega bo'lib, qarzdor to'lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Qarzdorni sog'lomlashtirishning haqiqiy chorasi aniqlangan bo'lsa, kreditorlar yig'ilishi iltimosnomasi, to'lovga qobiliyatsizlik ishlari bo'yicha davlat organi arizasi bilan sud tomonidan tashqi boshqaruv joriy etilishi mumkin. Tashqi boshqaruv kuzatuvdan keyin ham, sud sanatsiyasi davrida va qarzdor bankrot deb topilgandan keyin ham joriy etilishiga ruxsat beriladi. Ya'ni boshqa tartib-taomillar davrida qarzdor to'lov qobiliyatini tiklash mumkinligi aniqlansa, sud sanatsiyasi emas, tashqi boshqaruv tayinlanadi.

2021-yil davomida iqtisodiy sudlar tomonidan 9994 ta to'lovga qobiliyatsizlik ishi ko'rilgan bo'lib, 1 ta ishda sud sanatsiyasi (Toshkent shahrida) va 1 ta ishda tashqi boshqaruv (Toshkent viloyatida) joriy qilingan⁴.

Korxonalarni sog'lomlashtirish qarzdorga moliyaviy jihatdan barqaror bo'lish va to'lovlarni muddatiga ko'ra bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini beradi. Bunda rehabilitatsiya taomillari quyidagi tartibda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

1. Rehabilitatsiya rejasini tuzish: bu qarzdor va kreditorlar tomonidan kelishilgan reja bo'lib, qarzdorning qarzlarini qayta tuzish, ularni qayta moliyalashtirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash

⁴ Xudoyberganov B.B. To'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari: sanatsiya va bankrotlik. DCs dissertatsiyasi. – T., 2023.

tartibini belgilaydi⁵.

2. Sud nazorati va boshqaruvi: rehabilitatsiya jarayonlari sud tomonidan tasdiqlangan va nazorat qilinadigan boshqaruvchining ishtirokida amalga oshiriladi.

3. Kreditorlar bilan kelishuv: ushbu bosqichda qarzdor va kreditorlar o'rtasida qarzlarni qaytarish jadvali va shartlari bo'yicha muzokaralar olib boriladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozim bo'lgan yana bir muhim omil bu huquqiy jihat hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunlar moliyaviy qiyinchilikka uchragan korxona yoki shaxslarni rehabilitatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Ushbu qonunchilikning maqsadi qarzdorning faoliyatini saqlab qolish va iqtisodiyotni barqarorlashtirishdir. Biroq amaliyotda qonunchilik, tomonlarning huquqiy bilimlari va moliyaviy resurslar bilan bog'liq kamchiliklar ham mavjud⁶. Quyida rehabilitatsiya jarayonlarida duch kelinadigan asosiy muammolarni sanab o'tamiz.

Sud jarayonlari bilan bog'liq muammo: Sud jarayonlarida rehabilitatsiya masalalarini hal qilish bo'yicha tomonlarda tajriba yetishmovchiligi va murakkab protsessual masalalar jarayonlarning cho'zilishiga olib keladi.

Kreditorlar bilan bog'liq muammolar: ko'pincha kreditorlar qarzdorlarni rehabilitatsiya jarayoniga olib kelishni xohlamaydi va ularni bankrotlikka olib borishni afzal ko'radilar. Natijada kreditor istasa-istamasa bankrotlik holatiga tushadi va hammasini boshidan boshlashga majbur bo'ladi yoki umuman tadbirkorlik faoliyati ko'rsatishni istamaydi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi: moliyaviy resurslarning cheklanganligi rehabilitatsiya rejasini amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Shu o'rinda rehabilitatsiya jarayonlarining huquqiy jihatlariga to'xtalamiz hamda holat yuzasidan qonunchilikda belgilangan taomillarni ko'rib chiqamiz. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 57-moddasi, To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunning 1-moddasiga asosan davlat korxonasi va budjetdan ta'minlanadigan tashkilotlardan tashqari barcha shaxslarga bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilishi mumkin. To'lovga

⁵ "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. Toshkent sh., 2001-yil 29-avgust, 258-II son.

⁶ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111189>

qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunning umumiy qoidalari tijoratchi tashkilotlarga, ya'ni shirkatlar, jamiyatlar, xususiy korxona, ishlab chiqarish kooperativiga nisbatan bir xil qo'llaniladi. Ular tomonidan tegishli majburiyatlar yoki to'lovlar majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida bajarilishi kerak, aks holda (jami talablar eng kam ish haqi miqdorining kamida besh yuz baravarini tashkil etadigan bo'lsa) sud to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atishi mumkin. Mazkur qonunning XIII bobida qarzdor yuridik shaxslarning ayrim toifalari (qishloq xo'jaligi korxonasi, bank, sug'urtalovchi, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari va h.k.) to'lovga qobiliyatsizligining o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan⁷.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan notijorat tashkilotlarning faoliyati avans kapitalga bog'liq bo'lmaganligi sababli ularning to'lovga qobiliyatsiz qarzdorga aylanish ehtimoli juda past. Bundan tashqari, notijorat tashkilot o'z faoliyatida kreditlardan keng miqyosda foydalanmaydi. Buesa to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi normalarni ko'rsatilgan shaxsga qo'llash zaruratini shubha ostiga qo'yadi. Boshqa tomondan holatga huquqiy baho bersak, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 40-moddasida tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar daromad keltiradigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkinligi belgilangan. Notijorat tashkilotlarning shunday faoliyatni amalga oshirishi avans kapitalga murojaat qilish va kreditdan foydalanish zaruratini keltirib chiqarishi mumkin. Natijada to'lovga qobiliyatsizlikka oid huquqiy normalarni ularga nisbatan qo'llashga to'g'ri keladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bajarilmagan majburiyatlardan qutulish to'lovga qobiliyatsizlikning umume'tirof etilgan prinsiplariga mos kelmaydi va bu kreditorlarning talablari to'liq va adolatli qanoatlantirilmagligiga sabab bo'libgina qolmay, balki to'g'ridan-to'g'ri kreditorga zarar yetkazadi. Ko'rsatilgan faktga tushunmaslik to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilikning konseptual qoidalari noto'g'ri qo'llanilishiga olib keladi.

⁷ Jismoniy shaxslarning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi ishlarning o'ziga xos jihatlari. Nasullayev Mubin – Yuristlar malakasini oshirish markazi dotsenti. 19-dekabr 2022-yil. Onlayn nashr (<https://uzmarkaz.uz/ru/news/zhismonij-shaxslarning-tolovga-qobiliyatsizligi-togrisidagi-ishlar-ning-oziga-khos-zhiatlari>).

To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atishda qarzdorning huquqiy holati muhim ahamiyatga ega. Umumiy qoidaga ko'ra bankrotlik to'g'risidagi ish qarzdorda to'lovga qobiliyatsizlik belgilari (bankrotlik alomatlari) mavjud bo'lganda qo'zg'atiladi. To'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) huquqining rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastlab bankrotlik to'g'risidagi ish to'lovsizlik asosida qo'zg'atilganligiga guvoh bo'lamiz. To'lovsizlik deganda majburiyatlarning umumiy miqdori qarzdorning mol-mulki qiymatidan ortib ketishi natijasida qarzdorning pul majburiyatlarini bajarishga qodir emasligi tushuniladi.

To'lovsizlik asosida ishni qo'zg'atish kreditorlar manfaatlariga mos kelmas ekan, kreditorlar bankrotlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish uchun qarzdorlik miqdori qarzdorning mol-mulki qiymatidan ortishini kutishlari lozim edi. Natijada davlatlar qonunchiligi va amaliyotiga oldin qo'llanilmagan yangi kategoriya to'lovga qobiliyatsizlik belgilari kirib keldi. To'lovga qobiliyatsizlik belgilarining afzalligi shundan iborat ediki, agar qarzdor kreditorlar talablarini tegishli muddatlarda bajarishga qodir bo'lmasa, qarzdorlik miqdori belgilangan summani tashkil etsa, kreditorlar yoki qarzdor bankrotlik to'g'risidagi ishni ochish to'g'risida sudga murojaat qilishi mumkin bo'lardi. Darhaqiqat, kreditorlarning tegishli miqdordagi talablarini qanoatlantirmaslik bankrotlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atishning asosiy sharti hisoblanadi. Ushbu qarzdorlik miqdorlarining qonun normalari bilan belgilanmasligi qarzlarni undirish jarayoni uzoq muddatga cho'zilishiga olib keladi. To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunning 5-moddasida to'lovga qobiliyatsizlikning belgilarini anglatuvchi qoidalar, ya'ni vaqtincha to'lovga qobiliyatsizlik va doimiy to'lovga qobiliyatsizlik shartlari tushuntirilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib reabilitatsiya taomillarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha islohotlar o'tkazish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflarni keltiramiz.

To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunning 9-moddasiga asosan, qarzdorning to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish haqidagi arizasi 1 oy ichida sudga jo'natilishi lozim, biroq o'z vaqtida taqdim qilinmasligi oqibatida davlat bojlari o'z vaqtida undirilmasdan qolmoqda. Bugungi kunda, odatda ariza kechiktirilgan qarzdorlikni undirish bo'yicha

hech qanday chora qolmaganda va ijro ishini yuritish davomida qarzdor mol-mulki qarzni uzish uchun yo'naltirilgandan keyin taqdim etilmoqda. Bu kabi holatlarning oldini olish uchun bir qator xorijiy davlatlar qonunchiligida mavjud bo'lgan qarzdorning bankrotligining oldini olish, uni kreditorlardan himoya qilish va o'z vaqtida chora ko'rish maqsadida *to'lovga qobiliyatsizlik xavfi ostidagi korxonalarda*⁸ ham to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish mumkinligini chuqur tahlil qilgan holda davlatimizda ham shu amaliyotni qo'llash maqsadga muvofiq. Bu ham o'z navbatida korxonani sog'lomlashtirishga qaratilgan ilk qadam hisoblanadi.

Bundan tashqari, qonunchilikni isloh qilish:

to'lovga qobiliyatsizlik va reabilitatsiya taomillarini samarali amalga oshirish uchun maxsus qonunlar hamda tartiblar chegaralarini yanada aniq va batafsil belgilash;

sud tizimini kuchaytirish: sudyalari va muvaqqat boshqaruvchilar uchun qo'shimcha malaka oshirish dasturlarini tashkil qilish;

kreditorlar va qarzdorlar o'rtasidagi muvozanat: kreditorlar va qarzdorlar o'rtasida konstruktiv hamkorlikni rivojlantirish va muzokaralar olib borishda davlat tomonidan vositachilik qilish tizimini joriy etish;

moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimlari: hukumat va banklar tomonidan reabilitatsiya jarayonlariga yordam beradigan moliyaviy resurslar, ya'ni kam foizli kreditlar ajratilishini joriy qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

XULOSA

To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda reabilitatsiya taomillari qarzdorlarni to'liq bankrotlikdan saqlab qolish va ularning iqtisodiy faoliyatini tiklash uchun muhim vosita hisoblanadi. O'zbekistonda ushbu taomillarni samarali qo'llash uchun qonunchilik, sud tizimi va kreditorlar bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, xorijiy tajribani, shu o'rinda Yaponiya amaliyotini o'rganish va amaliyotda qo'llash ijobiy samara berishi shubhasiz. Mazkur masalalarni hal etish orqali mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni oshirish va bankrotlik jarayonlarini yumshatish imkoniyati yanada kengayishi mumkin.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining rasmiy veb sahifasi (<https://davaktiv.uz>).



ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
2. "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 12.04.2022-yildagi O'RQ-763-son.
3. Azizov X.T. Tadbirkorlik subyektlarining bankrotligi va uning huquqiy asoslarini takomillash-tirish masalalari // Moliya ilmiy jurnali. 2014. № 2. – B. 112.
4. B.B.Xudoybergenov. To'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari: sanatsiya va bankrotlik. 2023-y. DSc dissertatsiya.
5. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali – UIF-2023: 8.2 | 2181-3035 | № 20. 60-bet.
6. "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Res-publikasining qonuni. Toshkent sh., 2001-yil 29-avgust, 258-II-son.
7. To'lovga qobiliyatsizlik jarayoni: milliy amaliyot va xorijiy tajriba. Saida Mahmudova, Farg'ona tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi. 30-may 2024-yil. Onlayn nashr (<https://manewsagency.uz/site/news/858>).
8. Jismoniy shaxslarning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi ishlarning o'ziga xos jihatlari. Nasullayev Mubin – Yuristlar malakasini oshirish markazi dotsenti. 19-dekabr 2022-yil. Onlayn nashr (<https://uzmarkaz.uz/ru/news/zhismonij> – shaxslarning – tolovga – qobiliyatsizligi – togrisidagi-ishlar ning-oziga-khos-zhiatlari).
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining rasmiy veb sahifasi (<https://davaktiv.uz>).
10. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

YAKKA TARTIBDA NODAVLAT SUD EKSPERTIZA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHGA RUXSAT BERISH MASALALARI

JURAEV

Farrux Xusanovich

*Adliya vazirligi Yuridik ta'lim va
sud-ekspertiza boshqarmasi bosh
maslahatchisi*

ANNOTATSIYA:

Maqolada yakka tartibda nodavlat sud ekspertiza faoliyatini amalga oshirishning umumiy ahamiyati ko'rsatilgan bo'lib, bunda xorijiy davlatlarning qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan yakka tartibda nodavlat sud ekspertiza faoliyatini amalga oshirishga oid qoidalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ekspert, ekspertiza, ekspertiza turlari, nodavlat sud ekspertiza, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari, yakka tartibda.

АННОТАЦИЯ:

В статье показано общее значение осуществления негосударственной судебно-экспертной деятельности в индивидуальном порядке, в котором проанализированы правила осуществления негосударственной судебно-экспертной деятельности, предусмотренные в законодательстве зарубежных стран.

Ключевые слова: эксперт, экспертиза, виды экспертиз, негосударственная судебная экспертиза, негосударственные судебно-экспертные организации, индивидуально.

ANNOTATION:

The article shows the general importance of the implementation of non-state forensic expertise activities on an individual basis, in which the rules on the implementation of non-state forensic expertise activities on an individual basis provided for in the legislation of foreign countries are analyzed.

Key words: expert, expertise, types of expertise, non-governmental forensic expertise, non-governmental forensic expertise organizations, individually.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4125-son qaroriga asosan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etishga ruxsat berilgan.

Ushbu Qarorga muvofiq nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan 44 ta ekspertiza turi yuzasidan ekspertiza tadqiqotlari o'tkazilishi belgilangan bo'lib, sud ekspertlari nodavlat sud eksperti sifatida qayta tayyorlashga vakolat berilgan davlat muassasalarida tegishli tayyorgarlikdan o'tishi lozim.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari fuqarolik va iqtisodiy ishlarda shartnomaga asosan to'lov asosida tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqda. Biroq, amaliyotda 80-85 foiz ekspertizalar jinoyat ishlari doirasida tayinlanishi sababli, aksariyat ekspertizalar davlat sud ekspertiza muassasalariga tayinlanadi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomning 18-bandida nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti shtatida uning rahbaridan tashqari bir xil yoki turli xil sud ekspertizasi yo'nalishi bo'yicha sud eksperti sertifikatiga ega kamida ikki nafar sud eksperti bo'lishi lozimligi belgilangan.

Mamlakatimizda 5 ta "PROEX", "SUD EKSPERT", "GARANT", "INVEST EKSPERT PRO" va "EXPERT GROUP" nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarida 22 ta sud eksperti tomonidan 17 ta turdagi ekspertizalar yuzasidan faoliyat yuritib kelinmoqda.

Biroq, amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan yakka tartibda nodavlat sud ekspertiza faoliyatini amalga oshirishga ruxsat berilmaganligi sababli, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyati to'liq rivojlanmasdan qolmoqda hamda ular o'rtasida raqobat muhiti shakllanmasligiga olib kelmoqda.

O'z navbatida, mazkur masala yuzasidan AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Fransiya, Chexiya, Latviya, Litva, MDH davlatlari va boshqa shu kabi xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganilganda, ushbu davlatlarda yakka tartibda sud ekspertiza faoliyatini amalga oshirishga ruxsat ber-

ilganligini hamda faoliyat yuritish uchun alohida talablar mavjudligini ko'rish mumkin. *Xususan,*

AQShda individual (yakka tartibda) faoliyat bilan shug'ullanadigan sud ekspertlariga Sud ekspertizasi milliy komissiyasi va Amerika kriminalistika kengashi (*American Board of Criminalistics (ABC)*) tomonidan ekspertlarning kasbiy malaka sertifikatlari taqdim etiladi. Bunda, sertifikatni har 3-5 yilda muntazam yangilab turish lozim.

AQShda yakka tartibda sud ekspertlik faoliyatini amalga oshirishda tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotli va 5 yildan kam bo'lmagan amaliy tajribaga ega hamda maxsus tayyorgarlik kurslaridan o'tgan bo'lishi lozim.

Buyuk Britaniyada Sud ekspertiza xizmati (*FSS – Forensic Science Service*) politsiya va davlat idoralariga sud-ekspertlik xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot bo'lib, uning ro'yxatiga kiritilgan ekspertlar qonunchilikda belgilangan hollarda o'z mutaxassisligidan kelib chiqib sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Shuningdek, yana bir tashkilot Sud ekspertizasi fanlari jamiyati (*The Chartered Society of Forensic Sciences*) xalqaro miqyosda tan olingan professional tashkilot bo'lib, u xususiy sud ekspertlarining professional reestrini yuritadi.

Fransiyada ekspert sifatida ishlashni xohlaydigan shaxslar majburiy tartibda Apellyatsiya sudi (*Cour d'Appel*) yoki Kassatsiya sudi (*Cour de Cassation*) kabi sudlarning ro'yxatidan o'tgan bo'lishi lozim bo'lib, shundan keyin ular davlat ekspertiza markazlarida yoki xususiy markazlarda yoki individual tarzda faoliyat yuritishlari mumkin.

Fransiyada har yili milliy ro'yxat va har bir apellyatsiya sudi uchun ro'yxat tuziladi hamda sud eksperti sifatida xususiy tarzda faoliyat ko'rsatish uchun byuro yoki alohida tashkiliy tuzilmaga asos solish shart emas va ular turli nodavlat ilmiy muassasa, tashkilotlarga a'zo bo'lgan holda ham o'z xizmatlarini taqdim etishi mumkin. Bunda, jismoniy shaxs individual tarzda faoliyat olib borishi uchun huquqbuzarlik sodir etmagan, mutaxassisligi bo'yicha malakaga ega bo'lishi, yetarli darajada kasbiy faoliyat olib borgan bo'lishi, yoshi yetmish ikki yoshdan ortiq bo'lmasligi lozim bo'lib, u sud ekspertizadan boshqa faoliyatni amalga oshirmasligi kerak.

Germaniyada ham mustaqil ravishda faoliyat yuritadigan ekspertlarning alohida reestri (<https://svv.ihk.de/svv-suche/4931566/suche-extern>) mavjud bo'lib, sud ekspertlari, odatda, tegishli sudlar yoki sud organlari tomonidan yuritiladigan sud ekspertiza ro'yxati (*Gutachterverzeichnis*) kabi rasmiy ro'yxatlarda ro'yxatga olinadi.

Avstriyada ham boshqa Yevropa davlatlari singari ekspert sifatida ishlashga tayyor bo'lgan shaxslar tegishli viloyat sudlari okruglari bo'yicha viloyat sudlari raislari tomonidan yuritiladigan mutaxassislik sohasi bo'yicha sud ekspertlari ro'yxatiga kiritiladi (https://e-justice.europa.eu/37146/EN/find_an_expert?AUSTRIA&init=true&member=1) Avstriyada mustaqil ravishda ekspertlik faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxslar tegishli ro'yxatdan o'tishlarini o'zi kifoya qiladi va shundan keyin ular sudlarda ishtirok etishlari mumkin.

Qozog'istonda mustaqil sud eksperti sifatida ishlash uchun Sud ekspertlari Palatasiga (*rpse.kz*) a'zo bo'lish zarur hamda ushbu Palata sud ekspertlarining faoliyatini muvofiqlashtiradigan va ularning huquqiy va professional standartlarga rioya qilishini ta'minlaydigan o'zini-o'zi boshqaruvchi tashkilot hisoblanadi. Sud ekspertining Palata a'zosiga aylanishi uchun, avvalo, sud ekspertizasi o'tkazish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lishi kerak, bu esa ma'lum talablarga javob berishni va zarur imtihonlarni topshirishni talab qiladi.

Qozog'iston Respublikasining 2010-yil 20-yanvardagi 240-IV-son "Qozog'iston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasida jismoniy shaxslarga sud-ekspertiza faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya berilishi va tadbirkorlik faoliyati emasligi, 19-moddada esa sud ekspertizasini o'tkazish litsenziya asosida sud ekspertizasi faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarga topshirilishi mumkinligi belgilangan.

Hindistonda mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotli, 5 yillik tajribaga va sertifikatga ega bo'lgan jismoniy shaxslar sud ekspertiza laboratoriyalari bilan birga yoki mustaqil ravishda sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Bunda, ular sudlar nazoratida bo'lishi va xususiy laboratoriyalari akkreditatsiyadan o'tishi lozim.

Yaponiyada yakka tartibda sud ekspertlik faoliyatini amalga oshirishda sertifikat talab qilinishi bilan birga, sud ekspertiza sohasi bo'yicha magistr darajasiga va 5 yildan ortiq tajribaga ega bo'lishi hamda muntazam malaka oshirishi lozim. Bunda,

ular politsiya laboratoriyalari bilan birga ishlashi va sifat standartlariga rioya qilishi shart.

Belarus Respublikasida 2023-yil 1-yanvardan boshlab sud ekspertiza faoliyati litsenziyalanadigan faoliyat turi sifatida belgilangan bo'lib, Belarus Respublikasida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar sud ekspertizasini o'tkazish huquqiga ega hisoblanadi.

Belarus Respublikasida yakka tartibdagi tadbirkorlar sud ekspertizasining turi (kichik turi) bo'yicha sud eksperti malakasi to'g'risidagi guvohnomaga va sud ekspertizasi tashkilotlarida ekspert sifatida kamida ikki yillik ish tajribasiga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar litsenziya talablariga rioya qilishi zarur bo'lib, unga rioya etilishi ustidan Belarus Respublikasi Davlat sud ekspertizasi qo'mitasi nazorat qiladi.

Chexiya Respublikasining "Ekspertlar, ekspert byurolari va ekspert institutlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, ekspertlar 3 ta toifaga (ekspertlar, ekspert idoralari va ekspert institutlari) bo'lingan.

Qonunga ko'ra, ekspert ekspertiza faoliyatini agar ekspert ekspertiza instituti bilan mehnat yoki shunga o'xshash munosabatlarga ega bo'lsa, u mustaqil ravishda yoki xodim, sherik yoki ekspertlar byurosi a'zosi sifatida ham ekspertiza faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, yakka tartibda sud ekspertlik faoliyatini amalga oshirishda ro'yxatdan o'tilishi kerak bo'lgan mutaxassislikka, mutaxassisligi bo'yicha kasbiy malakaga, yetarli moddiy-texnik baza va vositalarga ega bo'lishi, huquqbuzarlik sodir etmagan, bankrot bo'lmagan, to'liq mustaqil va qasamyod qabul qilgan bo'lishi lozim.

Latviya, Litva va Estoniya davlatlarida rasmiy sertifikatlangan ekspertlar ro'yxati yuritilib, ushbu ro'yxatga talabgorni kiritish uchun ilmiy-tadqiqot yo'nalishida ma'lum bir vaqt ishlaganlik holatini tasdiqlash va boshqa zaruriy talablarni bajarish kifoya qilinadi. Bunda, ro'yxatga kiritilgan ekspert o'zining asosiy ish joyida ishlashi bilan birga, sud ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish huquqiga ham ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2010.
3. <https://online.zakon.kz>.
4. <https://continent-online.com/>.
5. www.lex.uz.

